

R.Davlatov, B.Rustamov

# **VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

RAVSHAN DAVLATOV, BAXTIYOR RUSTAMOV

### VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232-son buyrug'iiga asosan  
50840101 – Veterinariya feldsheri (faoliyat turlari bo'yicha)  
ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent - 2023  
“Fan ziyosi” nashriyoti

Veterinariya ishini tashkil etish [Matn]: Darslik / R.B.Davlatov, B.S.Rustamov. – Toshkent, “Fan ziyozi” nashriyoti, 2023, 208 bet

Ushbu darslik veterinariya meditsinasi texnikumlarining 50840101 – Veterinariya feldsheri (faoliyat turlaribo'yicha) ta'lim yo'naliishlari talabalari uchun rejalashtirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'naliishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktyabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, darslik ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlangan. Darslikda veterinariya qonunchiligi O'zbekiston Respublikasining “Veterinariya to'g'risida”gi qonuni, veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi va uni boshqarish, veterinariyada hisobga olish jurnallari, hisobotlar, hisobga olish hujjat namunalari va birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, veterinariya tadbirlarini rejalashtirish va tashkillashtirish jarayonlari, veterinariya tadbirlarini iqtisodiy samaradorligini tahlili ko'rsatkichlari, veterinariya tadbirlarini moliyaviy va moddiy ta'minoti, tuman (shahar)larda veterinariya xizmatini tashkil qilish, veterinariya sanitariya nazoratini tashkil qilish, xorijiy davlatlarda veterinariya xizmati va ular bilan hamkorlik aloqalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Taqrizchilar:**

**Norboyev Q.N.** – SamDVMCHBU “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasi professori, veterinariya fanlari doktori professor.

**Nurullayev A.A.** – Samarqand viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, biologiya fanlari nomzodi.

**Mualliflar:**

**Davlatov Ravshan Berdiyevich** – Veterinariya fanlari doktori, professor. Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti dekani.

**Rustamov Baxtiyor Suvonqulovich** – Veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD). Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish kafedrasi assistenti.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oily ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruva mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlar bilan ta’minalash to‘g‘risida”gi 816-son hamda 2020-yil 10-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 75-son, qarorlari ijrosini taminlash maqsadida belgilangan vazifalar va berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, veterinariya mutaxassislarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, o‘quv jarayonini sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalash, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani yo‘lga qo‘yish o‘quv jarayonini zamon talablariga javob beradigan o‘quv adabiyotlari bilan ta’minalash ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asosiy maqsadi mayjud imkoniyatlar va intellektual salohiyatni safarbar etib, qishloq xo‘jaligida, xususan chorvachilik mahsulotlari va xomashyosi ishlab chiqarish sur’atini oshirishda, hayvonlarning salomatligi va Davlatimiz hududining epizootik sog‘lomligini ta’minalashda yuqori malakali va iqtisodiy samara beruvchi veterinariya xizmatini tashkil etish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## I-BOB. UMUMIY, TASHKILIY VA BOSHQARUV MASALALARI

### VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu fanni o'qitishda O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni; veterinariya qonunchiligi va huquqiy-me'yoriy hujjatlari; veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi va uni boshqarish; veterinariyada hisobga olish, hisobot va ish yuritish; hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi, ularni hisobga olish va hisobdan chiqarish; veterinariya tadbirlarini rejalashtirish; veterinariya tadbirlarini tashkillashtirish; veterinariya tadbirlarining iqtisodi; veterinariya tadbirlarini moliyaviy va moddiy ta'minoti; tuman, shahar va xo'jaliklarda veterinariya xizmati; xususiy veterinariya xizmati; veterinariya-sanitariya nazorati; xorijiy davlatlarda veterinariya xizmati va o'zaro hamkorlik masalalari haqida bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Veterinariya ishini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuniga asoslangan bo'lib, u veterinariya tashkilotlari va muassasalarining mutaxassislari tomonidan veterinariya tadbirlarini tashkil qilishning ish uslublari va iqtisodini, hayvonlarga veterinariya xizmati ko'rsatish bo'yicha asosiy vazifalarni, veterinariya ishining mohiyati va uning iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini, veterinariya tadbirlari, ob'ektlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, davlat, idoraviy, xususiy va ishlab chiqrishdagi veterinariya xizmatining roli va uni tutgan o'rmini hamda uning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba - veterinariya xizmatini hayvonot dunyosi va inson salomatligini asrashdagli hamda tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishdagi o'rni, veterinariya xizmatining xalq xo'jaligida, mudofaa xizmatida va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xo'jaliklarning iqtisodiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

chorvachilik ob'ektlari, bozorlar, qayta ishslash korxonalari va chegara hududlarida veterinariya sanitariya nazoratini o'tkazish, zoovetervis faoliyatini tashkil etish, iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari, menejment faoliyatlarini yangi va zarur axborot bilan ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

veterinariya xizmatini tashkil qilish, veterinariya tadbirlarini rejalashtirish, tashkillashtirish, iqtisodiy tahlil qilish, moliyalashtirish, xususiy veterinariya xizmatini tashkil qilish, veterinariya-sanitariya nazoratini tashkil qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Fanni o'qitish jarayonida zamонавиу uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning оmmaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlab borishi lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirishi uchun ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniлади.

Veterinariya ishini tashkil etish kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniлади:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.
- Tizimli yondoshuv.
- Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.
- Dialogik yondoshuv.
- Hamkorlikdagи ta'limni tashkil etish.
- Muammoli ta'lim.

### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya xizmatining mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati?
2. Veterinariya xizmatining xususiyati va vazifalariga izoh bering?
3. Veterinariya mutaxassislarining faoliyat ob'ektlarini aytинг?
4. Respublikamizda veterinariya xizmatining turlarini aytинг?

**VETERINARIYA QONUNCHILIGI O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI "VETERINARIYA TO'G'RISIDA"GI QONUNI.**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
"Veterinariya to'g'risi"da**

**1-BOB. UMUMIY QOIDALAR**

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi veterinariya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**2-modda. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlardan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

**3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**biologik chiqindilar** – hayvonlarning jasadlari, veterinariya-sanitariya jihatidan xavfli deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariyaga oid biologik sanoat chiqindilari;

**veterinariya** – hayvonlarning hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining, tarqalishining oldini olishni va ularni tugatishni, aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilishni, O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilishni ta'minlashga, hayvonlarga veterinariya xizmati ko'rsatilishini amalga oshirishga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududining veterinar osoyishtaligini, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi;

**veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari** – veterinariya sohasidagi talablarni belgilovchi, davlat organlari va boshqa organlar, yuridik va jismoniy shaxslar rioya etishi shart bo'lган hujjatlar;

**veterinariya dori vositalari** – kelib chiqishi tabiiy va sintetik bo‘lgan dori moddalaridan (substansiyalardan) yoki dori moddalarining (substansiyalarning) aralashmasidan olingen, hayvonlar kasalliklari profilaktikasi, ularga tashxis qo‘yish va ularni davolash, shuningdek hayvonlar organizmining holati va funksiyalarini o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan vositalar;

**veterinar osoyishtalik** – hayvonlarning sog‘lig‘iga salbiy omillarning zararli ta’sirlari, epizootiya mavjud bo‘lmagan, shuningdek hayvonlarning yashashi uchun qulay shart-sharoitlar ta’minlanadigan holat;

**davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar** – hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, mikroorganizmlar shtammlari, ozuqalar va ozuqabop qo‘srimchalar, veterinariya texnika vositalari, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o‘simlik oziq-ovqat mahsulotlari;

**kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot** – go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek asalarichilik mahsulotlari;

**kelib chiqishi hayvonotga mansub xom ashyo** – hayvonlardan olinadigan, qayta ishlashga mo‘ljallangan mahsulotlar;

**nobop punkt** – hayvonlar yuqumli kasalliklarining o‘chog‘i aniqlangan hudud;

**ozuqa** – hayvonlarni oziqlantirish uchun foydalilanadigan, kelib chiqishi o‘simlik va hayvonotga mansub mahsulotlar;

**ozuqabop qo‘srimchalar** – hayvonlar ratsionida etishmaydigan ozuqaviy va mineral moddalar hamda vitaminlarning manbalari sifatida foydalilanadigan, kelib chiqishi organik, mineral va sintetik moddalar;

**cheklovchi tadbirlar (karantin)** – hayvonlar yuqumli kasalliklari o‘choqlarining doirasi kengayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka va ularni tugatishga, ular tarqalishining oldini olishga qaratilgan, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning alohida tartibini, aholi, transport vositalari, yuklar va (yoki) tovarlar harakati cheklanishini nazarda tutuvchi ma’muriy, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda boshqa chora-tadbirlar;

**epizootiya** – tegishli hududda hayvonlarning o‘ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklari tarqalishi;

**epizootiyaga qarshi tadbirlar** – epizootiyaning oldini olishga, uni aniqlashga yoki tugatishga doir tashkiliy va maxsus veterinariya tadbirlari tizimi;

**hayvonlarning yuqumli kasalliklari** – paydo bo'lishiga hayvonlarga kasalliklarning qo'zg'atuvchilari ta'siri sabab bo'ladigan, tarqalishi hamda boshqa hayvonlarga va odamga o'tishi ehtimoli mavjud bo'lgan kasalliklar.

## **2-BOB. VETERINARIYA VA VETERINAR OSOYISHTALIKNI TA'MINLASH SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH**

**4-modda. Veterinariya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Veterinariya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

veterinariya sohasidagi tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat tomonidan veterinariya sohasidagi normalarni belgilash;

davlat veterinariya nazoratini amalga oshirish;

veterinariya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

**5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining veterinariya sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи:

veterinariya sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

profilaktikasi, tashxis qo'yilishi va tugatilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan Hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari ro'yxatini tasdiqlaydi;

hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo olib qo'yiladigan hamda yo'q qilib tashlanadigan Hayvonlarning kasalliklari ro'yxatini tasdiqlaydi.

**6-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining veterinariya sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

veterinariya sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

tegishli hududda veterinar osoyishtalikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi;

epizootiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining tegishli hududiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**7-modda. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi (bundan buyon matnda Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi deb yuritiladi):

veterinariya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

veterinariya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi;

davlat veterinariya xizmatining hududiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

veterinariya sohasidagi faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi hamda tadbirlar va dasturlarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ushbu sohadagi hamkorligini muvofiqlashtirib boradi;

tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishini ta'minlaydi;

veterinar osoyishtalikni ta'minlash, hayvonlar yuqumli kasalliklarini erta aniqlash, ularga tashxis qo'yish va ular tarqalishining oldini olishga doir profilaktika ishlarining samaradorligi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

mamlakat hududi hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirlishidan muhofaza qilinishini, hayvonlar sog'lig'ini profilaktika qilish va davolashning zamonaviy usullari joriy etilishini, veterinariya dori vositalarining mahalliy hamda xorijiy ilm-fan yutuqlarini joriy etishga asoslangan yangi turlari va shakllari ishlab chiqarilishini ta'minlaydi;

veterinariya faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiradi;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirlishiga va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitiga belgilangan tartibda ruxsatnoma beradi;

mahalliy va import qilinadigan veterinariya dori vositalari hamda ozuqabop qo'shimchalarни ro'yxatdan o'tkazishni va ularga ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalarini berishni amalga oshiradi;

veterinariya sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni tizimli asosda o'z vaqtida ishlab chiqishni va sifatli amalga oshirishni tashkil etishni ta'minlaydi;

idoraviy hamda ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatining hayvonlarni kasalliklardan himoya qilish, hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo xavfsizligini ta'minlashga doir faoliyatini muvofiqlashtiradi;

veterinariya sohasida ilmiy, uslubiy va ta'lim salohiyati har tomonlama rivojlantirilishini, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari belgilanishini, fundamental va amaliy tadqiqotlar, innovatsiya ishlanmlarining veterinariya amaliyotiga joriy etilishini muvofiqlashtiradi;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, rahbariyatning hamda mutaxassislarning ish uslubi hamda shakllarini takomillashtirish, shu jumladan tuzilmaviy bo'linmalarning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar o'z vaqtida va sifatli ijro etilishi yuzasidan mas'uliyatini oshirish tizimini tashkil etadi;

xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ishtirot etadi, xalqaro veterinariya tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi.

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**8-modda. Veterinariya tadbirlarini o'tkazishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning ishtirok etishi**

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

veterinariya sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda veterinariya sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

tegishli hudud aholisini epizootiya va nobop punkt to'g'risida xabardor etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar veterinar osoyishtalikni ta'minlashda ishtirok etuvchi davlat organlariga va boshqa organlarga ko'maklashishi hamda zarur yordam ko'rsatishi mumkin.

### **3-BOB. VETERINARIYA TIZIMI VA UNI BOSHQARISH**

#### **9-modda. Veterinariya xizmati tizimi**

Veterinariya xizmati tizimi davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlaridan iboratdir.

#### **10-modda. Davlat veterinariya xizmatini boshqarish**

Davlat veterinariya xizmati Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi, Qoraqlapog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish boshqarmalari, Davlat chegarasi va transportdag'i davlat veterinariya nazorati boshqarmasi, tumanlar (shaharlar) veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish bo'limlari, laboratoriylar, Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarining sifati va muomalasini nazorat qilish davlat ilmiy markazi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Veterinariya ilmiyat-tadqiqot instituti, shuningdek veterinariya uchastkalari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriylaridan, chegara va transport veterinariya punktlaridan (uchastkalaridan) hamda boshqa muassasalardan iboratdir.

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasiga rais rahbarlik qiladi. Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining mansabdor shaxslari quyidagi tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi:

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi raisining o'rribosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi raisi O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish boshqarmalarining boshliqlari viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

tumanlar (shaharlar) veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish bo'limlari boshliqlari tuman (shahar) hokimlarining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish boshqarmalarining boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi;

Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining, Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarining sifati va muomalasini nazorat qilish davlat ilmiy markazining, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining, Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasining, shuningdek chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) rahbarlari Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Davlat veterinariya xizmatining boshqa muassasalari rahbarlarini tayinlash va lavozimidan ozod qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish boshqarmalari Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasiga, shuningdek tegishinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hisobot beradi.

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **11-modda. Davlat veterinariya xizmatining vazifalari**

Davlat veterinariya xizmati:

- a) epizootik monitoringni amalga oshiradi;
- b) hayvonlar kasalliklarining paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi sabablarini tahlil qiladi, ushuu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;
- v) quyidagi yo'naliishlar bo'yicha davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar olib kirilishidan muhofaza qilish, shuningdek hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalarni tayyorlash, olib o'tish (tashish), eksport va import qilish;

hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarish;

- g) hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va ularni tugatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- d) sog'liqi saqlash organlari va boshqa organlar bilan birgalikda hayvonlar va odam uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar o'choqlarini tugatadi, shuningdek o'zaro axborot almashishni amalga oshiradi;

e) barcha chorvachilik ob'ektlarining, qushxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyonini qayta ishlovchi korxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyonini realizatsiya qiladigan va saqlaydigan savdo shoxobchalarining, omborlarning veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilishning, shuningdek er qazish ishlarining veterinariya ekspertizasini amalga oshiradi;

j) hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish, ozuqalarning, shuningdek chorvachilik ob'ektlarida ichimlik suvining sifatini baholash maqsadida laboratoriya tekshiruvlari hamda boshqa tekshiruvlar o'tkazadi;

z) yuridik va jismoniy shaxslardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalishining oldini olishni hamda ularning tugatilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qiladi;

i) hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan hayvonlarning kasalligi aniqlangan taqdirda, hayvonlarni so'yishga yoki yo'q qilib tashlashga, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyonini zararsizlantirishga (yuqumsizlantirishga), qayta ishlashga yoki utilizatsiya qilishga taalluqli, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan talablarni belgilaydi;

k) davlat va idoraviy veterinariya xizmatlari veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat qiladi hamda muvofiqlashtirib boradi, shuningdek belgilangan tartibda xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan litsenziya talablari va shartlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

l) veterinariya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

## **12-modda. Davlat veterinariya inspektorlari**

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining raisi – O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinosbosarlari - O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinosbosarlari (raisning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinosbosari bundan mustasno), Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish davlat qo'miasi Davlat veterinariya nazorati boshqarmasining veterinar mutaxassislari – o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i – davlat chegarasi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rribosarlari – davlat chegarasi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektorining o'rribosarlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish boshqarmalarining boshliqlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektori, ularning o'rribosarlari — tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rribosarlari hisoblanadi.

Tumanlar (shaharlar) veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish bo'limlarining boshliqlari tegishli tumanlarning (shaharlarning) bosh davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

Veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari tegishli uchastkalardagi va bozorlardagi davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

Chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari hamda veterinar vrachlari tegishli chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

### **13-modda. Davlat veterinariya inspektori larining vakolatlari**

Bosh davlat veterinariya inspektori, ularning o'rribosarlari va davlat veterinariya inspektori o'z vakolatlari doirasida:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya tadbirdi va epizootiyaga qarshi tadbirdi o'tkazish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan hollarda, ushbu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni yo'q qilib tashlash, qayta ishslash yoki ushbu mahsulot va xom ashyodan o'zgacha tarzda foydalanish haqida yuridik

va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi obyektlarga qonunchilikda belgilangan tartibda kiradi va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

temir yo'l vagonlarining, kemalarning, samolyotlarning va boshqa transport vositalarining holati veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda ulardan foydalanishni taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik ob'ektlaridan, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlovchi hamda saqllovchi korxonalardan foydalanishni taqiqlaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik fermalarida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlovchi hamda saqllovchi korxonalarda yangi qurilgan, tiklangan va rekonstruksiya qilingan ob'ektlarni ishga tushirishni to'xtatib turadi;

hayvonlarning egalari tomonidan, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlash, saqlash hamda ularning savdosи bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

chevaraoldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli organlar va tashkilotlarni xabardor qiladi, tegishli veterinariya tadbirlarini amalga oshiradi hamda zarur tavsiyalar beradi;

veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilikda va veterinariyada foydalanilishini nazorat qiladi, ularning hayvonlar sog'lig'iga va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo sifatiga ta'sirini baholaydi;

hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari aniqlangan taqdirda tegishli hududlarni nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish to'g'risida, shuningdek hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin cheklovchi

tadbirlarni (karantinni) bekor qilish haqida tegishli davlat organlariga taqdimnoma kiritadi;

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun mansabdar shaxslarga va boshqa shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini ko'radi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinnbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

#### **14-modda. Idoraviy veterinariya xizmati**

Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya nazorati va veterinariya xizmati talab qilinadigan vazirliliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tasarrufidagi xizmatdir.

Idoraviy veterinariya xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Idoraviy veterinariya xizmati faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **15-modda. Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquq va majburiyatları**

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

idoraviy veterinariya nazorati ob'ektlariga moneliksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlardan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan choratadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilish;

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdar shaxslarni hamda boshqa xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish haqida idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlar rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari: xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;

idoraviy veterinariya nazoratini hamda kelib chiqishi hayvonotga va o'simlikka mansub mahsulotning, xom ashyoning veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilishini amalga oshirishi;

hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

belgilangan tartibda veterinariyaga oid statistika hisobotini yuritish uchun davlat veterinariya xizmatiga axborot taqdim etishi shart.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari qonun hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **16-modda. Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari**

Faoliyati chorvachilikni tashkil etish va yuritish, hayvonlarni saqlash, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarни, ozuqabop qo'shimchalarni hamda hayvonlarni davolash uchun mo'ljallangan veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari:

korxonaning, muassasaning, tashkilotning rahbaridan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilishi;

xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;

hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga

zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **17-modda. Xususiy veterinariya faoliyati**

Yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar – tadbirkorlik sub'ektlari Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan litsenziyaga ega bo'lishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarning kasalligini aniqlab tashxis qo'yish va ularni davolash bilan shug'ullanish, bundan hayvonlarning cheklovchi tadbirlar (karantin) yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa cheklovlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollari mustasno;

hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazish, shuningdek hayvonlarning egalariga maslahat berish;

veterinariya dori va texnika vositalarini, ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

## **4-BOB. HAYVONLAR, KELIB CHIQISHI HAYVONOTGA MANSUB MAHSULOT HAMDA XOM ASHYO EGALARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **18-modda. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining huquqlari**

Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari:

veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida tegishli veterinariya xizmatlari, shuningdek xususiy veterinariya faoliyatini amalgalashiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomalar tuzish;

hayvonlarning kasallikka chalinishi holati, epizootik vaziyat to'g'risida, shuningdek hayvonlarda, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoda o'tkazilgan maxsus tekshirishlar natijalari haqida veterinariya xizmatidan axborot olish;

hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarini, veterinariya dori va texnika vositalarini veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq olish hamda realizatsiya qilish, shu jumladan xorijda olish va realizatsiya qilish;

davlat organlari va boshqa organlarning qonunga xilof qarorlari, ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari qonun hujjatlariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **19-modda. Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining majburiyatları**

Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari:

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalarini bajarishi;

o'zlariga tegishli hayvonlar kasalliklarining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini o'z mablag'lari hisobidan amalgalashirish, bundan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tadbirlar mustasno;

kasal hayvonni davolatishi, zarur bo'lgan hollarda, tegishli davlat veterinariya inspektorining ko'rsatmasiga ko'ra uning so'yilishini yoki yo'q qilib tashlanishini belgilangan tartibda ta'minlashi;

hayvonlarning to'satdan nobud bo'lganligi yoki g'ayriodatiy xattiharakati faktlari to'g'risida mazkur hududga xizmat ko'rsatuvchi davlat veterinariya xizmatini zudlik bilan xabardor qilishi;

hayvonlarni yuqumli kasalliklardan muhofaza etish bo'yicha tegishli karantin tadbirdari va boshqa veterinariya tadbirdari o'tkazilishini, shuningdek to'liq hajmda davolash-profilaktika ishlovleri o'tkazilishini ta'minlashi;

chorvachilik binolarini hamda hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni saqlash uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlashi;

chorvachilik binolarida va boshqa ob'ektlarda dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiyani o'z vaqtida o'tkazishi;

hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etgan holda realizatsiya qilishni amalga oshirishi;

Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmagan veterinariya dori vositalarini va ozuqabop qo'shimchalarni chorvachilikda qo'llamasligi;

hayvonlarni so'yishga doir veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etishi shart.

Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining zimmasida qonun hujjalriga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

## **5-BOB. VETERINAR OSOYISHTALIKNI VA DAVLAT VETERINARIYA NAZORATINI TA'MINLASH**

### **20-modda. Profilaktika, tashxis qo'yish va davolash tadbirdari**

Profilaktika tadbirdari hayvonlarning yuqumli kasalliklari paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgandir.

Tashxis qo'yish tadbirdari hayvonlar kasalliklarini qo'zg'atuvchilarning manbalarini, ularning hayvonlarga va odamga o'tishi omillarini aniqlash, shuningdek profilaktika hamda davolash tadbirdari samaradorligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Davolash tadbirlari hayvonlarning hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga, davolash-profilaktika ta'siriga ega bo'lgan veterinariya dori vositalari hamda ozuqabop qo'shimchalar qo'llanilishini nazarda tutadigan muolajalardan foydalangan holda hayvonlarning mahsulorligini saqlash va oshirishga qaratilgandir.

### **21-modda. Laboratoriya tekshiruvlari**

Laboratoriya tekshiruvlari:

veterinariya va veterinariya-sanitariya ekspertizasi xulosalarini tayyorlash maqsadida;

davlat veterinariya nazoratini amalga oshirishda;

hayvonning sog'lig'i holatini aniqlash, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar va biologik chiqindilarning veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda normalarida belgilangan talablarga muvofiqligini baholash maqsadida;

ilmiy-tadqiqot maqsadlarida o'tkaziladi.

Veterinariya sohasidagi laboratoriya tekshiruvlari belgilangan tartibda davlat veterinariya laboratoriyalari va boshqa veterinariya laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladi.

Veterinariya laboratoriya-tashxis qo'yish ishlari yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan litsenziya asosida amalga oshiriladi.

### **22-modda. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish va ularning muomalada bo'lishi chog'idagi veterinariya talablari**

Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga mos keladigan ishlab chiqarish ob'ektlarida amalga oshirilishi kerak.

Bozorlarda, savdo tashkilotlarida va boshqa savdo ob'ektlarida kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish, saqlash hamda realizatsiya qilish veterinariya-sanitariya ekspertizasi xulosasi asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalar veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari hamda normalariga muvofiq bo'lishi kerak.

Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ularning veterinariya ekspertizasi va sinovi natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish hamda ularni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish faqat ular Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish qo'mitasi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

**23-modda. Biologik chiqindilarning muomalada bo'lishi va yo'q qilib tashlanishi chog'idagi veterinariya talablari**

Biologik chiqindilar faqat ularning veterinariya jihatidan xavfsizligini tasdiqlovchi veterinariya-sanitariya ekspertizasi natijalariga ko'ra muomalaga qo'yiladi yoki yo'q qilib tashlanadi, bundan chorvachilik chiqindilari mustasno.

**24-modda. O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari olib kirilishidan muhofaza qilish**

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali olib o'tilayotgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar davlat veterinariya nazoratidan o'tkazilishi shart.

Epizootik jihatdan osoyishta bo'lgan boshqa davlatlardan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishiga va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzitiga veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rivoja etilgan holda yo'l qo'yiladi.

Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasida joylashgan chegara veterinariya punktlari (uchastkalari) orqali olib o'tiladi.

Boshqa davlatlar hududida hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari, hayvonlarning kelib chiqish sabablari noma'lum bo'lgan yalpi kasalliklari va hayvonlarning ilgari qayd etilmagan yuqumli kasalliklari paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib o'tishga taqiq, cheklov joriy etish hamda ularni olib o'tishni tiklash to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori tomonidan qabul qilinadi.

Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib kirishdan oldin yuridik va jismoniy shaxslar eksport va tranzit qiluvchi mamlakatlardagi epizootik vaziyat to'g'risida davlat veterinariya xizmatidan bepul axborot olish huquqiga ega.

## **25-modda. Davlat veterinariya nazorati ob'ektlari**

Quyidagilar davlat veterinariya nazorati ob'ektlari jumlasiga kiradi:

hayvonlar, ularning jinsiy va somatik hujayralari;

hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar;

kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari, veterinariya dori va texnika vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalar, patologik material, biologik chiqindilar, shuningdek suv, havo va tuproq namunalari;

hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilarni yuqtirish omillari bo'lishi mumkin bo'lgan transport vositalari, idishlar, joylash-o'rash materiallari;

yuridik va jismoniy shaxslarning veterinariya sohasidagi faoliyati;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni etishtiradigan, tayyorlaydigan, ishlab chiqaradigan, saqlaydigan, qayta ishlaydigan, tashiydigan, realizatsiya qiladigan yoki ulardan foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslarning hududlari hamda ishlab chiqarish binolari;

hayvonlar haydab o'tiladigan yo'llar, yo'nalishlar, biotermik o'ralar, hayvonot qabristonlari, hayvonlar boqiladigan yaylovlarning va sug'oriladigan joylarning hududlari;

veterinariya hisobi va hisoboti bo'yicha hujjatlar;

veterinariya dalolatnomalari, litsenziyalari, ruxsatnomalari, ma'lumotnomalari, guvohnomalari va sertifikatlari;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, tayyorlash (so'yish), saqlash va qayta ishlashga doir normativ-teknik hujjatlar.

## **26-modda. Epizootik monitoring**

Epizootik monitoring hayvonlar yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilarni aniqlash bo'yicha axborotni tizimli ravishda yig'ish va ishlovdan o'tkazishdir.

Epizootik monitoring davlat veterinariya xizmati tomonidan quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

epizootik vaziyatni prognoz qilish, hayvonlarning yuqumli kasalliklari va ushbu kasalliklarni qo'zg'atuvchilar tarqalishini cheklash bo'yicha tadbirlar majmuuni ishlab chiqish;

cheklovchi tadbirlarni (karantinni) belgilash yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish;

faoliyati hayvonlarni saqlash, so'yish, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan korxonalardagi, muassasalardagi hamda tashkilotlardagi epizootik vaziyatni xo'jalik faoliyati xavfsiz amalga oshirilishi uchun aniqlash;

xalqaro savdo-sotiq va davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni tashish uchun mamlakatdagi epizootik vaziyatni aniqlash.

**27-modda. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni olib qo'yish, yo'q qilib tashlash, zararsizlantirish (yuqumsizlantirish) va qayta ishlash**

Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo ularning xavflilik darajasiga qarab veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga ko'ra majburiy ravishda olib qo'yilishi hamda yo'q qilib tashlanishi yoxud olib qo'yilmagan holda majburiy ravishda zararsizlantirilishi (yuqumsizlantirilishi) va qayta ishlanishi shart.

Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo olib qo'yiladigan hamda yo'q qilib tashlanadigan Hayvonlarning kasalliklari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan va bunda hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo, veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalar olib qo'yilmagan holda zararsizlantiriladigan (yuqumsizlantiriladigan) hamda qayta ishlanadigan Hayvonlar kasalliklarining ro'yxati Veterinariya va chorvachilikni rovojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

**28-modda. Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan chog'dagi cheklovchi tadbirlar (karantin)**

Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning, ovullarning muayyan hududlarini nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlар va Toshkent shahar, tumanlar va

shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalgalashiriladi.

Belgilangan muddatlar o‘tganidan va hayvonlarning yuqumli kasalliklari o‘choqlari tugatilganidan keyin, shuningdek zarur veterinariya tadbirlari o‘tkazilganidan so‘ng Qoraqalpog‘iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning, ovullarning muayyan hududlaridagi cheklovchi tadbirlar (karantin) tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko‘ra cheklovchi tadbirlarni (karantinni) belgilagan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

## **6-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

### **29-modda. Davlat veterinariya xizmatining ta’minoti va moliyalashtirilishi**

Davlat veterinariya xizmati O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ta’minlanadi.

### **30-modda. Davlat veterinariya nazoratini amalgalashirish bo‘yicha faoliyatga aralashishga yo‘l qo‘ylmasligi**

Davlat veterinariya nazorati organlarining faoliyatiga aralashish, davlat veterinariya nazoratini amalgalashiruvchi mansabdor shaxslarning qonuniy faoliyatiga to‘sinqinlik qilish maqsadida ularga har qanday shaklda ta’sir o‘tkazish taqiqlanadi.

### **31-modda. Nizolarni hal etish**

Veterinariya sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

### **32-modda. Veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

## **Veterinariya to‘g‘risidagi qonun talablari buzilganda qoidabuzarlik va jazo turlari**

Veterinariya qonunchiligini buzgan har bir shaxs tegishli qonunchilik hujjatlari bo‘yicha jazolanadilar.

Qonunchlik buzilgan holda quyidagi jazo turlari mavjud:

- ma’muriy jazo (ogohlantirish, hayfsan, lavozimini pastlatish, ishdan bo’shatish va boshqalar);
- moddiy jazo (pul jarimalarini undirilishi);
- jinoiy javobgarlik (og‘ir asorat beruvchi qonunbuzarliklar sodir etilganda, huquq-tartibot organlari tomonidan belgilanadi).

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi bo‘yicha qonunbuzarlik holatlari aniqlanganda quyidagi moddalarda nazarda tutilgan holatlar qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

### ***109-modda. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzish***

Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini buzganlik, epizootiyalarga qarshi kurashish choralarini ko‘rmaganlik

fuarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklari o‘choqlari aniqlanganda cheklovchi tadbirlar (karantin) qoidalarini buzish, shuningdek hayvonlarning bir vaqtning o‘zida ommaviy kasallanishi yoki to‘satdan nobud bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni davlat veterinariya nazorati organlaridan yashirish, ularga xabar bermaslik,

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Veterinariya dori vositalari va ozuqbop qo‘shimchalarning xavfsizligi normalarini hamda ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish yoki o‘tkazish qoidalarini buzish,

huquqbazarlik quroli va ashyolarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi

### ***110-modda. It va mushuk boqish qoidalalarini buzish***

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida it va mushuk boqishning qoidalarini buzish, xuddi shuningdek mansabdar shaxslar tomonidan

egasiz hayvonlarni tuttirish choralarini ko'rmaganlik – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir qismdan ikkidan bir qismigacha, mansabdar shaxslarga esa - ikkidan bir qismdan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik fuqarolarning sog'ligi yoki molmulkiga zarar yetishga olib kelsa - fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa - bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### *111-modda. Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish*

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni ularni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda qyinoqqa solish yoki ularga azob berish, bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbazarlik voyaga yetmagan shaxs hozirligida sodir etilgan bo'lsa yoki hayvonlarning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

### *169-modda. Tarkibida kimyoviy moddalarning qoldig'i yo'l qo'yiladigan darajadan ortiq bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish*

Tarkibida odamlar va hayvonlar salomatligi uchun zararli bo'lgan pestitsidlar, mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy moddalarning qoldiq miqdori yo'l qo'yilishi mumkin deb belgilangan darajadan ortiq ekanligini bila turib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, xuddi shuningdek zaharli yovvoyi o'simliklarni, ularning hosilini, mevalarini, urug'larini, barglari va ildizlarini bozorlarda sotish mahsulotlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,

mahsulotlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### ***259-modda. Davlat veterinariya nazorati organlari***

Davlat veterinariya xizmatiga ushbu Kodeksning 109-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Quyidagilar davlat veterinariya xizmati nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima solish tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqli:

O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektori va uning o'rnbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rnbosarlari, davlat chegarasidagi va transportdagi bosh davlat veterinariya inspektori va uning o'rnbosarlari - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha miqdorda;

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining davlat veterinariya inspektorlari, tumanlar va shaharlarning bosh davlat veterinariya inspektorlari, chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) davlat veterinariya inspektorlari hamda veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining davlat veterinariya inspektorlari - bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha miqdorda jarima solishga.

#### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
2. Veterinariya to'g'risidagi qonun nechta bob va moddadan iborat?
3. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari nimalardan iborat?
4. Veterinariya to'g'risidagi qonun osti hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi.
5. Veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda belgilanadigan jazo turlarini aytib bering?
6. Veterinariya qonunchiligi buzilganda tegishli qaror va bayonnomalarni rasmiylashtirish tartibi?

7. Veterinariya-sanitariya qoida va normalari buzilganda qaysi tartibda ma'muriy jazo qo'llaniladi?
8. Veterinariya-sanitariya qoida va normalari buzilganda qaysi tartibda moddiy jazo qo'llaniladi?
9. Veterinariya-sanitariya qoida va normalari buzilganda qaysi tartibda jinoiy javobgarlikka tortiladi?
10. Veterinariya-sanitariya qoida va normalari buzilganda jarima solish tartibi?
11. Hayvonlarni karantinga qo'yish qoidalarini va boshqa veterinariya-sanitariya qoidalarini buzilishida qo'llaniladigan jarimalarga izoh bering?
12. Hududlarda aholi punktlarida it va mushuk boqish qoidalari buzilishida fuqarolarga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdori qancha?

## VETERINARIYA XIZMATINING TASHKILIY TUZILISHI VA BOSHQARUVI

### **Veterinariya xizmatining mohiyati va ahamiyati**

Hozirgi davrda veterinariya xizmati – bu davlat tashkilotlari, qishloq xo‘jalik korxonalari va jamoat muassasalarining hamkorlikdagi tadbiriylar choralar bo‘lib, chorva mollari, parrandalar va boshqa turdagilari hayvonlarni kasallanishdan saqlash, oldini olish, davolash, hayvonlarning mahsuldarligini va ulardan olinadigan mahsulot sifatini oshirish, shu jumladan, insoniyatni hayvon va odamlar uchun umumiyligi bo‘lgan kasalliklardan saqlash kabi mas’uliyatli, ayni paytda sharafli vazifalarni o‘z zimmasiga oladi.

**Veterinariya xizmati** – davlatimiz qishloq xo‘jalik majmuining asosiy sohalaridan biri bo‘lib xalq xo‘jaligining quyidagi tarmoqlari bilan ham uzviy bog‘langan:

1) Chorvachilik (shu jumladan, qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, baliqchilik, mo‘ynachilik, asalarichilik va hokazo);

2) Chorvachilik mahsuloti va xom ashyolarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari (go‘sht va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari, mahsulot muzlatkichlari, teri va junni qayta ishlash zavodlari, util zavodlar va hokazo);

3) Transport (temir yo‘l, avtomobil, suv va havo) – chorva mollari va ularning mahsulotlarini tashiydigan hududlarda;

4) Savdo – chorva mollari va ularning mahsulotlarini sotish tarmoqlari, bundan tashqari veterinariya tadbiriylar choralar – oziq-ovqat, bozorlar va boshqa sanoat tarmoqlarida, chorva mollari va ularning mahsulotlarini import va eksport jarayonlarida.

### **Veterinariya xizmatining xususiyati va vazifalari**

Respublikamizning veterinariya xizmati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Xalq farovonligi va davlat ravnaqiga xizmat qiladi.
2. Mamlakatimizda Davlat vetrinariyasi etakchilik qiladi.
3. Veterinariya xizmati yagona va yaxdil (hamjihat).
4. Veterinariya xizmatini bosh yo‘nalishi - profilaktika.
5. Veterinariya ta’limi, fani va amaliyoti mushtarakdir.
6. Veterinariya tadbirlari qat’iy rejali amalga oshiriladi.

7. Veterinariya ishida barcha davlat organlari, xo'jalik xodimlari va nodavlat tashkilotlari keng faoliyat ko'rsatadi.

Veterinariya xizmatining vazifalari:

1. Chorvachilikda yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish va yo'qotish.
2. Chorva mollarining bosh sonini va mahsulotini ko'paytirish.
3. Veterinariya-sanitariya jihatdan sog'lom va sifatli mahsulot hamda xom ashyo ishlab chiqarishni ta'minlash.
4. Aholini antropozoonozlardan muhofaza qilish.
5. Respublikamiz hududiga xorijdan yuqumli kasalliklar kirib kelishini bartarf etish.

### **Veterinariya mutaxassislarining faoliyat obyektlari**

Veterinariya mutaxassislarining faoliyati qishloq xo'jalik hayvonlari bilan birga mo'ynali, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, asalari va baliqlar sog'lomligini saqlash va mustahkamlash, diagnostika, davolash, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish orqali yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, xo'jalik va tashkiliy boshqarish ishlari hamda ilmiy tadqiqot o'tkazish, sog'lom va sifatli mahsulot va xom ashyo ishlab chiqarish, odam va hayvonlar uchun umumiyligi bo'lgan kasalliklardan aholini muhofaza qilish, O'zbekiston hududida xorijiy davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishini oldini olish hamda atrof muhitning tozaligini saqlashga yo'naltiriladi.

Ular uchun kasbiy faoliyat ob'ektlari qishloq xo'jalik, uy va mo'ynali hamda yovvoyi hayvonlar, parrandalar, asalarilar, baliqlar kabi sog'lom va kasal holatdagi tirik organizmlar majmuidan iboratdir.

Veterinariya mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachlikni rivojlantirish qo'mitasi va uning tasarrufidagi tashkilotlarda hamda idoraviy, ishlab chiqarishdagi va xususiy veterinariya xizmatlarida boshqaruvin sohasida va tegishli lavozimlarda, ichki ishlar va mudofaa vazirligi, bojxona qo'mitasi idoralarida belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ilmiy xodim, agrovetbiznes, farmsanoat va kimyosanoati korxonalarida, ekologiya va qo'riqxonalar sohasida, hayvonot bog'lari va zoosirklarda, uyushma va aksiyadorlik jamiyatlari hamda davlat oraganlarida ishlaydilar.

## **Veterinariya tizimi va uni boshqarish**

Veterinariya xizmati tizimi davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlaridan iboratdir.

### **Davlat veterinariya xizmatini boshqarish**

Davlat veterinariya xizmati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, davlat chegarasi va transportdag'i davlat veterinariya nazorati boshqarmasi, tumanlar va shaharlar veterinariya bo'limlari, Respublika, viloyat, tuman (shahar) hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari, Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarining sifati va muqomilasini nazaorat qilish ilmiy markazi, shuningdek veterinariya uchastkalari, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari, chegara va transport veterinariya punktlaridan (uchastkalaridan) hamda boshqa muassasalardan iboratdir.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasiga rais rahbarlik qiladi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining mansabdar shaxslari quyidagi tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisining o'rribosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining raisi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalarining boshliqlari viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga binoan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Tumanlar (shaharlar) veterinariya bo‘limlari boshliqlari tuman (shahar) hokimlarining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog‘iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya boshqarmalarining boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi hamda lavozimdan ozod etiladi.

Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo‘shimchalarning sifati va muomilasini nazaorat qilish ilmiy markazi, Davlat chegarasidagi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasining, shuningdek chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) rahbarlari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Davlat veterinariya xizmatning boshqa muassasalari rahbarlarini tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya boshqarmalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga, shuningdek tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hisobot beradi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining tashkiliy tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **Davlat veterinariya xizmatining vazifalari**

Davlat veterinariya xizmati:

epizootik monitoringni amalga oshiradi;

hayvonlar kasalliklarining paydo bo‘lishi va ularning nobud bo‘lishi sabablarini tahlil qiladi, ushbu kasalliklar profilaktikasi hamda ularni davolash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha davlat veterinariya nazoratini amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo‘zg‘atuvchilar olib kirilishidan muhofaza qilish, shuningdek hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va

xom ashyo, veterinariya dori vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalarni tayyorlash, olib o'tish (tashish), eksport va import qilish;

hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq ishlab chiqarish;

hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va ularni tugatishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

sog'liqni saqlash organlari va boshqa organlar bilan birgalikda hayvonlar va odam uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar o'choqlarini tugatadi, shuningdek o'zaro axborot almashishni amalga oshiradi;

barcha chorvachilik ob'ektlarining, qushxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni qayta ishlovchi korxonalarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni realizatsiya qiladigan va saqlaydigan savdo shoxobchalarining, omborlarning veterinariya-sanitariya holatini nazorat qiladi, bu ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilishning, shuningdek er qazish ishlarining veterinariya ekspertizasini amalga oshiradi;

hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish, ozuqalarning, shuningdek chorvachilik ob'ektlarida ichimlik suvining sifatini baholash maqsadida laboratoriya tekshiruvlari hamda boshqa tekshiruvlar o'tkazadi;

yuridik va jismoniy shaxslardan hayvonlarning yuqumli kasalliklari tarqalishining oldini olishni hamda ularning tugatilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qiladi;

hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan hayvonlarning kasalligi aniqlangan taqdirda, hayvonlarni so'yishga yoki yo'q qilib tashlashga, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni zararszlantirishga (yuqumsizlantirishga), qayta ishlashga yoki utilizatsiya qilishga taalluqli, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan talablarni belgilaydi;

davlat va idoraviy veterinariya xizmatlari veterinariya mutaxassislarining faoliyatini nazorat qiladi hamda muvofiqlashtirib boradi, shuningdek belgilangan tartibda xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan litsenziya talablari va shartlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

veterinariya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

### **Davlat veterinariya inspektorlari**

Veterinariya va chovachilikni rivojlantirish qo'mitasining raisi – O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinosarlari – O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinosarlari (raisning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinosari bundan mustasno), Veterinariya va chovachilikni rivojlantirish qo'mitasi Davlat veterinariya nazorati boshqarmasining veterinar mutaxassislari – o'z vakolatlari doirasida davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

Davlat chegarasi va transportdagи davlat veterinariya nazorati boshqarmasi boshlig'i – davlat chegarasidagi va transportdagи bosh davlat veterinariya inspektori, uning o'rinosarlari – davlat chegarasi va transportdagи bosh davlat veterinariya inspektorining o'rinosarlari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chovachilikni rivojlantirish qo'mitasining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar Veterinariya va chovachilikni rivojlantirish boshqarmalarining boshliqlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinosarlari – tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat veterinariya inspektorlarining o'rinosarlari hisoblanadi.

Tumanlar (shaharlar) veterinariya va chovachilikni rivojlantirish bo'limlarining boshliqlari tegishincha tumanlarning (shaharlarning) bosh davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

Veterinariya uchastkalarining va bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining mudirlari tegishli uchastkalardagi va bozorlardagi davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

Chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) boshliqlari hamda veterinar vrachlari tegishincha chegara va transport veterinariya punktlarining (uchastkalarining) davlat veterinariya inspektorlari hisoblanadi.

## **Davlat veterinariya inspektorlarining vakolatlari**

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rinbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari o'z vakolatlari doirasida:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga zarur veterinariya, veterinariya-sanitariya tadbirlari va epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

hayvonlarning va odamning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan kasalliklarga chalingan hayvonlar aniqlangan hollarda, ushbu hayvonlarni so'yish yoki yo'q qilib tashlash to'g'risida, shuningdek iste'molga yaroqsiz deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni yo'q qilib tashlash, qayta ishslash yoki ushbu mahsulot va xom ashyodan o'zgacha tarzda foydalanish haqida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi obyektlarga qonunchilikda belgilangan tartibda kiradi va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

temir yo'l vagonlarining, kemalarning, samolyotlarning va boshqa transport vositalarining holati veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda ulardan foydalanishni taqiqaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik ob'ektlaridan, go'sht va sut sanoati korxonalaridan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalardan foydalanishni taqiqaydi;

veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarining buzilishlari aniqlangan taqdirda chorvachilik fermalarida, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishlovchi hamda saqlovchi korxonalarda yangi qurilgan, tiklangan va rekonstruksiya qilingan ob'ektlarni ishga tushirishni to'xtatib turadi;

hayvonlarning egalari tomonidan, shuningdek kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyni qayta ishslash, saqlash hamda ularning savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

chevaraoldi tumanlarda, qo'shni davlatlarda yuzaga kelgan epizootik vaziyat to'g'risida tegishli organlar va tashkilotlarni xabardor qiladi, tegishli veterinariya tadbirlarini amalga oshiradi, zarur tavsiyalar beradi;

veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar ishlab chiqarilishini hamda ulardan chorvachilikda va veterinariyada foydalanimishini nazorat qiladi, ularning hayvonlar sog'lig'iga va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo sifatiga ta'sirini baholaydi;

hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari aniqlangan taqdirda tegishli hududlarni nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish to'g'risida, shuningdek hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin cheklovchi tadbirlarni (karantinni) bekor qilish haqida tegishli davlat organlariga taqdimnomalar kiritadi;

veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun mansabdar shaxslarga va boshqa shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini ko'radi.

Bosh davlat veterinariya inspektorlari, ularning o'rindbosarlari va davlat veterinariya inspektorlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **Idoraviy veterinariya xizmati**

Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya nazorati va veterinariya xizmati talab qilinadigan vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tasarrufidagi xizmatdir.

Idoraviy veterinariya xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Idoraviy veterinariya xizmati faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquq va majburiyatları**

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

idoraviy veterinariya nazorati ob'ektlariga moneliksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlardan veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta‘minlaydigan chora-tadbirlar o‘tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo‘lgan axborot taqdim etilishini talab qilish;

veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdon shaxslarni hamda boshqa xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish haqida idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlar rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

xizmat ko‘rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o‘tkazishi;

idoraviy veterinariya nazoratini hamda kelib chiqishi hayvonotga va o‘simlikka mansub mahsulotning, xom ashyoning veterinariya-sanitariya ekspertizasi o‘tkazilishini amalgalash oshirishi;

hayvonlar o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo‘lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasini kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rishi;

belgilangan tartibda veterinariyaga oid statistika hisobotini yuritish uchun davlat veterinariya xizmatiga axborot taqdim etishi shart.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

### **Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari**

Faoliyati chorvachilikni tashkil etish va yuritish, hayvonlarni saqlash, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqbop qo‘sishchalarini hamda hayvonlarni davolash uchun mo‘ljallangan veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari:

korxonaning, muassasaning, tashkilotning rahbaridan veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar

tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilishi;

xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;

hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Ishlab chiqarishdagи veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **Xususiy veterinariya faoliyati**

Yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar – tadbirkorlik sub'ektlari Veterinariya va chovchilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan litsenziyaga ega bo'lishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarning kasalligini aniqlab tashxis qo'yish va ularni davolash bilan shug'ullanish, bundan hayvonlarning chekllovchi tadbirlar (karantin) yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa cheklolvlar qo'llanadigan kasalliklarga chalinishi hollari mustasno;

hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazish, shuningdek hayvonlarning egalariga maslahat berish;

veterinariya dori va texnika vositalarini, ozuqbop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan

xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya xizmatining mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati?
2. Veterinariya xizmatining xususiyati va vazifalariga izoh bering?
3. Veterinariya mutaxassislarning faoliyat ob'ektlarini ayting?
4. Respublikamizda veterinariya xizmatining turlarini ayting?
5. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, boshqarmalari va bo'limlarining tashkiliy tuzilmasini ayting?
6. Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlarining tashkiliy tuzilmasi qaysi tashkilotlardan iborat?
7. Veterinariya tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish masalalari bo'yicha tushuncha bering?

## II-BOB. VETERINARIYADA HISOBGA OLİSH, HISOBOT VA İSH YURİTİSH

### VETERINARIYADA HISOBGA OLİSH HUJJATLARI

Veterinariyada hisobga olish – işh jarayonida veterinariya mutaxassislari tomonidan bajariladigan barcha turdagı ishlarni qayd qilinishiga yoki hujjat to‘ldirishiga aytildi. Bu veterinariya statistikasining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham maxsus-yagona, ya’ni barcha veterinariya mutaxassislari uchun bir xil bo‘lgan hisobga olish (qayd qilish) kitoblari mavjuddir. Bu hujjatlarni faqat veterinariya mutaxassislari to‘ldirib, uning to‘g‘ri to‘ldirilishiga hamda saqlanishiga javob beradilar. Bu hujjatlar kamida 3 yil arxivda saqlanishlari shart. Bu hujjatlarga asosan oylik, choraklik, yarim yillik va yillik veterinariya hisobotlari to‘ldiriladi. Bundan tashqari mazkur hujjatlarga asosan dori-darmonlarning va boshqa veterinariya tovarlarining qanday sarflanganligi aniqlanadi, hamda ular hisobdan chiqariladi. Bu hujjatlarga asosan yosh veterinariya mutaxassislari xo‘jalikda yoki tumanda qaysi yuqumli hamda yuqumsiz kasalliklarining tarqalganligini o‘rganadi. Epizootik holat to‘g‘risida ma’lumot oladi va kelajakdag‘i o‘z ishini rejalashtiradi.

Barcha veterinariya tadbirlarga dalolatnomalar to‘ldirib, chiqimlar, guvohlar ishtirokida imzolanadi va ushbu hujjatning 1 nusxasi veterinariya muassasasida, 1 nusxasi veterinariya vrachining o‘zida saqlanishi lozim. Barcha veterinariya tashkilot va muassasalarda amalga oshiriladigan davolash, emlash uchun dori va anjomlar sarfi tegishli birlamchi hujjatlarda qayd etiladi.

Hisob-kitob hujjatlarining ahamiyati: birlamchi ma’lumotlar to‘plami, dalolatnomaga asosida chiqim, hisobot tayyorlash, epizootik holatni tahlil qilish. Hisob-kitob hujjatlaridan eng asosiysi va ko‘p qo‘llaniladigani 1-veterinariya shaklidagi (1-vet) jurnaldir (kasal hayvonlarni qayd qilish jurnali).

2-veterinariya shakli (2-vet) epizootiyaga qarshi o‘tkazilgan tadbirlarni qayd qilish jurnali. Bu ikkala jurnal barcha xo‘jaliklarda, veterinariya punkti, veterinariya uchastkalarida, tuman veterinariya va corvachilikni rivojlantirish bo‘limlarida yuritiladi.

3-veterinariya jurnali (3-vet) tuman va shahar epizootik holatini qayd qilish jurnali.

**Veterinariya hisoboti.** Veterinariya hisoboti Veterinariya va corvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar asosida bajarilib, davlatimizdagi veterinariya - epizootik holatni

aks ettiradi. Barcha hisobotlar birlamchi hisobga olish (qayd qilish hujjatlari) asosida tuziladi. Veterinariyada hisobotlari tegishli shakllarda bo'lib, ular xo'jalik, tuman, shahar, viloyat veterinariya tashkilotlari rahbariyati tomonidan bajariladi hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasiga taqdim etiladi. Ular esa oylik, choraklik, yarim yillik va bir yillik bo'ladi. Har oyda berib turiladigan hisobot shakllariga - №1-vet., №1A- vet. hisobot shakllari va №2-vet. hisoboti - yuqumsiz kasalliklar haqida hisobot - yarim o'ta yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish uchun maxsus veterinariya hisob raqamlari mavjud bo'lib, barcha sarf xarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

Mudofaa va ichki ishlar vazirliklari veterinariya xizmati ham tegishli masalalar bo'yicha veterinariya hiobotlarini berishadi.

Hisobotlarni topshirish muddati: chorvachilik xo'jaligi, veterinariya uchastkasi oylik hisobotlarni tuman veterinariya va corvachilikni rivojlantirish bo'limiga yangi oyning 1 kunigacha topshirishlari shart. Veterinariya va corvachilikni rivojlantirish bo'limlari yangi oyning 3 kuniga qadar viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalariga hisobot topshiradilar. Viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi esa yangi oyning 6 kuniga qadar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasiga hisobot topshirishi lozim.

Hisobotlarni rasmiylashtirish belgilangan tartibda amalga oshirilib, undagi ma'lumotlar to'liq, aniq bo'lib, rahbariyat tomonidan tasdiqlanishi shart.

**Veterinariyada ish yuritish.** Respublikamizda veterinariyada ish yuritish davlat tili - o'zbek tilida amalga oshiriladi.

Ish yuritish deganda - veterinariya sohasida to'ldirilishi va bajarilishi kerak bo'lgan barcha hujjatlarni to'g'ri va aniq to'ldirib borish, veterinariya sohasidagi qarorlarni, buyruqlarni, ko'rsatmalarni joylardagi mutaxassislarga o'z vaqtida etkazish va uning bajarilishini ta'minlash tushuniladi. Ish yuritishda asosan quyidagi hujjatlardan foydalilanadi: qayd qilish jurnallari, bajarilgan tadbirlarga dalolatnomalar yozish, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni respublika ichida tashishda beriladigan 1-, 2-, va 3-shakl veterinar guvohnomalari va 4-shakl veterinariya ma'lumotnomasi, shuningdek sohaga oid bo'lgan farmonlar, qarorlar, buyruqlar, nizomlar, yo'riqnomalar, tavsiyalar, qo'llanmalar, ko'rsatmalar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarning bajarilishini ta'minlash kabilar.

Bu ishlarni xo'jaliklarda xo'jalikning bosh veterinariya vrachi tomonidan tayinlangan veterinariya mutaxassislari, tumanlarda esa tuman bosh vrachi tomonidan tayinlangan veterinariya mutaxassis (buyruq) bajaradi va javobgar hisoblanadi.

### **Veterinariya hisob-kitobi hujjatlari**

Veterinariya hisob-kitobi yagona sistemada Davlat tomonidan tashkil qilinib barcha veterinariya muassasa va tashkilotlari uchun majburiydir.

Boshlang'ich veterinariya hisob-kitobi o'z ichiga quyidagilarni hisobga olishni ko'zda tutadi:

1. Yuqumli va yuqumsiz kasalliliklar.

2. Hayvonlar (parrandalar) o'limi va chiqimi.

3. Diagnostik tekshirishlar.

4. Profilaktik va davolash tadbirlar.

5. Veterinariya-sanitariya tadbilar.

6. Biopreparatlar, dezinfeksiya vositalari, dorilari va boshqa veterinariya anjomlari hamda moddiy-boyliklarning kirim-chiqimi.

7. Chorvachilik mahsulotlari va xom ashyosining veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

8. Veterinariya laboratoriyalarda tekshirishlar.

9. Transportda hayvonlar, chorva mahsulotlari va xom ashyosini tashiganda, eksport-import qilganda veterinariya-sanitariya nazorati.

Veterinariya hisob-kitobi hujjatlari muassasa va xo'jalik yo'nalishiga qarab yuritiladi. Quyidagi ularni keltirib o'tamiz.

*1. Davolash veterinariya muassasalari – veterinariya uchastkalari, xo'jalik va fermalarda 3 ta jurnal yuritiladi.*

1-vet.- Kasal hayvonlarni qayd qilish jurnali.

2-vet.- Epizootiyalarga qarshi o'tkazilgan tadbirlarni qayd qilish jurnali.

3-vet.- Tuman, shahar epizootik holatiini qayd qilish jurnali.

*2. Parrandachilik xo'jaliklari va fabrikalarida 7 ta jurnal yuritiladi.*

4-vet.- Parrandalarni diagnostik tekshirishlar.

5-vet.- Parrandalarning o'ligini yorib tekshirish natijalari.

6-vet.- Parrandachilik xo'jaliklari epizootik ahvoli.

7-vet.- Parrandalarni profilaktik va majburiy emlashlar.

8-vet.- Parrandalarni davolash ishlari.

9-vet.- So'yish sexida parranda go'shtining veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

10-vet.- Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya hisobi.

3. *Baliqchilik xo'jaliklarida 1 ta jurnal yuritiladi.*

11-vet.- Baliqlarni tekshirish, suv havzalarida profilaktik va sog'lomlashdirish ishlari hisobi.

4. *Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlarida 11 ta jurnal yuritiladi.*

12-vet.- Bakteriologik tekshirishlar.

13-vet.- Virusologik tekshirishlar.

14-vet.- Qonni serologik tekshirishlar.

15-vet.- Qonni tekshirish.

16-vet.- Gistologik tekshirishlar.

17-vet.- Teri va mo'yna xom ashyosini kuydirgiga tekshirish.

18-vet.- Parazitar kasalliklarga laboratoriya tekshirishlar.

19-vet.- Em-xashak va boshqa materiallarni toksikologik va mikrobiologik tekshirishlar.

20-vet.- Ximiko-toksikologik tekshirishlar.

21-vet.- Bioximik va laboratoriya klinik tekshirishlar.

22-vet.- Baliqchilik suv havzalarini gidroximik, toksikologik tekshirishlar.

5. *Bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyada 4 ta jurnal yuritiladi.*

23-vet.- Go'sht, baliq, qisqichbaqa, tuxum veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

24-vet.- Sut va sut mahsulotlari veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

25-vet.- O'simlik ozuqa mahsulotlari veterinariya-sanitariya ekspertiza.

26-vet.- Asalning veterinariya-sanitariya ekspertizasi.

6. *Transport veterinariya-sanitariya nazorati punktlarida 3 ta jurnal yuritiladi.*

27-vet.- Transport veterinariya-sanitariya nazorati uchastkalarida mollarni ko'rikdan o'tkazish jurnali.

28-vet.- Transport veterinariya-sanitariya nazorati uchastkalarida chorva xom ashyosini tekshirish jurnali.

29-vet.- Vagonlarni dezinfekcion yuvish staniyalarida sanitariya ishlari jurnali.

*7. Chegara veterinariya-sanitariya nazorati punktlarida 2 ta jurnal yuritiladi.*

30-vet.- Eksport, import, tranzit chorva mahsulotlarini, emxashakni tekshirish jurnali.

31-vet.- Chegara veterinariya nazorati punktlarida eksport-importga mo'ljallangan hayvon mahsuloti va xom-ashyolarni hamda oziqalarni qayd etish jurnali.

*8. Go'sht kombinatlarida (qushxonalarda), qayta ishlash korxonalarida -5 ta jurnal yuritiladi.*

32-vet.- Kasallik aniqlangan va ajratilgan teri hamda mo'yna mahsulotlarini tekshirish va teri ombori yoki zavodida veterinar ishlash jurnali.

33-vet.- So'yiladigan mollarni ko'rikdan o'tkazish, go'sht va go'sht mahsulotlarini so'yish bo'limida hamda so'yish punktida veterinariya-sanitrariya ekspertiza jurnali.

34-vet.- Go'sht kombinatlari mol bazasida hayvonlarning ko'rigi jurnali.

35-vet.- Kolbasa kulinar, dudlangan mahsulotlar, yarim fabrikatlarni, go'sht-suyak bakterial tekshirishlar jurnali.

36-vet.- Konservalarni sterilizatsiya qilinganidan keyin bakteriologik tekshirish natijalari jurnali.

Yuqorida nomlari keltirilgan veterinariya jurnallari xo'jalikning, veterinariya muassasalarining ish yurituvidan kelib chiqqan holda tegishli tartibda mas'ul veterinariya mutaxassislari tomonidan yuritilib boriladi va yuridik hujjat hisoblanadi. Barcha shakldagi jurnallar muqovalanishi hamda sahifalari raqamlanishi zarur. Jurnalning birinchi muqovasida uning nomi (shakl №), xo'jalik yoki tashkilot, hamda yozuvning boshlanish va tamomlanish sanalari ko'rsatiladi. Veterinariyada foydalaniladigan jurnallar undagi so'nggi yozuvlar tugagach 3 yilgacha saqlanishi lozim (doimiy saqlanishi shart bo'lган tuman (shahar) epizootik holatini yozish jurnali bundan mustasno). Jurnallarning o'lchami 20x30 sm bo'lib, ulardagi varaqlar soni 100-200-tagacha bo'ladi.

Veterinariya amaliyotida barcha chorvachilik xo'jaliklarda va veterinariya uchastkalarida faoliyat yurituvchi veterinariya mutaxassislari tomonidan bajariladigan ishlarni qayd qilib borish uchun mo'ljallangan veterinariya jurnallarining shakllarining ayrimlari va ular bo'yicha tegishli ma'lumotlar quyida keltirilgan.

## Kasal hayvonlarni qayd qilish jurnalı

*toq bet*

Tartib raqam			Xo'jalik (ferma) manzili, hayvon egasining F.I.SH.	Hayvon turi, jinsi, laqabi, yoshi	Kasallangan vaqtı (kun, oy, yil)	Kasallik diagnozi	
Birinchi marta	Ikkinchi marta	Sana (kun, oy, yil)	4	5	6	dastlabki	yakuniy
1	2	3				7	8

*juft bet*

Kasallikning klinik belgilari, davolash va tavsiya ma'lumotlari	Kasallik oqibati (kun, oy, yil)	Davolovchi vrachning F.I.Sh. va imzosi
9	10	11

Ushbu shakldagi jurnalda kasal hayvonlar haqidagi quyidagi yozuvlar qayd etib boriladi:

- veterinariya muassasiga ambulator yoki statsionar davolash uchun keltirilgan hayvonlar to'g'risida;
- veterinariya mutaxassislarining bevosita xo'jaliklarga borib ko'rsatgan davolash yordamlari;
- xo'jalik mutaxassislarini tomonidan veterinariya muassasalarida, chovvachilik xo'jaliklarida, komplekslarda va bevosita shakllardagi davolash muolajalari bo'yicha ma'lumotlar bayon etiladi.

Jurnal shaklining 1-ustuniga birlamchi marotaba qabul qilinayotgan hayvonning tartib raqami yoziladi. 2-ustunga esa takroran qabul qilinayotgan hayvonning 1-ustundagi tartib raqam aks ettiriladi. Ushbu tartib raqami hayvonni keyingi qabul qilish paytida ham 2 ustunga tushirilaveradi. Maboda, ushbu hayvon keyinchalik boshqa diagnoz bilan qabul qilinsa unga yangi (boshqa) tartib raqami berilib, 1-ustunga aks ettiriladi. 4-ustunda hayvonni qabul qilingan sanasi yoziladi. 4-ustunda esa xo'jalik (ferma, bo'lim) nomi, manzili ko'rsatilib, agarda hayvon shaxsiy xo'jalikniki bo'lsa hayvon egasining familiyasi, ismi va sharifi qayd etiladi. 5- ustunga hayvonning turi, jinsi, laqabi, yoshi va individual raqami kiritiladi, 6-ustunga hayvonning kasalliangan vaqtı ko'rsatiladi. Hayvon ko'rikdan o'tkazilib, diagnoz aniqlangach 7-ustun to'ldiriladi. Agarda birinchi tekshiruvda diagnoz belgilash ilojsiz bo'lsa,

taxminiy qo'yilib, 8-ustunda esa to'liq tekshiruv o'tkazilib, yakuniy diagnostiks aks ettiriladi. 9-ustunda esa kasallikning klinik belgilari, tana harorati, yurak urishi va nafas olish tezligi, maxsus tekshiruvlar (qon, siydiq, tezak namunalari)ning natijalari hamda o'tkazilgan davolash tadbirlari yoki belgilangan muolajalar haqidagi yozuvlar qayd etiladi. Kasallik oqibati (sog'aydi, o'lidi, so'yildi, yo'qtildi) va hayvonni davolash muassasasidan jo'natish sanasi keltiriladi. 11-ustunda davolash ishlari haqida qo'shimcha dalillari yozilib bevosita davolovchi veterinariya vrachi (feldsher)ning ism-sharifi yozilib, imzosi qo'yiladi (davolash muassasalarining mutaxassislari uchun majburiydir).

Yuqori baholanuvchi nasldor mollarni va o'ta mahsuldor hayvonlarni statcionar sharoitida davolash jarayonlarida, ushbu jurnalga qo'shimcha ravishda ularning har biri uchun "Kasallik tarixi" to'ldirilib, unda kasallikning oqimi va davolash muolajalari haqida ma'lumotlar batafsil bayon qilinadi.

Kasallik tarixi xo'jalikda bosh yoki katta vetvrachlar, veterinariya uchastkalarida esa uchastka mudirlari tomonidan rasmiylashtiriladi.

---

davolash muassasasining nomi va manzili

**Kasallik tarixi №\_\_\_\_\_**  
(shakl №1A-vet)

Boshlangan \_\_\_\_\_ Tamomlangan \_\_\_\_\_

1. Hayvon turi \_\_\_\_\_ jinsi \_\_\_\_\_, yoshi \_\_\_\_\_ tusi va belgilari \_\_\_\_\_ laqabi yoki birka № \_\_\_\_\_
2. Xo'jalik yoki fermaning nomi (mol egasining F.I.Sh.), adresi \_\_\_\_\_

3. Hayvoning statcionar davolashga keltirilgan sanasi \_\_\_\_\_
4. Diagnoz: dastlabki \_\_\_\_\_  
keyingi \_\_\_\_\_  
sana \_\_\_\_\_
5. Anamnez: \_\_\_\_\_
6. Hayvonning keltirilgan jarayondagi tekshiruv natijalari:  
harorat \_\_\_\_\_  
puls \_\_\_\_\_  
nafas olish \_\_\_\_\_  
umumiyl holati \_\_\_\_\_  
semizligi \_\_\_\_\_  
teri qoplamasining holati \_\_\_\_\_  
shilliq parrandalarining \_\_\_\_\_

limfa tugunlarining \_\_\_\_\_  
 qon aylanish organlarining \_\_\_\_\_  
 nafas olish \_\_\_\_\_  
 hazmlanish \_\_\_\_\_  
 nerv sistemasining \_\_\_\_\_  
 ko‘rish organlarining \_\_\_\_\_  
 harakat \_\_\_\_\_  
 7. Maxsus tekshiruvlarning natijalari \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

#### 8. Kasallikning kechishi (orqa tomoni)

Sana	Harorat			puls	nafas	Kasallik kechish belgilari maxsus tekshiruv tahlili	Davolash muolajasi va asralish rejimi	Davolovchi vrachning imzosi
	ertalab	tushda	kechqurni					
1	2	3	4	5	6	7	8	9

9. Yakuniy diagnoz (sana) \_\_\_\_\_

10. Kasallik oqibati \_\_\_\_\_  
(sog‘aydi, o‘ldi, suyildi, sana)

11. Sog‘aygan hayvon yoki so‘yilgan gavdasi qaerga jo‘natilgan.

12. Patalogoanatomik diagnozi \_\_\_\_\_

Dalolatnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil.

Epizootiyaga qarshi o‘tkazilgan tadbirlarni qayd qilish jurnalni (2-vet.). Ushbu jurnal barcha xo‘jaliklarda bosh yoki katta vetrach tomonidan veterinariya uchastkalarida, punktlarida, veterinariya shifoxonalarida, tuman (shahar) veterinariya bo‘limlarida (tegishli aholi punktlari bo‘yicha) veterinariya mutaxassislari tomonidan yuritiladi.

Mazkur jurnalda yuqumli kasalliklarga qarshi o‘tkazilgan barcha tadbirlar qayd etiladi: diagnostik tekshiruvlar (jumladan, qon namunalarini RA, RSK, RDSK bo‘yicha tekshirish va h.k.), profilaktik va majburiy emlashlar, hayvonlarning parazitlariga qarshi ishlov berishlar (shuningdek, baliq, asalari) va veterinar-sanitar tadbirlar.

Bajarilgan tadbirlar haqidagi ma‘lumotlar o‘sha kunning o‘zida yoki kelgusi kuni jurnalga tushiriladi. Emlash va diagnostik tekshiruvlarning ma‘lumotlari ushbu tadbir o‘tkazilganligi bo‘yicha tuzilgan dalolatnomadagi yozuvlar (dalillar)ga mos kelishi lozim.

Ushbu jurnalda yozuvlar har bir hayvon yoki parranda turiga alohida qayd qilinadi.

## Epizootiyalarga qarshi o'tkazilgan tadbirlarni qayd qilish jurnalı

*toq tomoni*

Sana (kun qy, yil)	Ferma, bo'lim, xo'jalik, aholi punkti nomi	Hayvon turi va yoshi	Tekshirish, ishlov berish va emlash tadbirlarining nomi. (ishlov berish jarayonida qo'llanilgan vositalarining nomi, ishlab chiqargan tashkilot, saqlash muddati, seriya, gos.kontrol №)	Profilaktik maqsadda emlangan yoki ishlov berilgan mollar soni	Jumladan	Majburiy emlangan, ishlov va tadbir o'tkazilgan hayvonlar soni
1	2	3	4	5	6	7

*inf tomoni*

Tashxislashirish (sog'lomligi) uchun o'tkazilgan tadbirlar, hayvonlar soni			Joriy yilda <u>birinchi</u> marta tekshirilgan			Joriy yilda <u>ikkinci</u> marta tekshirilgan		
shulardan;			shulardan;			shulardan;		
birlamchi tekshirildi	kasallikga moyillik ko'rsatdi, soni	ikkilamchi tekshirildi	birlamchi kasallikga moyillik ko'rsatdi, soni	birlamchi tekshirildi	ikkilamchi tekshirildi	shulardan; kasallikga moyillik ko'rsatdi, soni	shulardan; kasallikga moyillik ko'rsatdi, soni	
11	12	13	14	15	16	17	17	18

Masalan: "Kuydirgiga qarshi emlash", "Moneziozga qarshi gelmintsizlantirish", "Tuberkulinizatsiya", "Teri osti bo'kalariga qarshi ishlov berish" va boshqalar kiritiladi. 8-10-ustunlarga faqat rejasiz majburiy tarzda amalga oshirilgan emlash va ishlov berishlar qayd etiladi. Jumladan, 8-ustunga asosan piroplazmidozlarga va qo'tirga qarshi to'liq davolangan, gelmintsizlantirilgan yoki emlangan mollarning bosh soni ko'rsatiladi. Joriy yilda birlamchi tekshiruvdan o'tkazilaganlari esa 15-18 ustunlarda yoziladi (masalan malleinizatsiya). Dezinfeksiya, dezinseksiya bo'yicha oy oxiridagi ish yakunlari ham belgilangan reja va bajarilgan ish hajmi ko'rinishida mazkur jurnalga yozib qo'yiladi.

Tuman (shahar)da epizootik holatini qayd qilish jurnalini (3-vet.) tuman va shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari yuritadi. Jurnal tuman yoki shahar hududida paydo bo'lgan yuqumli va invazion kasalliklar haqidagi barcha ma'lumotlar qayd qilinadigan asosiy hujjatdir.

Ushbu jurnal - tegishli tuman yoki shahar hududida uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarni aks ettiruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. SHuningdek, mazkur jurnalga qo'shimcha ravishda ushbu tuman yoki shaharning epizootik kartasi tuziladi. Mazkur jurnalning doimiy saqlanishi talab etiladi. Uning muqovasiga odatiy belgilardan tashqari, undan oldingi 3-vet. jurnalning saqlanish joyi, so'nggi sanalari ko'rsatilib, yangi jurnalning tartib raqami ham qo'yilishi lozim.

Jurnalda O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunning talab va ko'rsatmalari inobatga olingan holda tegishli yuqumli kasallar uchraganda karantin yoki cheklashlar joriy qilish choralari qayd etilib brutsellyoz, tuberkulyoz, trixenellyoz, sistitserkoz ham hisobga olinadi. Jurnalda yozuvlar kasalliklar bo'yicha yuritilib har bir kasallikka etarli daraja sahifalar taqsimlanadi va ushbu bo'limlarda mavjud aholi punkti yoki xo'jalik uchun 8-10 qatorдан ajratiladi.

Jurnalni taqsimlashda o'rtacha 5-7 yilga mo'ljallanib, to'lgandan so'ng yangi jurnal yuritiladi.

## Tuman (shahar) epizootik holatini qayd qilish jurnali

*toq tomoni*

Kasallik nomi					
Sana (kun, oy, yil)	Aholi punkti (xo'jalik ferma (bo'slim))	Kasallik paydo bo'lgan kuni, oyi, yili	Hayvonlar turi	Diagnozni qo'yish ma'lumotlari	Aniqlangan yoki ehtimoldagi infeksiya mamba'lari
1	2	3	4	5	6
					7

*juft tomoni*

Kasallik nomi					
Hayvonlar soni					
Kasal bo'lgani	Harom o'lgani	Majburiy so'yilgan yoki yo qotilgan	Tekshirishdan o'tgani	Yilning oxiriga qoldirilgan kasal mollar soni	Xo'jalikni sog'lom deb e'lon qilib, karantin yoki chegaralashlar olingan kun, oy, yil
8	9	10	11	12	13
					14
					15
					16

Jurnalning 5-ustunida diagnoz belgilash uchun asos bo‘lувчи qaysi tekshiruvlar qachon o‘tkazilganligi ko‘rsatiladi. Masalan: klinik, patalogoanatomik dallilari, mikroskop (kuydirgiga), serologik yoki bakteriologik (brutsellyozga), tekshiruv natijalari va hokazo. 7 hamda 14-ustunlarda xo‘jalik yoki aholi punktini nosog‘lom deb e’lon qilish, karantin o‘rnatish, kasallikni tugatish va karantinni bekor qilish bo‘yicha tuman qarorining raqami va sanasi qayd etiladi. 13-ustunda epizootiya davrida kasallangan, o‘lgan, majburiy emlagan (vaksina, zardob) hayvonlarning hamda yil oxirida qolgan kasal mollarning bosh soni haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Veterinariya vrachi tomonidan lozim ko‘rilgan ayrim qo‘shimchalar, jumladan o‘lgan hayvonlar qaerda va qaysi usul bilan yo‘qotilganligi haqidagi ma’lumotlar 15-ustunda qayd etiladi. 16-ustunda esa barcha yozuvlarni qayd etgan mutaxassis o‘z ism-familiyasini aniq ko‘rsatgan holda imzo qo‘yiladi.

#### Nazorat savollari

1. Veterinariyada hisobga olish deganda nimani tushunasiz?
2. Veterinariya hisob-kitob hujjatlarining ahamiyati?
3. Veterinariya hisob-kitobi o‘z ichiga nimalarni qamrab oladi?
4. Veterinariyada jami bo‘lib nechta jurnal shakli mavjud?
5. Davolash veterinariya muassasalari, xo‘jalik, fermalarda yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
6. Parrandachilik xo‘jaliklarida yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
7. Veterinariya laboratoriyalarda yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
8. Bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarda yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
9. Transport veterinariya-sanitariya nazorati punktlarida yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
10. Chegara veterinariya-sanitariya nazorati punktlarida yuritiladigan jurnal shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?
11. Kasal hayvonlarni qad qilish jurnali kim toomnidan rasmiylashtiriladi?
12. Tuman (shahar) epizootik holatini qad qilish jurnali kim tomonidan rasmiylashtiriladi?

## VETERINARIYADA HISOBOT VA ISH YURITISH

### **Veterinariya hisobotining mazmuni va mohiyati**

Veterinariya hisoboti va statistikasi hayvonlarning kasallanishi, kasallik oqibatida nobud bo‘lishi va veterinariyaga oid boshqa masalalar bo‘yicha ma’lumotlarni aks ettirishdan iborat. Barcha qayd qilish jurnallaridagi dastlabki ma’lumotlar asosida tuzilib, Davlat veterinariya xizmatining tashkilot va muassasalari, idoraviy va xususiy veterinariya xizmati mutaxassislarining ish faoliyati natijalari bat afsil yoritiladi.

Veterinariya amaliyotida veterinariya qonunchiligidagi tasdiqlangan birnechta hisobot shakllari mavjud.

Chorva mollari orasida o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar aniqlangan hollarda esa tegishli davlat veterinariya tashkilotlariga yuqumli kasallik chiqqanligi hamda shoshilinch (operativ) xabar beriladi. Bu guruh kasalliklariga quyidagilar kiradi: kuydirgi, oqsil, o’lat, brutsellyoz, tuberkulyoz, chechak, qorason va boshqalar.

Barcha turdagagi hisobotlar odatda quyidagi uchta asosiy qismidan iborat (sarlavhasi, mazmuni (jadval ma’lumoti) va rasmiylashtirish qismlari).

Sarlavhasi – kod belgilari, hisobotni tuzuvchi tashkilot, vazirlilik (qo‘mita), respublika, viloyat, tuman, indeks, manzil hamda hisobotni qabul qiluvchining ma’lumotlari ko‘rsatiladi.

Mazmuni – bu qismida berilgan qator va ustunlar bo‘yicha jadval holida hisobot ko‘rsatkichlari hamda tegishili yozuvlar ko‘rsatiladi.

Rasmiylashtirish – ushbu qismida hisobot tuzuvchining ism-familiyasi, lavozimi, imzosi, sana va boshqalar ko‘rsatiladi.

Hisobot yozishda foydalilanidigan barcha shakldagi hisobot varaqalari (blankalari) bosmaxona usulida ko‘paytiriladi. Hisobot davlat veterinariya tashkiloti va muassasalarida uning rahbarlari chorvachilik xo‘jaliklari, parrandachilik hissadorlik jamiyatlari va fabrikalari bosh yoki katta veterinariya vrachlari tomonidan tuziladi. Hisobotlar 2 nusxada tuzilib, 1 nusxasi yuqori tashkilotlarga topshirilsa, 1 nusxasi o‘z idorasida saqlaniladi.

### **Veterinariya hisob-kitobi va hisoboti**

Veterinariya ishida hisob-kitob va hisobot hayvonlarning (parranda, mo‘ynabop hayvonlar, baliq, asalari va boshqalar bilan birgalikda) kasallanishi va o‘limi, davlat veterinariya muassasalari, xo‘jaliklari va kompleksdagagi veterinariya mutaxassislarini hamda transport va davlat chegaralaridagi veterinariya xodimlari tomonidan amalgalash oshiriladigan diagnostik tekshiruv kasalliklarning oldini olish va davolash hamda

veterinariya-sanitariya tadbirlarni birlamchi qayd etuvchi va jamlovchi ma'lumotlar majmuidan iboratdir.

Veterinariya hisob-kitobi va hisoboti chorvachilikning veterinariya sanitariya holati hayvon va parrandalarning bosh sonini saqlash borasida o'tkazilgan tadbirlarning hajmi va samaradorligi chorvachilik mahsulotlarini sifati, chorva mollari mahsulotlari va xom ashyolarini tashish ustidan veterinariya nazoratining natijalari bo'yicha to'g'ri va aniq ma'lumotlar berishi zarur.

Veterinariya hisob-kitobi va hisoboti hujjatlariiga to'g'ri, to'liq, aniq va ishonchli dalillar kiritilishi uchun veterinariya muassasalarini xo'jaliklar, tashkilotlar va korxonalarning rahbarlari va mas'ul shaxslari javobgar hisoblanib, tegishli shakldagi hisob-kitob va hisobot hujjatlariini yuritishlari lozim.

Hayvonlarning kasallanishi va o'limi birlamchi qayd etish diagnostik tekshiruvlar kasalliklarning oldini olish, davolash, veterinariya-sanitar tadbirlar, veterinariya-sanitariya ekspertizasi kabilar veterinariya xizmatining mansabдор (lavozimi) shaxslari tomonidan amalga oshirilib, veterinariya hisobotlari O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi va markaziy statistik boshqarma (MSB) tomonidan tasdiqlangan yagona shaklda va tegishli muddatlarda taqdim etiladi.

### **Veterinariyada hisobot shakllari**

Hayvonlarning kasallanishi, harom o'lishi va majburiy so'yilishi, yo'qotilishi hamda davlat veterinariya tarmog'i muassasa va tashkilotlarini, chorvachilik xo'jaliklari hamda boshqa korxonalar veterinariya xizmatining faoliyati natijalarini, shuningdek, kasalliklarni diagnostika va profilaktika qilish bo'yicha hamda veterinariya nazorati bo'yicha maxsus davriy veterinariya hisobot joriy qilingan va uning shakllari mavjud.

Veterinariya amaliyotida faoliyat yuritayotgan veterinariya mutaxassislari xo'jalik yuritish sub'ektlari bo'yicha yuqori davlat veterinariya tashkilotlariga quyidagi hisobot shakllarini taqdim etadi.

1. Hayvonlarning yuqumli kasalliklari haqida hisobot.
2. Epizootiyalarga qarshi o'tkazilgan tadbirlar hisoboti.
3. Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari haqida hisobot.
4. Balqilar kasalliklari haqida hisobot.
5. Veterinariya laboratoriylari ishi haqida hisobot.
6. Xo'jalik va tashkilotlar, mol so'yish punktlari veterinariya sanitariya-ekspertiza nazorati haqida hisobot.

7. Go'sht va parrandani qayta ishlash korxonalarida veterinariya-sanitariya nazorati haqida hisobot.

8. Hayvonlarni temir yo'l va suv transportida tashiganda aniqlangan yuqumli kasalliklar haqida hisobot.

9. Chorvachilik mahsulotlarini temir yo'l va suv transportida tashiganda, veterinariya-sanitariya nazorati haqida hisobot.

10. Vagonlarga veterinariya-sanitariya ishlov berish hisoboti.

11. Chegara veterinariya-sanitariya nazorati punktlarining ishi haqida hisobot.

12. Chorvachilik mahsulotlarini temir yo'l va suv transportida tashiganda aniqlangan qoida buzishlar hisoboti.

13. Davlat veterinariya tarmog'i muassasalarining mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi haqida hisobot.

Ushbu hisobot shakllari oylik, yillik, choraklik bo'lib, ular ko'rsatilgan muddatlarda tegishli yuqori tashkilotlarga yuborilishi zarur.

Barcha chorvachilik xo'jaliklarining veterinariya mutaxassislari (bosh yoki katta vetvrachlari), veterinariya uchastkalari (mudirlari) hisobot oидан keyingi oyning 1-kunigacha tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari, tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari 3-kunigacha viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalariga, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalar 6-kunigacha Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasiga o'z hisobotlari topshirishlari lozim.

### **Veterinariya hisoboti hujjatlari**

Veterinariya hisoboti hayvonlarning kasallanishi, o'limi va veterinariya xizmatining boshqa masalalari bo'yicha haqiqiy ahvolni ifoda etishga (belgilangan) mo'ljallangan.

Veterinariya hisoboti maxsus shakllardan iborat bo'lib chorvachilikning haqiqiy veterinariya-sanitariya ahvolini, veterinariya organlari, tashkilotlari hamda muassasalarining idoraviy va xususiy veterinariya xizmatining ish natijalarini ifodalovchi ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

Veterinariya hisobotolari veterinariya hisob-kitobi hujjatlari asosida tuziladi.

Veterinariya hisobotlarini to'liq va haqiqiy bo'lishiga veterinariya muassasalarining rahbari va mas'ul mansabdar shaxslari javobgardirlar.

Veterinariya hisoboti davlat veterinariya xizmatida 2 nusxada idoraviy va xususiy, veterinariya xizmatida esa 3 nusxada tuziladi.

Veterinariya hisoboti belgilangan muddatda va tegishli davr uchun tuzilishi kerak.

Veterinariya hisoboti quyidagi muddatlarda topshirilishi zarur:

Chorvachilik xo'jaliklari veterinariya vrachi, xususiy veterinariya xizmati mutaxassislari, veterinariya uchastka (punkt)lariga hisobot oyning oxirgi kunida;

Veterinariya uchastkalari tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga - hisobot oyidan keyingi oyning 1-kuniga;

Tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasiga hisobot oyidan keyingi 3-kuniga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasiga hisobot oyidan keyingi oyning 6-kuniga qadar.

Veterinariya hisobotlari hisobot yildan keyin yana bir yil saqlanadi.

Veterinariya amaliyotida foydalaniladigan hisobot shakllaridan ayrimlari haqida quyida tuxtalib o'tamiz.

**Hayvonlarning yuqumli kasalliklari haqida hisobot (1-vet).** Ushbu hisobot yuqori veterinariya organlariga qishloq xo'jalik va boshqa hayvonlarda yuqumli kasalliklarning chiqishi va tugatilishi haqida beriladi (hisobot shakli ilova qilinadi).

Veterinariya hisoboti xo'jalikdan boshlab barcha veterinariya tarmoqlari tomonidan har oyda beriladi, kasallik chiqmagan oylarda bu hisobot tuzilmaydi.

Hisobotni tuzish uchun kasallikni qayd qilish, kasal mollarni davolash, laboratoriya diagnostik tekshiruv natijalari, tuman epizootik holatini qayd qilish (3-vet) jurnalidagi ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi.

Nosog'lom punktlar va kasalliklar bo'yicha ko'rsatkichlar har bir hayvon turi uchun alohida ko'rsatiladi, qisqartirishlar mumkin emas, hayvon turi va kasallik nomi bosh harflar bilan yoziladi.

Hisobotni 1, 2, 3-ustunlarida hisobot davrida aniqlangan, nosog'lom punktlar soni, kasallikning kechishi, fermer, davlat va shaxsiy xo'jaliklar bo'yicha ko'rsatiladi.

Hisobotni 4-5 ustunlarida yangi hisobot oyida qoldik, nosog'lom punktlar va kasal mollar soni barcha sohalar bo'yicha ko'rsatiladi.

Hisobotga ilova tariqasida tushuntirish xati tuzilib unda xo'jalik, uchastka, tuman nomi, kasallik va uni paydo bo'lish sabablari, kasallikning

kechishi, harom o'lgan va majburiy so'yilgan hayvonlar soni, ko'rilmagan choralar qayd etiladi. Ushbu hisobot shakli quyida keltirilgan.

**Epizootiyalarga qarshi o'tkazilgan tadbirlar haqida hisobot (1A-vet).** Hisobot qishloq xo'jalik va boshqa hayvonlarning yuqumli kasalliklariga qarshi o'tkazilgan tadbirlar haqida yuqori veterinariya organlariga taqdim etiladi, xo'jalikdan boshlab barcha veterinariya tarmoqlari tomonidan har oyda beriladi (hisobot shakli ilova qilinadi).

Hisobotini tuzish uchun asos bo'lib o'tkazilgan tadbirlarning dalolatnomalari va ularni qayd qilish (2-vet) jurnali xizmat qiladi.

Hisobotning diagnostik tekshirishlar bo'limida hayvon turi, kasallik nomi va tekshirishlar turi, tekshirilgan hayvonlar soni, kasallikka ijobiy (musbat) reaksiya bergen hayvonlar soni ko'rsatiladi.

Hisobotning emlashlar va davolash profilaktik ishlashlar bo'limida hayvon turi va tadbirlarning nomi, ishlangan hayvonlar soni. ko'rsatiladi

Hisobotning veterinariya-sanitariya ishlari bo'limida ishlangan ob'ektlar soni va bajarilgan ish hajmi (ming kvadrat metrda) dezinfeksiya ko'rsatiladi.

1A-vet hisobotiga ilova qilib tushuntirish xati tuziladi unda qo'llanilgan vositalar tatbiq qilish usullari, muolajalar, asorat berganda uning sabablari, bu vosita va usullarining yaxshi-yomon tomonlari ko'rsatiladi.

**Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari haqida hisobot (2-vet).** Hisobot qishloq xo'jalik hayvonlarining asosiy turlarini yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishi, ushbu kasalliklardan harom o'lgan va majburiy so'yilgan hayvonlar soni bo'yicha yuqori vetrinariya organlariga veterinariya xizmatini mutaxassislari xo'jalikdan boshlab barcha tarmoqlari tomonidan har 6-oyda yarim yil uchun beriladi (hisobot shakli ilova qilinadi).

Hisobotini tuzish uchun "Kasal hayvonlarni qayd qilish" 1-vet. jurnalidagi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi. Hisobotning 1-qismida barcha kasal bo'lgan harom o'lgan va majburiy so'yilgan hayvonlar soni ko'rsatiladi. Kasal hayvonlarni qayd qilish ustunida hisobot davrida davolangan mollar soni ko'rsatiladi. Yosh hayvonlarni kasallanishi bo'yicha buzoq, qo'zi va qulunlar 1 yoshgacha, cho'chqa bolalari 4 oylikkacha xo'jalikka qarashlisi ko'rsatiladi.

Hisobotning 2-qismida kasallik turi, xo'jalikka qarashli hayvonlar ko'rsatiladi. Hisobotidagi ko'rsatkichlar chorvaning umumiy ahvoli haqida hisoboti bilan solishtirilib, tushuntirish xati tuziladi va undagi bo'lgan o'zgarishlar tushuntiriladi.

HAYVONLARNING YUQUMLI KASALLIKLARI HAQIDA  
20 yil  
oyi hisoboti

Ijrochi:

Boshliq:

20 vil " "

viloyatida yuqumli kasalliklar bo'yicha aniqlangan nosog'lom punktarning 20\_\_ yil

T A H L I L						
Tumanlar	Xo'jaliklar	Kasallik nomi	Hayvon turi	01. __ 20 __ yilga qoldiq	Hisobot oyida	Sog'nomlashitirilgan punkt
				nosog'-lom punkt	aniq-langan vagti	nosog'-lom punkt
						o'idi
						soni
						sana
						nosog'lom punkt
						kasal hayvon
						01.0... 201.... yga qoldiq
						kasal hayyon

Epizootik otryad boshlig'i:

Shakl № 1A-vet.

**EPIZOOTIYAGA QARSHI O'TKAZILGAN TADBIRLAR  
HAQIDA**

20 \_\_\_ yil \_\_\_\_\_ oy hisoboti

<b>1. Diagnostik tekshirishlar</b>				
Hayvon turi va tekshirishlar nomi	Hayvonlar turi va tekshirishlar xos raqamlari	Tekshirilgan Hayvon bosh soni	Ta'sirlangan, bosh soni	
<b>2. Emlash va profilaktik-davolash tadbirlari</b>				
Hayvon turi va tadbirlar nomi	Tadbirlar xos raqamlari		Emlandi bosh (jami)	Xo'jalik sektori
YShM				
Cho'chqalar				
MShM				
Parrandalar				
Itlar				

  

<b>3. Veterinariya-sanitariya tadbirlari</b>				
Ish turlari	Ish xos raqamlari	Hayvon binosi hududi, fermalarga ishlov berish		Nazorat so'mmasi
		Obyektlar soni	Ming metr kvadrat	
Dezinfeksiya				
Dezinseksiya				
Deratizatsiya				

Tushintirish xati \_\_\_ varaqda ilova qilindi.

"\_\_\_" 20 \_\_\_ yil

Ijrochi: \_\_\_\_\_  
(Imzo, F.I.SH)Rahbar: \_\_\_\_\_  
(Imzo, F.I.SH)

## HAYVONLARNING YUQUMSIZ KASALLIKLARI HAQIDA

20 \_\_\_ yil \_\_\_ choraklik

## H I S O B O T I

Ko'rsatkichlar mazmuni	Xos terabiqat	Jumladan ro'yxatga olingan kasallardan:												Nazorat so'mmasi	
		YShM	MShM	Cho'chqa	Ot	YSHM		MSHM		Cho'chqa		Ot			
						O'ldi	Noil. so'yildi	O'ldi	Noil. so'yildi	O'ldi	Noil. so'yildi	O'ldi	Noil. so'yildi		
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	V	
1. Hamma xo'jaliklar bo'yicha aholi, yordamchi xo'jaliklari bilan birga, jami	01														
sh/j aholi yordamchi xo'jaliklардан tashqari	02														
shulardan bu yil tug'ilgan yoshlari	03														
2. Jumladan, hamma xo'jaliklarda kasallanganlar: hazm qilish a'zolari kasalliklari	04														
Nafas olish a'zolari kasalliklari	05														
Modda almashev kasalliklari	06														
Mastitlar	07														
Ona mollarda urchish a'zolari kasalliklari	08														
Jarohatlar	09														
Zaharlanishlar	10														

Tushuntirish xati \_\_\_ varaqda ilova qilindi.

"\_\_\_" 20 \_\_\_ yil

Ijrochi: \_\_\_\_\_

(Imzo, F.I.SH)

Rahbar: \_\_\_\_\_

(Imzo, F.I.SH)

## Nazorat savollari:

1. Veterinariyada hisobot shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi?

1. Veterinariya hisobtlari kim tomonidan va nechta nusxada tayyorlanadi?

1. Veterinariyada hisobtlarini topshirish muddatlarini ayting?  
1. Epizootiyaga qarshi tadbirlar haqida hisobot nechta qismdan iborat va uni topshirish muddati?

## **HAYVONLARNI IDENTIFIKATSİYA QILISH, ULARNI HISOBGA OLİSH VA HISÖBDAN CHIQARISH TARTIBI**

### **Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi**

Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-avgustdagи "Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 285-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 sentyabrdagi "Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 748-son qarori va uning ilovasi bilan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

Mazkur qarorlarga asosan hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlarini tashkil etish, shu jumladan, yagona elektron axborot tizimini joriy qilish, tuman va shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlarini axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash, hayvonlarni identifikatsiya qilish ishlariga jalb qilinadigan xodimlarni o'qitish bilan bog'liq xarajatlar:

hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun undiriladigan to'lovlar;

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining Veterinariya va chorvachilik xizmatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

xalqaro tashkilotlar va xorijiy hukumatlar moliya institutlarining grantlari va kredit mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yilgan.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash tartibi to'g'risidagi nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**veterinariya pasporti** – hayvonga berilgan identifikatsiya raqamiga muvofiq rasmiylashtirilgan, hayvon egasini belgilovchi, hayvonlarning kasalliklarga qarshi profilaktikasi va ularni davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etib boriladigan, hayvonning yashash davri davomida saqlanadigan hujjat;

**davlat veterinariya xizmatining vakili** – tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining uchastka veterinariya vrachi;

**identifikatsiya** – birkalash, tavro bosish (tamg‘alash), jeton berish (jetonlash) va chip o‘rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan individual raqam berish, shuningdek, hayvonlar to‘g‘risida ma’lumotlarni elektron axborot tizimiga kiritish va ularga veterinariya pasportini rasmiylashtirish;

**identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut** – qulqoq uchun birkalar, jeton, oyoq halqalari, elektron chip va boshqalar;

**individual raqam** – birkalash, tavro bosish (tamg‘alash), jeton berish (jetonlash) va chip o‘rnatish (elektron identifikatsiya) orqali hayvonlarni aniqlash imkonini beradigan harflardan va sakkiz xonali raqamdan iborat kod;

**ixtisoslashgan so‘yish korxonasi** – hayvonlarni so‘yish uchun zamonaviy mexanizatsiyalashtirilgan yoki avtomatlashtirilgan asbob-uskunalar bilan jihozlangan bino va xonalari mavjud bo‘lgan korxona;

**hayvonlar** – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan asrab, ko‘paytiriladigan (boqiladigan) qoramollar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar, otlar, eshaklar va tuyalar, itlar va mushuklar;

**elektron axborot tizimi** – hayvonlar hisobi va ularni hisobga qo‘yish haqidagi mavjud ma’lumotlar bazasidagi axborotlar majmuasi;

**qarovsiz hayvonlar** – uy va ma’lum bir joyda saqlanmaydigan, identifikatsiya qilinmagan nazoratsiz qolgan (yurgan) hayvonlar;

**hayvonning identifikatsiya raqami** – hayvonga uning yashash davri davomida bir marta beriladigan, boshqa hayvonlarda takrorlanmaydigan harfli va raqamli kod;

**hayvon egalari** – hayvonlarni o‘z ehtiyoji yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ko‘paytirish, boqish va saqlashni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

**hayvonlar hisobi** – hayvonlarning yashash davri davomida ularning kelib chiqishi, ko‘payishi (ko‘paytirilishi) va harakati, shuningdek, hayvonlarda uchraydigan kasalliklarga qarshi profilaktika, tashxis qo‘yish va davolash ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui;

**hayvonlarni hisobga qo‘yish** – hayvonlarni identifikatsiya qilish va elektron axborot tizimiga hayvon haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan, unga berilgan identifikatsiya raqami va identifikatsiya qilinganligi to‘g‘risida berilgan hujjatlar yoki tegishli yozuvlar qayd etilgan veterinariya pasporti haqidagi axborotlarni kiritish.

Identifikatsiya qilingan hayvonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi yagona elektron axborot tizimi orqali shakllantiriladi.

Quyidagi ma’lumotlar elektron axborot tizimiga kiritilishi shart:

hayvonlarning turlari;  
hayvonlarning identifikatsiya raqami;  
hayvonlarning zoti, jinsi, laqabi (mavjud bo‘lganda);  
hayvonlarning kelib chiqish (tug‘ilgan) joyi;  
hayvon egasining familiyasi, ismi va otasining ismi;  
hayvon egasi bo‘lgan yuridik shaxsning to‘liq nomi va joylashgan  
joyi (pochta manzili);  
hayvonlarni saqlash joyi;  
hayvonlarning egasi almashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;  
hayvonlarning tug‘ilgan sanasi;  
hayvonlarda amalga oshirilgan profilaktika, tashxis va davolash  
ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar;  
hayvonlarning hisobga qo‘yilganligi bo‘yicha berilgan hujjatlar  
to‘g‘risida ma’lumotlar;  
hayvonlarning so‘yilgan (nobud bo‘lgan, yo‘q qilingan) sanasi;  
hayvonlarning go‘shtidan (jasadidan) iste’mol uchun  
foydalilaniganligi yoki ularning zararsizlantirilganligi (yo‘qotilganligi)  
to‘g‘risidagi ma’lumotlar.  
Elektron axborot tizimi ma’lumotlar bazasiga hayvonning  
fotosurati ham joylashtirilishi mumkin.  
Elektron axborot tizimiga ma’lumotlar tuman (shahar) veterinariya  
va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlari tomonidan kiritiladi.

### **Hayvonlarni identifikatsiya qilish**

Hayvonlarni identifikatsiya qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:  
tegishli tartibda hayvonlarga individual raqam berish;  
elektron axborot tizimiga hayvonlar identifikatsiya qilinganligi  
to‘g‘risida ma’lumot kiritish;  
veterinariya pasportini rasmiylashtirish.

Hayvonlarga turlariga qarab individual raqam berish quyidagi  
usullar orqali amalga oshiriladi:

**Birkalash usuli** – bu usul qoramol, qo‘y va echkilar, tuyalar,  
cho‘chqalarning qulog‘iga birkalarni taqish orqali amalga oshiriladi va u  
hayvonlarning yashash davri davomida olinmaydi;

**Tavro bosish (tamg‘alash) usuli** – bu usul ot va eshaklarga  
nisbatan qo‘llaniladi, ya’ni, ot va eshaklarning tanasining chap tomoni  
kurak sohasiga suyuq azot yordamida respublika, viloyat tartib kodi va  
bel sohasiga individual raqami qo‘yiladi. Bunda tavro (tamg‘a)  
o‘lchamining balandligi 50 mm, eni 30 mm bo‘lishi lozim;

**Jetonlash usuli** – bu usul it va mushuklarga nisbatan qo'llanilib, jetonlar maxsus bo'yin bog' orqali taqiladi;

**Chip o'rnatish (elektron identifikatsiya) usuli** – bu usul hayvonlarning barcha turlariga qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida nazarda tutilgan usullardagi identifikatsiya raqamlari o'n ikki belgidan iborat bo'ladi:

*birinchi ikkita belgi* – O'zbekiston Respublikasining harfli (liter) kodi (Standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO) kodiga muvofiq);

*uchinchchi belgi* – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodi;

*to'rtinchi belgi* – hayvonlar turining raqamli kodi;

*besinchi belgidan o'n ikkinchi belgigacha* – sakkiz xonali raqamdan iborat hayvonlarning individual raqami (ot va eshaklardan tashqari). Ot va eshaklarning individual raqamlari to'rt xonali raqamdan iborat bo'ladi.

Hayvonlarni birkalash va jetonlash uchun yuqorida keltirilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi qulqoq birkalari va jetonlardan foydalaniadi.

Hayvonlarni identifikatsiya qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining harfli kodlari alfavit bo'yicha, hayvonlar turining raqamli kodi esa tartib raqam bo'yicha ketma-ketlikda belgilanadi (ilova).

Hayvonlar identifikatsiya qilingandan so'ng davlat veterinariya xizmatining vakili tegishli qaydnomani rasmiylashtiradi va elektron axborot tizimiga kiritish uchun tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga taqdim etadi.

So'yilgan (nobud bo'lgan, yo'q qilingan) hayvonlarning, shuningdek, tegishli nizomda nazarda tutilgan holatlarda veterinariya pasporti va identifikatsiya raqamini saqlovchi atributlar tegishli tuman (shahar) davlat veterinariya xizmati tomonidan yo'q qilinadi.

Hayvonlar egasi almashganda, shuningdek, bir hududdan boshqa hududga ko'chirilganda identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut almashtirilmaydi va bu bo'yicha elektron axborot tizimi hamda veterinariya pasportiga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Import qilingan zotdor hayvonlarning naslliligini tasdiqlovchi hujjatlari bo'lgan taqdirda, ularga ushbu hayvonlarni eksport qilayotgan davlatda berilgan identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut o'zgartirilmaydi.

Import qilingan hayvonlar belgilangan tartibda karantin tekshiruvidan o'tgandan so'ng ular to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar ushbu Nizomga asosan elektron axborot tizimiga kiritiladi hamda veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

Boqish va ko'paytirish uchun import qilingan hayvonlarni nasli hayvon ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda ushbu Nizom talablari asosida identifikatsiya qilinadi.

So'yish maqsadida import qilingan hayvonlar identifikatsiya qilinmaydi. Ushbu hayvonlar keltirilgan vaqtidan boshlab etti kalendar kunida so'yilishi shart.

Birka (jeton) yo'qotilganda yoki unga shikast etganligi sababli identifikatsiya raqamini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, hayvonlarning identifikatsiya raqamlariga elektron axborot tizimidagi boshqa hayvonlarning identifikatsiya raqamlari va veterinariya pasportlari bilan solishtirish orqali besh kun muddatda aniqlik kiritiladi. Bu davrda hayvonni sotish (hadya qilish), almashtirish va so'yish (so'yishga topshirish) taqiqlanadi. Bu hayvonlarni qayta identifikatsiya qilish ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hayvonlarning egalaridan identifikatsiya qilish xizmatlari uchun to'lov undiriladi. To'lov miqdori va shartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

### **Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish**

Hayvonlarga identifikatsiya raqami berilganidan so'ng uch ish kuni mobaynida davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga tegishli shakldagi veterinariya pasportini rasmiylashtiradi.

Saqlanayotgan (boqilayotgan) har bir bosh hayvonga veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi (qo'y va echkilarga guruh usulida veterinariya pasporti rasmiylashtirilishi mumkin).

Veterinariya pasportiga hayvonlarning identifikatsiya raqami (yangi tug'ilgan hayvonlar bilan birga uni tuqqan hayvon to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi), hayvonlarning kasalliklarga qarshi profilaktikasi va ularni davolash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Veterinariya pasportiga yangi ma'lumotlar veterinariya tadbirlari o'tkazilgan davrda (profilaktika, tashxis qo'yish va davolash tadbirlari) hamda hayvon egasi o'zgarganda va boshqa holatlarda kiritib boriladi.

Veterinariya pasporti tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i tomonidan imzolanadi va muhr bosiladi.

Veterinariya pasporti yo‘qolganda yoki yaroqsiz holga kelib qolganda uning dublikati beriladi.

Veterinariya pasporti yo‘qolganligi va yaroqsiz holga kelganligi to‘g‘risidagi ariza (yaroqsiz holga kelgan taqdirda veterinariya pasporti bilan birga) davlat veterinariya xizmatining vakiliga taqdim qilinadi va yo‘qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan veterinariya pasporti hayvon egasi tomonidan ariza berilgan kundan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Dublikat berish to‘g‘risida ariza taqdim qilingan kundan boshlab uch kun ichida davlat veterinariya xizmatining vakili hayvon egasiga yuqori qismining o‘ng burchagiga «DUBLIKAT» so‘zi yozilgan yangi veterinariya pasportini rasmiylashtirib beradi.

### **Hayvonlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish**

Qoramol, qo‘y va echkilar, tuyalarning bolalari tug‘ilganidan o‘n to‘rt kundan keyin bir oylikdan kechikmasdan, qulunlar va xo‘tiklar to‘rt oyligidan, cho‘chqa bolalari bir oyligidan, it va mushuklar uch oyligidan hisobga olinadi.

Aholini hayvonlar va odam uchun umumiyo‘n bo‘lgan kasallikkardan muhofaza qilish maqsadida xaridor (olvuchi) hayvonni sotib olganda (hadyani olganda) doimiy yashash joyi bo‘yicha davlat veterinariya xizmatining vakiliga etti kun ichida hayvonni hisobga qo‘yish uchun murojaat qiladi.

Hayvon egalarining arizasiga muvofiq davlat veterinariya xizmati tomonidan hayvonlarni hisobga olish tegishli tartibda uch kun ichida amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning hayvonlarini bosh soni ko‘p bo‘lgan taqdirda ularni identifikatsiya qilish bo‘yicha alohida grafik ishlab chiqiladi.

Hayvonlar hisobga olinganidan so‘ng uning egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatga asosan veterinariya pasporti rasmiylashtiriladi.

Identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasporti hayvonning yashash davri davomida saqlanishi shart.

Xizmat ko‘rsatgan veterinariya vrachi tomonidan veterinariya pasportiga hayvonlarning davolanganligi va/yoki boshqa o‘tkazilgan profilaktika tadbirlari amalga oshirilganligi to‘g‘risida yozuv kiritilishi majburiyidir. Bunda, tegishli shakldagi qaydnomma rasmiylashtiriladi, hayvon egasining imzosi bilan tasdiqlanib, veterinariya vrachi

tomonidan imzolanadi va elektron axborot tizimiga kiritish uchun tegishli davlat veterinariya xizmatiga taqdim etiladi.

Hayvon egalari hayvon tug'ilganda tegishli tartibda belgilangan muddatlarda identifikatsiya qilish uchun doimiy yashash joyi bo'yicha davlat veterinariya xizmatining vakiliga murojaat qiladi.

Identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut yoki veterinariya pasporti bo'lmagan hayvonlar identifikatsiya qilinmagan hisoblanadi.

Hayvondan identifikatsiya raqamini saqlovchi atributni echish, o'zgartirish, boshqa hayvon identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut bilan almashtirish, veterinariya pasportiga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish va qo'shimchalar, turli yozuvlar kiritish, shuningdek, nobud bo'lgan (so'yilgan, yo'q qilingan) hayvonlarning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasportini saqlash taqiqlanadi.

Hayvonlar hisobga qo'yilgandan so'ng hayvon egalari tegishli nizom talablarini bilan tanishtiriladi.

Hayvon egalari hayvon so'yilganda (nobud bo'lganda, yo'q qilinganda) hayvonning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasportini (elektron identifikatsiyalashda faqat veterinariya pasportini) etti kun muddatda doimiy yashash manzili bo'yicha davlat veterinariya xizmatining vakiliga hisobdan chiqarish uchun taqdim qiladi.

So'yilgan hayvonlarga ixtisoslashgan so'yish korxonasingning veterinariya vrachi tomonidan belgilangan tartibda hayvon egasiga berilgan "Hayvon so'yilganligi to'g'risida" ma'lumotnomasi ham taqdim etiladi.

Davlat veterinariya xizmati hayvonlarning identifikatsiya raqamini saqlovchi atribut va veterinariya pasportiga (elektron identifikatsiyalashda faqat veterinariya pasportiga) asosan hayvonlarni hisobdan chiqaradi.

Davlat veterinariya xizmatining vakiliga hayvon egalari hayvon sotilganligi yoki hadya qilinganligini veterinariya pasportida tasdiqlatishga majburdir, bunda hayvon egalari o'zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ham taqdim etadi.

### **Hayvonlarni saqlash**

Hayvonlar veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari talablariga muvofiq sharoitlardagi joylarda (binolarda) saqlanadi.

Shahar hududida hayvonlarni saqlashda ularning bosh sonlarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

Qoramollar, qo'y va echkilar, cho'chqalar, otlar, eshaklar va tuyalarni ko'p qavatlari turar-joylarda saqlashga yo'l qo'yilmaydi.

Aholini hayvonlar va odam uchun umumiyoq bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish maqsadida identifikasiya qilinmagan hayvonlarni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan saqlash va boqish taqiqlanadi.

Ko'chalar, chorrahalar, istirohat bog'lari, avtomobil yo'llari va temir yo'llar hamda ochiq maydonlarda chiqindilar va go'ngni toplash, saqlash, tashlash va yoqish taqiqlanadi.

Hayvonlardan hosil bo'lgan chiqindilar va go'ng veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlanadi va yo'q qilinadi.

### **Hayvonlarni tutish va saqlash**

Qarovsiz hayvonlarni tutish, tashish va saqlash tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limlari tomonidan veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuqumli kasalliklarga chalinganligi gumon qilingan va odamlarga tajovuz qilayotgan hayvonlar to'g'risida hayvon egalari yoki tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limlari tomonidan davlat veterinariya xizmatlariga murojaat qilinishi lozim.

Tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo'limlari orqali tutib saqlanayotgan so'yiladigan hayvonlar o'ttiz kun mobaynida hayvon egalari tomonidan olib ketilmagan taqdirda, ushbu hayvonlar obodonlashtirish boshqarmalari hisobiga o'tkaziladi va davlat veterinariya xizmati tomonidan veterinariya ko'rigan o'tkazilgandan so'ng, so'yilib faqat qayta ishslash maqsadlari uchun ishlatilishi mumkin.

### **Hayvon egalarining huquqlari va majburiyatlar**

Hayvon egalari: veterinariya xizmatidan hayvonlarning kasallikka chalinishi holati, epizootik vaziyat to'g'risida, shuningdek, hayvonlarda o'tkazilgan maxsus tekshirishlar natijalari, ularga ko'rsatilgan veterinariya xizmati uchun to'lovlar miqdorlari haqida axborot va boshqa ma'lumotlarni olish; veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida

tegishli veterinariya xizmatlari, shuningdek, xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomalar tuzish; hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarini, veterinariya dori va texnika vositalarini veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq olish hamda realizatsiya qilish; davlat organlari va boshqa organlarning qonunga xilof qarorlari, ushbu organlar mansabdon shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'y sunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdon shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Hayvon egalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Hayvon egalari: veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish; davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalarini bajarish; o'zlariga tegishli hayvonlar kasalliklarining oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik va veterinariya tadbirlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tadbirlar bundan mustasno; kasal hayvonni davolatish, zarur bo'lgan hollarda tegishli davlat veterinariya inspektorining ko'rsatmasiga ko'ra uning so'yilishini yoki yo'q qilinishini belgilangan tartibda ta'minlash; hayvonlarning to'satdan nobud bo'lganligi yoki g'ayriodatiy xatti-harakati holatlari to'g'risida tegishli davlat veterinariya xizmatini zudlik bilan xabardor qilish; hayvonlarni yuqumli kasallikkardan muhofaza etish bo'yicha tegishli karantin tadbirlari va boshqa veterinariya tadbirlari o'tkazilishini, shuningdek, to'liq hajmda davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash; chorvachilik binolarini hamda hayvonlarni saqlash uchun mo'ljallangan boshqa inshootlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq saqlash; hayvonlar saqlanayotgan va boqilayotgan ob'ektlarda dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish; hayvonlarni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etgan holda realizatsiya qilishni amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilmagan veterinariya dori vositalarini va ozuqabop qo'shimchalarini hayvonlarda qo'llamaslik; so'yiladigan hayvonlarni so'yishga doir veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya etish; so'yiladigan hayvonlarni faqat ixtisoslashgan so'yish korxonasida so'yish (veterinariya vrachining ruxsati bilan

shaxsiy ehtiyoji uchun va majburiy so'yish bundan mustasno); hayvonlarni davlat veterinariya xizmatida ro'yxatdan o'tkazish va identifikasiya qilish; hayvonlarning identifikasiya raqamini saqlovchi atributini va veterinariya pasporti saqlanishini ta'minlash; hayvonga berilgan identifikasiya raqamini saqlovchi atributi va veterinariya pasporti uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishga majburdir.

Hayvon egalari hayvonlarni sog'lig'iga va saqlanishiga hamda hayvonlar tomonidan odamlarga yetkazilgan har qanday tarzdagi zarar uchun javob beradilar.

### **Hayvonlarni identifikasiya qilish uchun Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar harfli kodlari**

<b>Harfli kodlar</b>	<b>Hudud nomi</b>
A	Qoraqalpog'ston Respublikasi
B	Andijon viloyati
C	Buxoro viloyati
D	Jizzax viloyati
E	Qashqadaryo viloyati
F	Navoiy viloyati
G	Namangan viloyati
H	Samarqand viloyati
K	Surxondaryo viloyati
L	Sirdaryo viloyati
M	Toshkent viloyati
N	Farg'ona viloyati
O	Xorazm viloyati
P	Toshkent shahri

### **Hayvonlar turining raqamli kodi**

Qoramollar – 1

Qo'y va echkilari – 2

Tuyalar – 3

Otlar – 4

Eshaklar – 5

Cho'chqalar – 6

Itlar – 7

Mushuklar – 8

## **Identifikatsiya raqamini saqlovchi qulq birkalari, jetonlar turlari va me'yorlari**

Hayvonlar uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer materiallardan tayyorlangan qulq birkasi tavsiya etiladi.

Hayvon turiga qarab qulq birkasi turli xil ko'rinish, rang va shakllarda bo'lishi mumkin.

Qoramollar uchun qulq birkasining plastmassa turi quyidagi hajmda: eni – 57 mm, balandligi – 77 mm.

Tuyalar uchun: eni – 40 mm, balandligi – 45 mm.

Qo'y va echkilar uchun: eni – 37 mm, uzunligi – 41 mm.

Cho'chqalar uchun tugma ko'rinishidagi birkalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, diametri 25 mm.

Qulq birkalari hayvonlarning qulog'iga birkalarni o'rnatish texnikasiga muvofiq o'rnatiladi.

Uy hayvonlari uchun issiq va sovuqqa chidamli elastik polimer va alyuminiy materiallardan tayyorlangan jeton tavsiya etiladi.

Uy hayvonlari uchun diemetri 30 mm tugmali jetondan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Nazorat savollari:**

1. Hayvonlarni identifikatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizom qachon tasdiqlangan?
2. Identifikatsiya qilingan hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi qanday shakllantiriladi?
3. Identifikatsiya raqamlari nechta belidan iborat bo'ladi?
4. Hayvonlarni birkalash va jetonlash uchun identifikatsiya raqamini saqlovchi qanday qulq birkalari va jetonlardan foydalaniladi?
5. Identifikatsiya qilingan hayvonlarga veterinariya pasportini rasmiylashtirish tartibi?
6. Hayvonlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish tartibi qanday?
7. Hayvonlarni tutish va saqlashda nimlarga e'tibor beriladi?
8. Hayvon egalarining huquqlari va majburiyatlarini nimalardan iborat?

## **III-BOB. VETERINARIYA TADBIRLARINI REJALASHTIRISH VA TASHKILLASHTIRISH**

### **VETERINARIYA TADBIRLARINI REJALASHTIRISH**

#### **Veterinariyada rejallashtirishning ahamiyati**

Respublikamiz veterinariya xizmatining muhim xususiyatlaridan biri veterinariya tadbirlarini rejallashtirish hisoblanib, mazkur rejalar chorvachilik ishlab chiqarish jarayoniga mos va monand bo‘lishi hamda uning bajarilishiga ijobiy ta’sir qilishi lozim.

Shuning uchun veterinariya xodimlarining asosiy vazifalari mavjud hayvonlarni yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar bilan kasallanishini oldini olish, mollarning sog‘lomligini ta’minlash hamda ularning mahsuldarligini oshirishga ko‘maklashishdan iboratdir.

Ushbu tadbirlarni o‘z vaqtida tashkil qilish va sifatlari o‘tkazish to‘g‘ri tuzilgan rejaga bog‘liq bo‘lib, rejallashtirish davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari uchun ham majburiydir.

#### **Rejallashtirish obyektlari**

Veterinariya tadbirlarini rejallashtirish – kasalliklarning biologik rivojlanish jarayonlariga, xo‘jalikning xususiyatlariga, hayvon turiga va fan-texnika yutuqlariga asoslanib, quyidagi muammolarga qaratiladi:

1. Yuqumli va invazion kasalliklarning oldini olish va ularni tugatish;
2. Yuqumsiz kasalliklarning oldini olish;
3. Veterinariya tadbirlarini moliyaviy va moddiy ta’minotini rejallashtirish;
4. Veterinariya fanini rivojlantirish va fan-texnika yutuqlarini joriy qilish.

#### **Veterinariya tadbirlarining rejalariga talablar**

1. Veterinariya tadbirlarining rejalarini xo‘jalik va ishlab chiqarish davlat rejalariga mos bo‘lib ijobiy ta’sir qilishi lozim.
2. Rejallashtirish ko‘p yillik ma‘lumotlarga asoslanadi.
3. Rejallashtirish paytida bajarilgan ishlar tanqidiy tahlil qilinib, yutuqlar hisobga olinadi.
4. Rejallashtirilayotgan tadbirlar aniq bo‘lib, muddati, miqdori va xarajati ko‘rsatiladi.
5. Rejalar real-imkoniyat darajasida bo‘lishi lozim.
6. Kasalliklarning rivojlanish qonuniyati e’tiborga olinadi.

7. Profilaktik, davolash va sog'lomlashtirish tadbirlari iqtisodiy hisob-kitob qilinishi lozim.

### **Rejallashtirishning asosiy tomo'yillari (prinsiplari)**

- a) Yaxlitlik – barcha xo'jalikdagi aniq belgilangan veterinariya tadbirlari bir paytda o'tkazilishi shart;
- b) Umumiylit – maxsus veterinariya tadbirlarini xo'jalik tashkilliy rejalar bilan monandligi;
- v) Ommaviylik (demokratlik) – barcha rejallashtirish ishlari qo'yidan yuqoriga qadar bajariladi;
- g) Yetakchi tadbir – rejadagi 1-darajali yoki bosh tadbirga urg'u beriladi.

### **Veterinariya tadbirlarini rejallashtirishda veterinariya statistikasining ma'lumotlaridan foydalanish**

Veterinariyada rejallashtirishga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri, veterinariya statistikasi ma'lumotlarini o'rganish va tahlili hisoblanadi. U veterinariya tadbirlarini rejallashtiradigan mutaxassisiga hayvonlarning umumiy kasalliklarining yuzaga kelishining qonuniyligini ochib beradi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kasallanishi va o'lishi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari, o'tkazilgan tadbirlarning samaradorligi mo'ljallanayotgan oldini oluvchi yoki sog'lomlashtiruvchi choralarни ilmiy asosda rejallashtirish imkoniyatini beradi.

Veterinariya vrachlarining, feldsherlarning soni, veterinariya mutaxassislarining vazifasi, veterinariya muassasalarining moddiy texnikaviy jihozlanishi haqidagi statistik ma'lumotlar, veterinariya mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshirishga, ularni joy-joyiga qo'yishni ta'minlashni rejallashtirish imkoniyatini beradi, shuningdek, kelajakda veterinariya muassasalari va xizmatining moddiy-texnikaviy bazasi mustahkamlanishining asosi bo'lishi mumkin.

Boshqaruv tashkilotlari, Davlat veterinariya tarmog'i muassasalari va veterinariya xizmati idoralarining rahbarlari, veterinariya tadbirlarini rejallashtirishni amalga oshirishda veterinariya statistikasining aniq materiallaridan keng foydalanishga chaqirilganlar, chunki uning hisobi va tahlilisiz veterinariya tadbirlarini ilmiy asosda rejallashtirish imkoniyati bo'lmaydi.

## Veterinariya tadbirlarini rejallashtirishning asosiy turlari

Amalda veterinariya tadbirlari bajariladigan aniq ishlarning muddatiga qarab rejallashtiriladi. Istiqboliy, joriy va tezkor rejallashtirishlar farq qilinadi. Ular har xil turlarga egadir.

Barcha veterinariya tashkilotlari, muassasalarini yoki xo'jaliklarning veterinariya xizmati uchun rejaning hamma turlari shart emas.

Istiqboliy rejalar odatda veterinariya tashkilotlari, qisman tuman va xo'jalik miqyosida, joriy va tezkor rejalar esa tuman veterinariya tarmoqlarida va xo'jaliklarda ulardagi epizootik vaziyatlar holatiga qarab tuziladi.

Istiqboliy rejalar viloyat (o'lka) va respublikadagi veterinariya ishlarining rivojlanishida bosh yo'nalishlarning eng muhim masalalarini o'z ichiga oladi. Ular 5-10 va undan ortiq yillarga. Xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasiga qo'shimcha sifatida tuziladi. Veterinariya tadbirlarini istiqboliy rejalarining veterinariya muassasalarini moddiy-texnikaviy to'ldirilishi, jihozlash, qurilish, moliyaviy ta'minlash, veterinariya mutaxassislarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish va boshqalar bilan bog'lik bo'lgan ayrim ko'rsatkichlari, viloyat (o'lka) va mamlakatning xalq xo'jaligini rivojlantirish rejalariga qo'shilgan bo'lishi mumkin.

Joriy (yillik) rejalar 1 yil muddatga ishlab chiqiladi. Ularni ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chovrachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan maxsus shakl va uslubiy qo'llanmalar tavsiya qilingan. Shuni ta'kidlash lozimki, veterinariya tadbirlarining yillik rejalarini asosiy va belgilovchi hisoblanadi. Bularga hayvonlarning yuqumli va invazion kasalliklarining oldini olish va yo'qotish choralar, Davlat veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshirish, xo'jalikning (korxona) veterinariya-sanitariya sog'lomligini ta'minlashlar kiritiladi.

Tezkor (operativ) rejalar - aniq davrlar uchun bajarilishining murakkabligini, zarur moddiy va mehnat xarajatlarini hisobga olib, veterinariya qonunchiligi talablariga qat'iy rioya qilgan holda ishlab chiqiladi. Masalan, o'tkir infeksiya (oqsil) o'chog'ini yo'qotish rejasini diagoz tasdiqlangandan keyin birdaniga ishlab chiqiladi.

Kasallikning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun xo'jalikka karantin qo'yilgan birinchi kunlardan boshlab ko'pchilik tadbirlar rejallashtiriladi. Tezkor rejalar 1 oydan – 3 oygacha muddatga tuziladi.

## Veterinariya profilaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasি

Veterinariya profilaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasи barcha xo'jalik, tuman, shahar, viloyatlarda har yili doimiy ravishda tuzilib, ushbu reja 3 qismdan iborat bo'ladi:

1. Diagnostik tekshiruvlar
2. Profilaktik immunizatsiya-emlashlar
3. Davolash va profilaktik ishlov berish

Diagnostik tekshiruvlar: brutsellyoz, tuberkulyoz - 2 marta 1 yilda, paratuberkulyoz, enterit, trixomonoz, leykoz, qoramol vibriozi, yilqilarning qo'chirish kasalligi, pulloroz kabilarga o'tkaziladi.

Profilaktik immunizatsiya-emlashlar: kuydirgi, qorason, saramas, leptospiroz, pasterellez, o'lat va aueski kasalliklariiga qarshi.

Turli parazitar kasalliklarga qarshi ximioprofilaktika va davolash muolajasi o'tkaziladi (Rejaning namunasi ilova qilinadi).

Epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasida epizootik ahvolga qarab hayvonlarning brutsellyoz, tuberkulyoz, paratuberkulyoz, enterit, trixomonoz, leykoz, vibriozi, manqa, qo'chirish kasalligi, parrandalarning pullorozi va boshqa kasalliklarga diagnostik tekshirishlar mo'ljallanadi. Otlarning manqasiga birma-bir, har yili 5-6 kun oralatib ikki marotabali ko'zda malleinizatsiyalash usuli bilan tekshiriladi. Xo'jalikdan chiqariladigan va xo'jalikka keltiriladigan mollar oldingi tekshirish va uning natijasidan qat'iy nazar yangidan tekshiriladi.

Yirik shoxli mollarda tuberkulinizatsiya ikki oylik yoshidan boshlab bir marotaba teri ichkarisiga yuborish usuli bilan tashkillashtiriladi, sigir va naslli buqalar esa ikki marotaba bahorda va kuzda tekshiriladi. Yangidan kelib tushadigan mollar oldini oluvchi karantinda turgan davrida tekshiriladi. Xo'jalikdagi barcha katta yoshdagи parrandalar, inkubatsiya uchun etkaziladigan tuxumlar yiliga bir marotaba tuberkulyoz (sil) va pullorozga tekshirilishi kerak.

Barcha katta yoshdagи yirik shoxli mollar, ona-cho'chqalar, sovliqlar sog'lom xo'jalikdagi hamma naslli erkak mollar serologik va allergik usullar bilan brutsellyozga tekshiriladi. Ona guruhdagi parrandalar qon tomchi reaksiyasini qo'yish yo'li bilan pullorozga tekshiriladi.

Hamma kelib tushadigan buqalar, sigirlar, qochiriladigan yoshdagи tanalar eng kamida 3 marotaba 10 kun oralatib, nasldor buqalar har chorakda trixomonozga (qo'chirish kasalligi) tekshiriladi. Sun'iy qo'chirish stansiyalaridagi, urug'chilik korxonalaridagi nasldor buqalar 6 oyda vibriozga tekshirib turiladi.

Leykoz (oq qon kasalligi)ga shubha qilinadigan bo'lsa, gemitologik usulda tekshirilib kasallikning borligi aniqlanadi. Yirik shoxli mollarning paratuberkulyoziga faqat sog'lom bo'limgan xo'jaliklarda tekshirish o'tkaziladi.

O'tgan muddatidan qat'iy nazar ilgari sog'lom bo'limgan punktlarning hammasida yirik shoxli mollar, otlar, cho'chqalar va qo'ylarning hamma bosh soni kuydirgiga emlanadi.

Hamma sog'lom bo'limgan xo'jalikdagi 3 oylikdan 4 yoshgacha bo'lgan mollar yaylovga haydashga 2 hafta qolganda qorasonga qarshi emlanadi. Oxirgi ikki yil mobaynida kasallik qo'zg'atilgan xo'jaliklardagi bo'g'oz sigirlar va ona cho'chqalar tug'ishiga 1,5-2 oy qolganda 3 marotaba, emlashlar oralig'i 10 kundan: buzoqlardan tug'ilgandan keyin 2 kun o'tgach, cho'chqa bolalari 7 va 15 kunlari buzoq va cho'chqa bolalarining paratif va kolibakterioziga emlanadi. Statsionar sog'lom bo'limgan xo'jaliklarda, xavf tug'diruvchi va nasilchilik xo'jaliklarda yirik shoxli mollar va cho'chqalarning leptospiroziga: xotirjam bo'limgan va xavf tug'diruvchi xo'jaliklarda yirik shoxli mollar va cho'chqalarning pasterelleziga xotirjam bo'limgan va xavf tug'diruvchi xo'jalikda cho'chqalarning saramasiga: xotirjam bo'limgan va xavf tug'diruvchi xo'jaliklarda cho'chqalarning aueski kasalligiga qarshi oldini oluvchi emlashlar rejalshtiriladi.

Oldini oluvchi epizootiyaga qarshi tadbirlarning rejasি, veterinariya tadbirlarining rejalarida ko'rsatiladigan rejalshtirishning tamoyillari va talablariga to'g'ri kelgan holda ishlab chiqiladi. Reja tuzish uchun tegishli ma'lumotlar tayyorlanadi: mollarning bosh soni, shuningdek, keltiriladigan, naslli ishda foydalananidigan hayvonlar va hamma turdagи yosh mollarning taxminiy soni, xo'jalikning, qo'shni aholi yashaydigan punktining va tumanning epizootik holati (xo'jalikda hayvonlarning yuqumli va invazion kasalliklarining borligi, qaysi kasalliklarda diagnostik tekshirish, oldini oluvchi emlashlar, davolovchi, oldini oluvchi ishlovlarni aniqlash ko'zda tutiladi), rejani bajarish uchun bor bo'lgan va kerak bo'ladiyan biologik, ximiotepravevtik dori-darmonlarning tegishli miqdori hisobga olinadi.

Xo'jalikda ishlab chiqilgan tadbirlarning rejasи tuman veterinariya bo'limiga topshiriladi, bu erda u o'rganiladi, tahrir qilinadi va tumanning yagona epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasiga kiritiladi. Bu reja tuman hokimi tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan rejani barcha turdagи xo'jaliklar va aholi yashaydigan punktlarning bajarishi shartdir (Rejaning shakli quyida keltirilgan).

Tadbirlar turi	Ishlash kerak mollar umumiy soni	Jumladan chorakliklar bo'yicha				1 bosh molni ishlash narxi so'mmasi	Hamma ishlarni so'mmasi	
		I	II	III	IV			
<b>A. Diagnostik tekshirishlar</b>								
Sapga tekshirish (ot, eshak, xachirlar)								
Silga tekshirish Qoramollar Cho'chqalar Parrandalar								
Brutsellyoz tekshirish Qoramollar Qo'y va echkilar Cho'chqalar Tuyalar								
Otlarni qochirish kasalligiga tekshirish								
Otlarni epizootik limfongoitga tekshirish va boshqalar								
<b>B. Profilaktik emlashlar</b>								
Kuydirgiga qarshi emlash: Otlar Qoramollar Qo'y va echkilar Boshqa hayvonlar								
Qorasonga qarshi emlash:								
Cho'chqalarni saramasga qarshi emlash								
Cho'chqalarni o'lat kasalligiga qarshi emlash								
Qo'ylarni bradzotga qarshi emlash								
Parrandalarni o'latga qarshi emlash va boshqalar								
<b>C. Davolash-profilaktik ishlashlar</b>								
Qo'ylarni qo'tirga qarshi cho'miltirish								
Piroplazmidozlarga qarshi ishlar: Otlarni Qoramollarni Qo'ylarni								

Chorvachilik xo'jaliklari hamda aholi qaramog'ida "—" 20 yilda  
mavjud mollar soni

Mollarning turi va guruahlari	Fermer xo'jaligida mol bosh soni		Aholi qoramog'idagi mol bosh soni	
	Jami	Jumladan bo'lim brigadalar bo'yicha	Jami	Jumladan aholi punktлari bo'yicha
Qoramol Jumladan: sigirlar, bo'rdoqi bo'qachalar, 1 yoshgacha buzoqlar				
Cho'chqalar Jumladan: ona cho'chqalar 2 oyligacha cho'chqa bolalari 2-4 oylik cho'chqa bolalari				
Qo'yilar Jumladan: sovliqlar qo'zilar Otlar				
Parrandalar Jumladan: tovuqlar				

1. Ishlab chiqarish moliya rejasida ko'zda tutiladi: 100 bosh sigirdan – 92 bosh buzoq, 100 ona-cho'chqadan – 2000 bosh cho'chqa bolasi, 100 bosh sovliqdan – 120 bosh qo'zi, 100 bosh biyadan – 80 bosh qulun.

2. Aholi xo'jaliklarida: 1 sigirdan – 1 buzoq, 1 sovliqdan – 1,2 qo'zi (o'rtacha).

### Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini olish tadbirlarining rejasi

Qishloq xo'jalik hayvonlarining yuqumsiz kasalliklari chorvachilik xo'jaliklariga sezilarli darajada iqtisodiy zarar keltiradi.

Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklar bilan ko'plab kasallanishi va o'lishi veterinariya mutaxassislari oldiga kasalliklarga ertaroq diagnoz qo'yish va tadbirlar o'tkazishda mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini olish va yuqumli kasalliklarni yo'qotish rejasi kabilar veterinariya mutaxassisidan kasallik yuzaga kelishining etiologik sabablarini aniqlashni talab qiladi.

Veterinariya mutaxassislari hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini oluvchi rejalarini tayyorlash jarayonida hayvonlarning yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishi va ulardan o'lishi haqidagi birlamchi veterinariya hisobi ma'lumotlarini, №2-vet. shakli bo'yicha 6-oylik hisobot, oziqa, tuproq, suvlarni laboratoriyada tekshirish hujjatlarini o'rganadi. Shuningdek, hayvonlar yuqumsiz kasalliklarining oldini olishga tavsiya etiladigan dori va vositalarning borligini aniqlaydi va ularni olib kelishning imkoniyatini izlaydi.

Epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasidan farq qilib, yuqumsiz kasalliklarning oldini olish rejasiga faqat xo'jaliklarda va tuman miqyosida ishlab chiqiladi. Chunki har bir alohida xo'jaliklarda yuqumsiz kasalliklarning oldini olish tadbirlari individuallik xususiyatiga egadir.

Veterinariya rejalariga qo'yiladigan rejallashtirishning tamoyillari va talablariga amal qilgan holda, xo'jaliklarning bosh veterinariya vrachlari xo'jalik miqyosida, veterinariya uchastkalarining va shifoxonalarning mudirlari, xizmat qiladigan hudud miqyosida hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini olish rejalarini ishlab chiqadilar. Xo'jaliklar, veterinariya uchastkalari va shifoxonalarning topshirgan rejalar asosida tumanning bosh veterinariya vrachi tuman bo'yicha oldini olish rejasini ishlab chiqadi.

Tayyorlangan reja xo'jalikning boshqaruv kengashida, veterinariya muassasalarining rejalar esa, tuman veterinariya mutaxassislarining kengashida muhokama qilinadi.

So'ngra ushbu reja xo'jaliklarda xo'jalik boshqaruving qarori bilan, tumanning rejasiga esa tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi. Shundan keyin ushbu rejalarini barcha mutaxassislar va chorva xodimlarining bajarishi shartdir. Rejaning birinchi ustunida tartib raqami, ikkinchisida – rejallashtiriladigan tadbirlarning nomi, uchinchisida – bir yillik ishning hajmi, 5-7 ustunlarga shu jumladan yilning choraklari bo'yicha va 8-chi ustunda bir yilda bajariladiganlar yoziladi. Yuqumsiz kasalliklarning oldini olish rejasiga diagnostic, umumiyligi oldini oluvchi, tashkiliy xo'jalik va boshqa tadbirlar ham qo'shilishi mumkin.

Tadbirlarning taxminiy sanog'i quyida keltiriladi:

- hayvonlarni klinik ko'rikdan o'tkazish, dispanser tekshirish;
- chorvachilik binolarining qishlov davrida va undan keyingi sanitariya holatini tekshirish;
- hayvonlarning turli yoshdagagi guruhlarini hisobga olgan holda, chorvachilik binolarining mikroiqlimini nazorat qilish;

- oziqalarning sifatini tekshirish;
- ratsionlarning to'yimlik qiymatini, oziqalarning sifatini laboratoriya tekshirishlari ma'lumoti asosida baholash;
- biologik to'la qiymatli oziqlantirishni tashkillashtirish va hayvonlarni saqlash qoidalariga rioya qilish;
- ratsionda etishmaydigan vitaminlar, makro va mikroelementlarni to'ldirish uchun mineral-vitaminli qo'shilmalarni qo'llash;
- sigirlarni o'z vaqtida sog'ishdan chiqarish (tug'ishiga eng kamida 45-60 kun qolganda);
- g'unajinlarni tug'ishga tayyorlash (alohida guruhlarga ajratish, sut sog'uvchilarga berkitish);
- bo'g'oz sigirlar va g'unajinlarning ratsionidan sifatsiz oziqalarni olib tashlash va silos berishni chegaralash;
- sigir va g'unojinlarni 2-3 soat davomida 2-3 km ga doimiy yurgizib turish;
- modda almashinuvi darajasini aniqlash uchun hayvonlarning qon namunasini tanlab tekshirish;
- sigir va g'unojinlarning elinini, tuyog'ini va bo'g'ozligini tekshirish;
- tug'ishdan oldin sanitariya ishlarini o'tkazish;
- yangi tug'ilgan buzoqlarni tug'ish bo'limlaridan olish va ularni veterinariya-sanitariya hamda zoogigiyena talablariga javob beradigan profilaktoriyalarga joylashtirish;
- tug'ilgandan 1-2 soat o'tgach buzoqlarning tirik og'irligini hisobga olgan holda surg'ichli ichirgichlar orqali +36 +38 gradus haroratdagi uvuz (ug'uz) sutini ichishini nazorat qilish (birinchi 5-6 kunlar);
- ultrabinafsha nurlar bilan nurlatish, buzoqlarga vitaminli konsentratlar, tabiiy va sun'iy meda shiralari hamda to'qima preparatlarini qo'llash;
- parxezli oziqalarga meda shirasi, vitaminlar va atsidofilli preparatlarni qo'shib nimjon buzoqlarga berish;
- nimjon tug'ilgan buzoqlarni issiq xonalarga joylashtirish, isitish uchun elektr lampalaridan va issiq urishdan foydalanish va boshqalar.

**Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini olish tadbirlarining rejasি**

№	O'tkazilgan tadbirlar nomi	Reja bir yilga	Shu jumladan choraklar bo'yicha				Yil oxirida bajari-lishi
			I	II	III	IV	
			Reja Bajarilishi	Reja Bajarilishi	Reja Bajarilishi	Reja Bajarilishi	
1.	Mollarni veterinariya ko'rigidan o'tkazish						
2.	Sigirlarda dispan-serizatsiya o'tkazish						
3.	Modda almashinuv darajasini tekshirish						
4.	Sigirlarning elini tekshirish						
5.	Dag'al-xashak va shirali ozuqlarning makro-mikro element tarkibini tekshirish va omuxta emlarga qo'shib berish miqdorlarini aniqlash						
6.	Urg'ochi mollarning jinsiy organlarini tekshirish va zarur bo'lsa davolash profilaktik tadbirlar o'tkazish						

**Veterinariya uchastkasi (xo'jalik) bo'yicha hayvonlarning yuqumsiz kasalliklarini oldini olish bo'yicha 20\_\_yil uchun tadbirlar rejasи**

Tadbirlar	Yillik choraklar				ilova
	I	II	III	IV	
Reja	Bajarilishi	Reja	Bajarilishi	Reja	Bajarilishi
Klinik ko'rilmalar: sigirlarni g'unajinlarni 1 yoshgacha bo'lgan buzoqlar					
Cho'chqalar-hammasi					
mayda mollar hammasi Shu jumladan: ona qo'yilar buqalar					

Dispanserizatsiya: sigirlar buqalar						
Sigirlarni ginekologik dispanserizatsiya qilish						
Sigirlarda mastit bor-yo'qligini tekshirish						
Ozuqa sifatini tekshirish (namunalar olish): pichan senaj silos						
Mikroelementlarni qo'llanishi va hokazo						

### **Hayvonlarni surunkali yuqumli kasallikklardan sog'lomlashtirish rejasi**

Istiqboliy rejalar tuzilib, hayvonlarni tuberkulyoz, brutsellyoz, senuroz va sistitserkoz kabi kasallikklardan sog'lomlashtirishga yo'naltiriladi. Shuningdek:

- naslchilik xo'jaliklarini leykozdan sog'lomlashtirish;
- baliqlarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanishining oldini olish;
- asalari yaylovlarini akarapidoz, braulyoz, varraotoz, paratif va nozematozlardan sog'lomlashtirish va boshqalar bo'yicha istiqboliy rejalar tuziladi.

Hayvonlarning yuqumli kasalliklarini yo'qotish rejalarini ishlab chiqishda veterinariya mutaxassislari yoki veterinariya mutaxassislarining komissiyasi, hayvonlarni joylashtirish, ularni saqlash texnologiyasi, oziqlantirish darajasi va sharoiti, podani to'ldirish holati, barcha binolar va binolar hududining veterinariya-sanitariya holati, epizootik vaziyat (kasallikning tarqalish darajasi, kasallanishga shubha qilinadigan hayvonlarning soni) chuqur o'rganiladi.

Rejada karantinli-chegegaralovchi, tashkiliy-xo'jalik, veterinariya-sanitariya, zoogigiyenik va maxsus choralarining majmui ko'zda tutilib, bajarish muddati va bajaruvchi mas'ul shaxs ko'rsatiladi.

Reja har bir aholi yashaydigan punkt, bo'lim yoki fermadagi yuqumli kasallikkarni tugatish muddati hisobga olinadi.

Istiqboliy reja tuman hokimiyyati tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shundan keyingina u huquqiy kuchga kiradi va uni bajarish

shartdir. Bunday rejani bajarishdan bosh tortadigan yoki bajarilishiga qarshilik qiladigan mutaxassis yoki rahbar shaxslar veterinariya qonunchiligini buzuvchilar hisoblanadi va belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Tuberkulyoz (sil)ni tugatish rejasini ishlab chiqishda unga diagnostik tekshirishlar, umumiy oldini oluvchi, tashkiliy xo'jalik va boshqa tadbirlar qo'shilishi mumkin. Ularning taxminiy sanog'i quyida keltiriladi:

- ozuqalarни erga tushirishga yo'l qo'ymaslik;
- go'ng chiqarish uchun ishlatiladigan ulovlarda fermalarga oziqa keltirishni man etish;
- mollarning fermaga kirish joyidagi va uning hududiga kelishdagи dezobarerlar, veterinariya-sanitariya to'siqlarini doimiy ishlab turishini ta'minlash;
- begona kishilarning, ayniqsa tuberkulyozdan sog'lom bo'limgan xo'jalikdan kelgan kishilarning fermaga va yozgi lagerga kirishini man etish;
- tuberkulyoz bilan kasallangan kishilarning fermada xizmat qilishini man etish;
- fermaning ishchilarini qo'shimcha miqdorda maxsus kiyim boshlar, etik va shaxsiy gigiena buyumlari (yuvinish idishi, sovun, sochiq va boshqalar) bilan ta'minlash;
- xo'jalik, qo'shni xo'jalik va tumanning epizootik holatini o'rghanish;
- hayvonlardagi allergik reaksiyalarning dinamikasi va natijasini tahlil qilish;
- tuberkulinga reaksiya beradigan hayvonlarni so'ygandan keyin ko'rib chiqish;
- zarur bo'lgan gistologik, bakteriologik va biologik tekshirishlar o'tkazish;
- xo'jalikda tuberkulinga ijobiy reaksiya beradigan va kasallikning klinik belgisi namoyon bo'lgan hayvonlar so'yish maydonida so'yiladi;
- tuberkulinga reaksiya bermaydigan hayvonlarda har 30-45 kundan keyin ketma-ket ikki marotaba 3 oy oralig'ida tuberkulinizatsiya o'tkazib, ularni oldini-olishni nazoratga qo'yish;
- sutni pasterizatsiyalash va qaymog'i olingan sutni qaynatishni tashkillashtirish;

- tuberkulinga reaksiya bermaydigan sigirlardan to'g'ilgan buzoqlarni ajratib boqish, ularga sog'lom sigirlarning suti yoki onasining qaymog'i olingen suti (obrat)dan ichirish;
- ikki oylik buzoqlarda teri ichkarisiga tuberkulinizatsiyalash;
- tuberkulinga ijobiy reaksiya bergen buzoqlarni ajratib qo'yish, keyinchalik ularni semirtirib so'yishga topshirish;
- tuberkulinga reaksiya bermagan buzoqlarni ikki marotaba 30-45 kun oraliq va 3 oydan keyin yana tuberkulinizatsiyalash;
- fermalararo, ferma ichkarisida mollarni qayta guruhlashni, shuningdek, sog'lomlashtiriladigan podani keltirilgan hayvonlar yoki xo'jalikda o'stirilgan hayvonlar bilan to'ldirishni man etish;
- hayvonlarni har marotaba tuberkulyozga tekshirgandan keyin barcha chorvachilik binolarini uuyvchi natriy va formalin aralashmasining 3 foizli eritmasidan foydalanim dezinfeksiyalash;
- go'ngni biotermik usulda zararsizlantirish;
- kasal hayvon saqlangan chorvachilik binolarining tuprog'ini tozalash va xavflilarini sanitari ta'mirlash;
- chorva xodimlari uchun veterinariya-sanitariya bo'limlarini, ayniqsa odamlar va hayvonlar tuberkulyozining oldini olishda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni tushuntirish.

Reja loyihasini tayyorlashda komissiya tarkibiga tumanning bosh veterinariya vrachi, tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining direktori, xo'jalikning rahbari, bosh veterinariya vrachi va bosh chorvadorlar kiritiladi. Belgilangan vaqt o'tgandan keyin tuman hokimiysi tasdiqlangan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha tekshirish o'tkazadi. Xo'jalik rahbarining hisoboti tinglanadi va zarur bo'lsa yangidan qaror qabul qilinadi. Bunda rejaning bajarilishidagi kamchiliklar ko'rsatiladi, qo'shimcha tadbirlar va uni amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

### **O'tkir yuqumli kasallik o'chog'ini tugatishning tezkor rejasi**

O'tkir yuqumli kasalliklardan sog'lom bo'lmagan xo'jaliklar va aholi yashaydigan punktlarda majburiy va tezkor tartibda tadbirlar tashkillashtiriladi va amalga oshiriladi. Diagnoz qo'yilganidan keyin birdaniga o'tkir o'tuvchi infeksiya (oqsil)ning o'chog'ini tugatishni tezkor rejasi ishlab chiqiladi. Tezkor rejaning maqsadi o'tkir yuqumli kasallikning uchog'ini o'rab olish, uning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, qisqa muddat ichida uni tugatish, podani, xo'jalikni va joylarni sog'lomlashtirishdan iborat. O'tkir yuqumli infeksiyani tugatishga

qaratilgan tadbirlar hamma xo'jalik, barcha aholi yashaydigan punktlar va xotirjam bo'lmagan joylarni birdaniga egallashi kerak.

O'tkir o'tishi bilan farq qiladigan kasalliklardan boshqa barcha infeksiyalarni tugatishga qaratilgan tadbirlar deyarli bir xildir.

Biroq ayrim xususiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin, bu kasallik qo'zg'atuvchisining xususiyati, hayvonning turi, organizmning rezistentligi va boshqa sharoitlarga bog'liq.

Odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklarda asosiy e'tibor odamlarning kasallanishini ogohlantiruvchi veterinariya-sanitariya tadbirlariga qaratiladi. Bunday paytlarda veterinariya mutaxassisini tezlik bilan tumanning sanitariya-epidemiologiya stansiyasi (SES) boshlig'iga xabar qiladi. Tibbiyot xodimlari birgalikda ferma xodimlari va hayvon egallarining shaxsiy xavfsizligi vazifalarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarini tuzadi. Lozim bo'lsa, xizmat qiluvchi xodimlar va kasallanish xavfi tug'iladigan boshqa kishilarni emlashlar (kuydirgi, qutirish va x.k) tashkillashtiriladi.

#### Nazorat savollari:

1. Veterinariya tadbirlarini rejalshtirishning ahamiyati?
2. Rejalshtirish ob'ektlarini aytинг?
3. Veterinariya tadbirlarining rejalariga talablar qaysilar?
4. Rejalshtirish prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
5. Rejalarning turlari va ularning nomini aytинг?
6. Bir yilga tuziladigan rejalgarda misol keltiring?
7. Ko'p yilga mo'ljallangan rejalar qanday nomlanadi?
8. Tezkor operativ rejalar qachon va kim tomonidan tuziladi?
9. Rejalar qancha muddatga tuziladi va kim tomonidan tasdiqlanadi?
10. Veterinariya profilaktik va epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasini aytинг?
11. Yuqumli va invazion kasalliklarni tugatish rejasiga izoh bering?
12. Hayvonlarni surunkali yuqumli kasalliklardan sog'lomlashtirish uchun qanday reja tuziladi?
13. O'tkir yuqumli kasallik o'chog'ini tugatishda qanday reja tuziladi?
14. Xo'jaliklarda, idoralarda va davlat veterinariya muassasalarida kalendar ish rejalarini tuzish tartibi?

## VETERINARIYA TADBIRLARINI TASHKILLASHTIRISH

### Veterinariya tadbirlarini tashkillashtirishning ahamiyati

Chorvachilik va parrandachilikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha veterinariya tadbirlarini rejali ravishda bir paytning o'zida tashkillashtirilishi hamda moddiy-moliyaviy ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun barcha veterinariya xizmati mutaxassislari (davlat, idoraviy, xususiy) o'z ish o'rinnlarida doimiy tarzda veterinariya tadbirlarining rejasini tuzishi hamda oqilona tashkil etib, ijrosini ta'minlashlari talab etiladi. Bu esa turli yuqumli kasalliklarni oldini olish va davolash hamda tugatishda muhim ahamiyatga ega.

Veterinariya tadbirlari quyidagi 4 guruhgaga bo'linadi:

1. Tashkiliy xo'jalik tadbirlari.
2. Profilaktik tadbirlari.
3. Veterinariya-sanitariya tadbirlari.
4. Davolash tadbirlari.

### Umumiyl Profilaktik tadbirlarni tashkillashtirish

Ushbu tadbirlarni xo'jalik veterinariya mutaxassislari amalga oshiradilar. Davlat veterinariya mutaxassislari esa tadbirlarning o'tkazilishini nazorat qiladi va ko'maklashadi. Umumiyl Profilaktik tadbirlar xo'jalik va zootexnikaviy tadbirlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Chunki bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida mol saqlanadigan fermalarning tozaligini, sifatli va sog'lom chorva mahsulotlari, mollarning zaharlanishi, yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bilan zararlanishini oldini olishni ishlab chiqilishi ta'minlanadi.

Umumiyl Profilaktik tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Molxonalarini mexanik tozalash

2. Molxona atrofini go'ng va har xil chiqindilardan tozalash.

Veterinariya statistikasining ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kasallangan hayvonlarning umumiyl sonini 80 % dan ko'prog'i yuqumsiz kasalliklarga to'g'ri kelib, asosan hayvonlarni ozirlantirishning buzilishi va ularni qoniqarsiz saqlash natijasida kelib chiqadi va chorvachilik tarmog'iga katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Ma'lumki, tashkiliy xo'jalik va davolash, oldini olish choralar, fermalarda veterinariya-sanitariya madaniyatini kuchaytirish, umumiyl oldini olish vositalaridan foydalanish, kasal hayvonlarni davolash usullari va ilg'orlarning tajribalarini joriy qilish evaziga chorva

mollarining yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishi va o'lishining kamayishi ta'minlanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishini kamaytirish – bu chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sishi va uning rentabelligining ortishiga imkon yaratish demakdir.

Yuqumsiz kasalliklarning oldini olishda xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislari katta rol o'ynaydi. Qaysiki, xo'jalik rahbarlarining yordami bilan doimo chorvachilik fermalarida tegishli veterinariya-sanitariya sharoitlarini tashkillashtirish, shuningdek veterinariya qonunchiligi shartlarini bajarilishini nazorat qilini shi zarur.

Bu vazifalarning bajarilishi ko'p hollarda xo'jalikda yuqumsiz kasalliklarning oldini olish tadbirlarini to'g'ri rejallashtirish va o'tkazishga, shuningdek, veterinariya-davolash ishlarining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Kasalliklarning oldini olish tadbirlarini xo'jalik bo'yicha veterinariya punktlari, uchastkalari, xizmat ko'rsatadigan hudud bo'yicha esa tumanning bosh veterinariya vrachi rejallashtiradi.

Rejada quyidagi asosiy tadbirlar ko'zda tutildi: hayvonlarni klinik ko'zdan kechirish; modda almashinuvining buzilishini aniqlash uchun hayvonlarni tanlab qonini tekshirish, siydkni-oqsil va atseton saqlashga, sutni-bakterial va mexanik ifloslanishga; zotli erkak hayvonlarni (buqa, ayg'ir, qo'chqor va hokazo) keng qamrovli tekshirish; sigir va g'unojinlarni ginekologik tekshirish; ozuqalarning sifatini (protein, karotin, kaltsiy, fosfor, kislota va boshqa moddalarning saqlanishiga) va suvni tekshirish; chorva mollarini yozgi yaylovda saqlashdagi veterinariya tadbirlari; oldini olish maqsadida antibiotiklardan, ABK (atsidofil-bulonli kultura) PABK, vitaminlar, biogenli stimulyatorlarni qo'llash; hayvon va parrandalarni qishda saqlaydigan binolarini tekshirish; tug'ruq binolarining (profilaktoriyalar) va go'ngxonalarning holatini nazorat qilish; hayvonlarni dispanserizatsiyalash; hayvonlarni axtalash; qishloq xo'jalik hayvonlarining kasalliklarini oldini olish masalalari bo'yicha ferma ishchilarini bilan seminar va suhabatlar o'tkazish; hayvonlarning bosh sonini saqlashda ilg'orlarning tajribasini o'rganish uchun eng yaxshi xo'jaliklarga borishni tashkillashtirish. O'tkaziladigan u yoki bu tadbirlarning vaqtini hisobga olgan holda yuqumsiz kasalliklarning oldini olish uchun yillik va choraklik rejalar tuziladi, qaysiki rejada yilning boshida bo'lган hayvonlarning sonini

e'tiborga olmasdan, balki yil bo'yicha podada bo'lgan hayvonlarning bosh soni kuzda tutildi.

Buning uchun yil boshida bo'lgan hayvonlar bosh soni yil davomida yosh mollarning tug'ilishi, hayvonlarning kirimi va chiqimi e'tiborga olinadi.

Tadbirlarni bajarishda o'tkaziladigan ish turiga qarab tegishli shaklda dalolatnomaga yozib yoki jurnalda qayd etib hujjatlashtirilgan bo'lishi kerak.

Xo'jalikning veterinariya mutaxassisini yuqumsiz kasalliklarning oldini oladigan veterinariya – oldini oluvchi tadbirlarning bajarilishini doimo nazorat qilib turishi kerak.

Masalan, yaylovlarni tekshirish bo'yicha tuziladigan dalolatnomaga quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin.

#### D A L O L A T N O M A (namuna)

veterinariya uchastkasi (xo'jalik)

tuman 20 yil

Fermer xo'jaligining veterinariya mutaxassisi U.Axmedov, zootexnigi B.Ikramov, ferma mudiri X.Tursunovlar tomonidan tuzildi ushbu dalolatnomaga shu haqdakim, \_\_\_\_\_ kuni xo'jalikka qarashli sigirlarni boqishga mo'ljallangan o'tloq er tekshirildi. 27 hektar maydonli o'tloq dalasi xo'jalikning markaziy qo'rg'onidan etti killometr uzoqlikda bo'lib, bu erda yirik shoxli mollar saqlanadi. Ko'rsatilgan maydon oxirgi ikki yil mobaynida yaylov uchun foydalaniб kelinadi.

Yaylov maydoni tekshirilganda, o'tgan yili qo'ton joylashgan hududda go'ng va somon qoldiqlari borligi aniqlandi. Qo'toning to'siqlari buzilgan. Mollarni sug'orish uchun daryoga keladigan joy loyqa bilan to'lgan, mollarni haydaydigan ko'priksi ta'mirlash talab qilinadi.

O'tloq hududida mollarni boqish uchun quyidagilar zarurdir:

1. Qo'ton joylashgan hududni go'ng va somonlardan tozalash, to'siqli qolgan yog'och bo'laklarini uyuvchi natriyning 3 % li eritmasi bilan dezinfeksiyalash, go'ng va somonlarni yoqib tashlash.

2. Sug'orish uchun daryoning oqimi bo'yicha eksisidan 30 m yuqorida yangi joyni tozalash va tayyorlash.

3. Hayvonlar uchun qo‘ton, buzoqlar uchun ayvonchani jihozlash.
  4. Ko‘prikni ta’mirlash va panjarani o‘rnatish.
- Ko‘rsatilgan ishlar 20        yil        gacha tugallanishi zarur.

Imzolar:

- 1.
- 2.
- 3.

Dalolatnoma xo‘jalik rahbariga topshiriladi.

### D A L O L A T N O M A (namuna)

“      ”        20        yil

Qo‘rg‘oncha qishlog‘i

Ushbu dalolatnoma Qo‘rg‘oncha veterinariya uchastkasining veterinariya vrachi T.Ochilov tomonidan shu haqda tuzildikim, u Tayloq tuman bosh veterinariya vrachining topshirig‘i bilan “Navro‘z” xo‘jaligi sutchilik fermasining mudiri va shu xo‘jalikning veterinariya feldsherini ishtirokida sigirlarning buzoqlarini asrash bo‘yicha belgilangan tadbirlarning qanday bajarilayotganligini tekshirib chiqdi.

Tekshirishda quyidagilar aniqlandi:

20        yil “      ” avgustgacha bo‘lgan ahvolga ko‘ra sutchilik fermasida 216 bosh qoramol, shu jumladan 80 bosh sigir, 28 bosh g‘unojin, 1 yoshdan oshgan 32 bosh tana, 1 yoshgacha bo‘lgan 76 bosh buzoq bor.

Barcha mollar                          ahvolda saqlanmoqda va hokazo.

Dalolatnomada bundan tashqari, quyidagi masalalar (tekshirish maqsadida muvofiq) aks ettirilishi lozim:

1. Mollarning binolar, yaylovlar bilan ta’minlanganligi, ularning sanitariya holati.
2. Mollarning em-xashak bilan ta’minlanganligi, ozuqalarning sifati, ularni sarflash tartibi.
3. Sug‘orishni tashkil etish.
4. Mollarni parvarish qilish.
5. Sog‘ish jihozlarining ahvoli, ularga qarash.
6. Chorva mollarining mahsulдорligi.

7. Yil boshidan buyon o'tgan davrda mollarning kasallanishi va nobud bo'lishi, nobud bo'lishining asosiy sabablari va hokazolar.

Agar tekshirish vaqtida chorva mollari veterinariya ko'rigan o'tkazilgan bo'lsa, dalolatnomaga bu ko'rik natijalari ko'rsatib o'tiladi. Shu arning o'zida aniqlangan kamchiliklarni tugatish yuzasidan bildirilgan takliflar bayon qilinadi. Dalolatnoma tekshirish o'tkazgan kishi tomonidan, shuningdek, bu ishda qatnashgan komissiya a'zolari tomonidan imzolanishi lozim. Xo'jalik rahbarini mazkur dalolatnoma bilan tanishtirish zarur.

Xo'jalikning veterinariya vrachi (feldsheri), agronom va zootexniklar bilan birgalikda mustahkam ozuqa bazasini yaratishda faol ishtirot etishi kerak. Jumladan, ular hayvonlarni to'la qiymatli oziqlantirish uchun qaysi turdag'i o'simliklarni ekishni belgilashlari lozim. Ozuqalarini saqlash va foydalanishni kuzatib turishi, sifatsiz ozuqalar bilan oziqlantirishga yo'l qo'ymasligi kerak. Har xil tur va yoshdag'i hayvonlar uchun ratsion tuzishda ishtirot etadi. Mollarni o'z vaqtida sug'orish va suv havzalarining sanitariya holatini muntazam ravishda nazorat qilib turadi. Asosiy e'tiborni yaylovlardan unumli foydalanishga, ayrim guruhdag'i hayvonlarni ko'k ozuqalar bilan qo'shimcha oziqlantirishga qaratadi, qaysiki ayrim kasalliklarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Veterinariya mutaxassis zootexnik bilan birgalikda mahsulotning sanitariya sifatini, binolarning holatini va hayvonlarni tozalashni, kun tartibidagi ishlab chiqarish jarayonlarini (oziqlantirish, sog'ish, yayratish (matsion), go'ngni tozalash va boshqalar) va ularning ketma-ketligini o'z vaqtida bajarilishini kuzatib turishi kerak. Yuqumsiz kasalliklarning oldini olishda hayvonlarni saqlash muhim ahamiyatga egadir. Xo'jalikning veterinariya mutaxassis chorvachilik binolarini ko'rish masalalarini muhokama qilishda ishtirot etadi, qurilish uchun joy tanlash, namunali loyihada ko'rsatilgan zoogigiyenik me'yordarning bajarilishini kuzatib turadi. Hayvonlarni bog'lab boqishda ortiqcha zich bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, agar hayvonlar bog'lab boqilmaydigan bo'lsa, ularni oziqlantirish va sug'orishni to'g'ri tashkillashtirish lozim. Bundan tashqari, oziqa sexlarining va oziqalarini saqlaydigan xonaning refezi bo'yicha chorvachilik binolaridan yuqorida joylashishini ham kuzatib turishi kerak.

Chorvachilikning ixtisoslashtirilishi va shuning asosida hayvonlarni saqlash va oziqlantirish texnologiyasiga, ishlab-chiqarish jarayonlariga mexanizatsiyaning kiritilganligi tufayli veterinariya

mutaxassislari chorvachilikni mexanizatsiyalash va elektrifikatsiyalash, ximizatsiyalash va iqtisodlash masalalarini yaxshi bilishlari kerak. Masalan, fermalarda, sog'ish apparatlaridan foydalanilsa, sigirlarni sog'ishda ulardan to'g'ri foydalanishga qarab turish mastitning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Yirik mexanizatsiyalashgan parrandachilik fermalarida ko'pchilik agregatlar belgilangan veterinariya-sanitariya rejimiga amal qilgan holda ishlashi lozim. Shuning uchun veterinariya mutaxassisi bunga qiziqishi va ishni bilishi kerak. Qishloq xo'jaligidagi erlarga, donga ishlov berish va ekishda ximizatsiyani qo'llashdan o'stirilgan ozuqalarning sifatini doimo nazorat qilib turishni amalga oshirish, ularda qolgan zaharli birikmalar, boshqa zaharli moddalar bilan zaharlanishining oldini olishda, turli ximikatlarni qo'llashda xavfsizlik qoidalariga qattiq rioya qilish talab qilinadi.

Shuning uchun veterinariya mutaxassisi:

1. Xo'jalikda va uning qaysi uchastkalarida qanday zaharli ximikatlardan foydalanishi, ularni saqlash va tashish sharoitini.

2. E'tiborsiz saqlash natijasida zaharlarning hayvon ozuqasi yoki suviga tushish xavfini nazorat qilishni bilishi majburiyidir.

Xo'jaliklarda hayvonlarni dispanserizatsiyalash va veterinariya tekshiruvidan o'tkazishni tashkillashtirish

Shifoxona, uchastka va xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislari hayvonlarni umumiy klinik kuzdan kechirishni va diagnostik tekshirishni rejallashtiradi hamda o'tkazadi.

Odatda bu tadbirdilar bahorda-mollarni yaylovga haydashdan oldin va kuzda hayvonlarni og'ilda boqishga qo'yishda o'tkazadilar.

Hayvonlarni profilaktik ko'zdan kechirish zootexnik tekshirishlar bilan birga o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir, chunki kasal hayvonlar o'z vaqtida aniqlanadi va ularga tegishlichcha saqlash, oziqlantirish hamda davolash sharoitlari yaratiladi. Ko'zdan kechirishda hayvonlarning umumiy holatiga, ulardagи teri kasalliklari va boshqa belgilarga asosiy e'tibor beriladi. Kasal hayvonlar ajratiladi va ularni davolash belgilanadi.

Yuqumsiz kasalliklarni oldini olishda hayvonlarni (birinchi navbatda nasldor va yuqori mahsuldor) dispanserizatsiyalash katta ahamiyatga ega bo'lib, ular har tomonlama tekshirishdan o'tadi va doimo veterinariya nazoratida turadi.

Hayvonlar orasida o'tkir yuqumli kasalliklarning yuzaga kelish xavfi bo'lsa, rejali ko'rik bilan birga hayvonlarda majburiy tekshirishlar

ham o'tkaziladi. Bunday tekshirishlarda hayvonlarning bir joyga to'planishiga yo'l qo'ymaslik va sog'lom hayvonlarga yuqumli kasalliklarning mexanik usulda yuqishining oldini olish choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlarni klinik tekshirishdan tashqari, veterinariya mutaxassislari hamma vaqt hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarini tekshirib turish va bunda mavjud kamchiliklarni bartaraf etilishini talab qilishi zarur.

Veterinariya dispanserizatsiyasi – bu umumprofilaktik va davolash tadbirdari majmui bo'lib, ular sog'lom mollarni malakali vrach nazoratidan o'tkazish, kasallangan mollarni o'z vaqtida ajratish va davolash, shuningdek, sanitariya-profilaktika tadbirdarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dispanserizatsiya veterinariyada profilaktikani tashkil etishning samarali shaklidir, chunki u quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Zaif va kasallangan mollarni o'z vaqtida aniqlash, bundan maqsad kasalliklarni boshlang'ich bosqichida barvaqt diagnostika qilishdir;
2. Ajratilgan mollarning aholini muntazam ravishda kuzatib borish;
3. Davolash va profilaktika tadbirdarini o'z vaqtida qo'llash;
4. Kasalliklarni vujudga keltirishi mumkin bo'lgan hamma narsaga barham berish maqsadida mollarni asrash, boqish va ulardan foydalanish shart-sharoitlarini o'rGANISH.

Dispanserizatsiya vaqtida qon, sut, siydiq namunalarini laboratorida tekshirishdan o'tkaziladi, yurak, qon-tomir, limfa, nerv va boshqa tizimlarning, shuningdek, modda almashinuvining holati o'rGANILADI.

Dispanserizatsiya natijalari har bir hayvon bo'yicha hisobga olinadi, bundan keyin ham ularni kuzatish davom ettiriladi va agar talab qilinadigan bo'lsa, tekshirish muayyan vaqt dan keyin takrorlanadi.

Tekshirish natijalariga qarab profilaktik va davolash muolajalari, tegishli ratsion va unga mineral-vitaminli ozuqalar qo'shish kabilalar belgilanadi. Zarur hollarda esa alohida chora-tadbirlar rejasi tuziladi.

Dispanserizatsiya tadbirdari quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Diagnostika bosqichi quyidagilardan iborat:

- xo'jalikda hayvonlardan foydalanish (zoti, mahsuldarligi, yoshi va hokazolarni) tahlil qilish;
- oziqlantirishni o'rGANISH (oziqrantirish tipi, darajasi, necha marta oziqlantirilishi, em-xashakning sifati);

- asrash sharoitini o'rganib chiqish (binoning qurilishi va tipi, yoritilishi, mikroiqlimning doimiyligi, pollarning holati, matsionning qancha davom etishi va shu kabilar;

- moddalar almashinuvi holatini muayyan ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish (qon va siyidikni tekshirish, moddalar almashinuvi buzilishiga xos kasallikni aniqlash, tug'ish parezi, lizuxa, raxit, osteodistrofiya va x.k.);

- poda yoki hayvonlar guruhlari sindromatikasi (moddalar almashinuvi buzilishiga bog'liq subklinik kasalliklar belgilari yig'indisi);

- sut mahsuldarligi darajasi;

- hayvonlar vaznining o'zgarib turishi;

- sarflangan em-xashakning qoplanishi;

- dispepsiyalar paydo bo'lishi, xo'jalik (hayvonlar guruhi) bo'yicha nasilsizlik dinamikasi va servis davrining keyingi uch yildagi o'zgarishi;

- keyingi uch yil ichida hayvonlarning barvaqt "brak" qilinganligi sabablarini o'rganish kabilar.

2. Profilaktika bosqichi (guruqli profilaktik davolash) yaqqol ifodalangan klinik kasalliklar bo'limgan, ammo oqsil, uglevod, vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzilgan yoki susayib ketgan hollarda amalga oshiriladi. Almashinuv jarayonlari buzilgan taqdirda me'yorlashtiruvchi terapiya o'tkaziladi. Hisoblash ishlari hayvonlar organizmi va em-xashak tarkibidagi oqsillar, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar miqdorini hisobga olgan holda bajariladi.

3. Davolash ishlari klinik kasal hayvonlar ajratilib, qo'shimcha tekshirishlardan so'ngra yakka tartibda davolash muolajalari o'tkaziladi.

### **Hayvonlarni asrash, oziqlantirish va oziqa sifatini nazorat qilish**

Chorvachilik va parrandachilik mahsuloti hamda xom ashyolarini ishlab chiqarish uchun jonivorlarni yetarli miqdor va sifatdagi yem-xashakka bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdek muhim vazifani bajarish talab etiladi.

Dehqonchilikni identifikatsiyalash munosabati bilan yermi va o'simliklarni (turli rivojlanish fazalarida) ishlash uchun organik va mineral moddalardan ko'proq foydalaniladigan bo'ldi. Oqova suvlari va go'ngdan organik o'g'it sifatida foydalanish, tuproqning va suv manbalarining mikroflora bilan ifloslanish xavfini oshiradi. Shuning uchun yem-xashaklar va yaylovlari infeksiyon va invazion kasallik

qo'zg'atuvchilarining tez tarqalish vositasi bo'lib qolishi mumkin. Yerni o'g'itlashda va o'simliklar zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatalidigan ximiyaviy moddalar yem-xashak bilan birga hayvonlar organizmiga kirib, ularni nobud bo'lishiga va zaharlanishi tufayli mahsulдорлиgi pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Yem-xashakni noto'g'ri asrash uning sifati buzilishiga, ularda hayvonlar uchun zararli zamburug'lar, mikroblar avj olib rivojlanishiga sabab bo'ladi. Agar yaylovlardan foydalanishda, yem-xashak tayyorlash, uni tashish, qayta ishslash va asrashda muayyan veterinariya-sanitariya tartib qoidalariga rioya qilinsa, hayvonlarning sifatsiz yem-xashakdan kasallanishini oldini olish mumkin.

Yem-xashak ekinlarini ekish va mollarni yaylovda boqishni tashkil qilish uchun yer uchastkalari tanlashda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur hududda o'lgan hayvonlar ko'miladigan joylar, axlatxonalar bo'lmasisligi zarur, chunki ular yuqumli kasallik o'chog'i bo'lishi mumkin.

Yaylovlarda hamda yem-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarda mineral o'g'itlar va zaharli ximikatlar saqlanadigan ochiq maydonchalar qurishga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Agar yaylov uchastkalarini chorva mollar haydab o'tiladigan va transport qatnashi mumkin bo'lgan yo'llar kesib o'tgan bo'lsa, ularning atrofi to'siq bilan to'sib qo'yiladi.

Organik o'g'itlarni yerga solish, mollarni o'tlatish yoki yem-xashak tayyorlash muddatlari hamda usullarini to'g'ri tanlash yuqumli, invazion kasalliklarga hamda qon suruvchi hashoratlarga qarshi kurashda eng muhim vazifa hisoblanadi. Bunda parazitlar va mikroorganizmlarning rivojlanish davrlari, ularning tashqi muhitda yashayboshlash (jonlanish) muddatlari hisobga olinadi.

Masalan, shartli patogen mikroorganizmlar, gelmintlar tuxumining jonlanish muddatlari iqlim sharoitiga (harorat, namlik va hokazolarga) qarab bir necha soatdan bir necha oygacha davom etadi.

Spora hosil qiluvchi turlar esa tashqi muhitda bir necha yilgacha saqlanib qolishi mumkin. Shuning uchun go'ng va oqova suvlar zararsizlantirilgandan keyingina ulardan yaxshisi, kuz-qish davrlarida yer haydash oldidan o'g'it sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Agar oqova suvlar o'sib turgan ekinlarni sug'orish uchun ishlatalidigan bo'lsa, u holda mazkur uchastkalardagi ekinlar o't uni, makkajo'xori va boshoqdosh ekinlar esa silos yoki don tayyorlash uchun ishlataladi. Ifloslangan uchastkalarda yetishtirilgan ko'katlar, kartoshka va lavlagini muayyan muddatgacha saqlangandan va maxsus ishlovdan

o'tkazilgandan (tozalab yuvilgandan va zararsizlantirilgandan) keyingina chorva mollariga berishga ruxsat etiladi. Gelmintlarning tuxumi bilan ifloslangan yaylovlardan o'rib olingan pichan zararsizlantirilgandan keyin uni mollarga berish mumkin.

Yuqumli va invazion kasalliklarga qarshi kurashda mollarni zagon tartibida o'tlatish katta ahamiyatga ega. Bunda yaylovdan foydalanish muddati uzayadi, yaylovnning gelmintlar tuxumidan va ko'pgina mikroorganizmlardan o'z-o'zidan tozalanishi uchun imkon tug'iladi. Zagonlarning atrofi to'siq bilan ajratib qo'yiladi. Zagonlarning soni katta-kichikligi va ulardan foydalanish muddatlari, odatda, o'tlarning o'sish tezligiga, boqiladigan mollar soniga va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Zagonlardan foydalanmay turish muddatlari veterinariya-sanitariya nuqtai nazaridan juda muhim bo'lib, odatda, u 3-4 kunni tashkil qiladi.

#### **Xo'jalikda bahorgi - yozgi va kuzgi - qishki davrlarda veterinar profilaktik va davolash tadbirdarini tashkillashtirish**

Xo'jalikdagи veterinariya-sanitariya madaniyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar, hayvonlarni saqlash va oziqrantirish sharoitlari, chorvachilik fermalarida yaxshi tashkillashtirilgan veterinariya va chorvachilik xizmatlari bo'lishi kerak.

Xo'jaliklar veterinariya muassasalarining davlat veterinariya tarmog'i chorva muvaffaqiyatini ta'minlash, profilaktik, epizootiyaga qarshi, veterinariya-sanitariya tadbirdarini o'tkazish, hayvonlarga davolash yordamini ko'rsatish ishlari bilan doimo banddir.

Yilning har bir fasli hayvonlarni asrashda o'ziga xos xususiyatga egadir, shuning uchun ham veterinariya mutaxassislari oldiga aniq vazifalar qo'yiladi.

Bahorgi davrda mollarni molxonalarda boqish tugaydi, ona hayvonlarning tug'ishi boshlanadi. Yosh hayvon bolalarini saqlab qolish uchun veterinariya tadbirdari o'tkaziladi. Yosh hayvon bolalari o'stiriladigan xonalarda tegishli sanitariya rejimi o'rnatiladi. Nimjon va kasal yosh hayvon bolalari uchun maxsus sanitariya bo'limlari yoki seksiyalar ajratiladi. Har bir fermada belgilangan sanitariya kuni ajratilib, kun davomida buzoqlarning xonalari va yayrash maydonchalarini yaxshilab tozalanadi va dezinfeksiyalanadi. Yosh hayvon bolalarining oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olish va davolash uchun umumiy oldini oluvchi vositalar keng qo'llaniladi. Bahorda o'zlarining xizmat ko'rsatadigan hududlarida veterinariya mutaxassislari hayvonlarda

profilaktik emlash va ishlov berishlar hamda diagnostik tekshiruvlar o'tkazadilar. Bu vaqtida yirik shoxli hayvonlarning teri osti so'nasining oldini olish va qarshi kurash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun so'na lichinkalarining hayvonlarning terisi ostiga kelish muddatini hisobga olgan holda hamma mollarning bosh soni tekshiriladi va ularga ishlov beriladi. Xo'jalikning veterinariya-sanitariya xavfsizligi ko'pincha yuqorida ko'rsatilgan choralarining sifatli va o'z vaqtida o'tkazilishiga bog'liq.

Ayrim hollarda jamoa chorvachiligi uchun tayyorlangan dag'al-xashaklar va shirali ozuqlar tugash arafasida bo'lib, ularning sifati pasayadi va buziladi. Shuning uchun xo'jalik veterinariya mutaxassislarining vazifasi har kuni ozuqa sifatini nazorat qilib turish va yaroqsiz ozuqalarni tegishlichka tekshirish va ishlov bermasdan foydalanishga yo'l qo'ymaslikdir.

Yozgi davrdan maksimal darajada podani har xil surunkali kasallikkardan sog'lomlashtirish uchun foydalanish kerak. Yoz oylari hayvonlarning (ayniqsa yosh mollarning) sog'ligini mustahkamlaydigan, shuningdek, yuqumli, yuqumsiz va invazion kasallikkarning oldini olishda keng tadbirlar o'tkazadigan qulay mavsumdir.

Bahor-yoz paytlari parrandachilikda ham diagnostik tekshirish va profilaktik ishlar o'tkaziladi, ularning o'lishiga yo'l qo'yilmaydigan, saqlash va oziqlantirish sharoitlarini yaxshilaydigan choralar qo'llaniladi: parrandachilik xo'jaliklarida tegishli veterinariya-sanitariya sharoitlariga erishiladi, tovuqxonalarni infeksiya kirib kelishidan saqlaniladi.

Yoz paytlari ko'pchilik parazitar kasallikkarning qo'zg'atuvchilari va ularning tashuvchilari chorvachilikka sezilarli zarar etkazadi.

Shuning uchun veterinariya mutaxassislari sug'orish ishlarini o'tkazish yo'li bilan yayloving sanitariya holatini yaxshilashga katta e'tibor beradilar, gelmintozlardan xolos bo'lgan yosh hayvon bolalarini o'stirish uchun sharoit yaratadilar. Shuningdek, bu davrdagi asosiy vazifalardan biri qon suruvchi hashoratlarga qarshi tadbirlar o'tkazishdir. Xo'jalik boshqaruvi hayvonlarga ishlov berish uchun preparatlar bilan ta'minlydi. Qon suruvchi hashoratlarga qarshi maxsus kurash guruuhlarini tashkillashtiradi. Yozdan hayvonlarning teri kasalliklarini to'liq yo'qotish va sog'lomlashtirish uchun foydalaniladi.

Kuzgi davrlarda veterinariya mutaxassislari chorvachilik xonalarini va mollarni qishki saqlashga tayyorlashga ko'p vaqtini ajratadilar. Kuz davrida hayvonlarda rejali ravishda diagnostik tekshirish va oldini

olvchi ishlar o'tkazgan taqdirdagina, molxonada boqish davrida podaning yuqumli kasalliklardan xoli bo'lishiga erishiladi. Podadagi tuberkulyoz va brutsellyoz bilan kasallangan hamma hayvonlarni ajratish maqsadidagi tekshirishlar mollarni molxonaga qo'yungacha tugallangan bo'lishi kerak. Parazitar kasalliklar va terisi zamburug'lar bilan jarohatlangan hayvonlar qishki qo'tonlarga qo'yilmaydi. Chunki qish paytida ularga qarshi kurash sharoitlari qiyinlashadi va qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Piroplazmidozlardan holi bo'limgan hududlarda oldini olish va hayvonlarni davolash, shuningdek, gelmintozlarning tarqalmasligi uchun kuzda ko'plab muolajalar o'tkaziladi.

Qish faslining boshlanishi bilan hayvonlarda (ayniqsa, yosh chorva mollarida) har xil turdag'i shamollahsh kasalliklari va ovqat hazm qilish organlari kasalliklarining yuzaga kelish xavfi kuchayadi. Qish chorvadorlar uchun eng mas'uliyatli davr hisoblanadi. Shu vaqtida yuqumsiz kasalliklarning oldini olvchi tadbirlar veterinariya mutaxassislarining diqqat markazida bo'lishi kerak.

Molxonada boqish davrida yosh chorva mollarining, nafas olish organi kasalliklarining oldini olishda, chorvachilik binolarida deyarlik haroratning o'zgarib turishiga, yuqori namlik, shamollahshlar, ammiak va serovodorodlar konsentratsiyasining ortishiga yo'l qo'ymaslik zarurdir.

Veterinariya vrachlari, feldsherlari bu davrda tayyorlangan ozuqalarning sifatini diqqat bilan kuzatib turadi, zaharli zamburug'lar bilan zararlangan ozuqalarni hayvonlarga oziqlantirishga ruxsat etmaydi. Ozuqa ratsionini tuzishda ishtirok etib, ularning tarkibida mineral moddalar, mikroelementlar, vitaminlarning to'la bo'lishiga erishiladi. Ozuqalarning to'la qiymatli va yuqori sifatligrini aniqlash uchun ularning namunasini veterinariya laboratoriyasiga tekshirishga jo'natiladi. Ozuqada kaltsiy va fosfor etishmaganda ratsionga mineralli qo'shimcha oziqlar (bur, suyak uni va boshqalar), mikroelementlar etishmaganda esa kobalt, mis, marganets, rux, yod qo'shib to'ldiriladi. Molxonada boqilgan davrda oziqada karotinning saqlanishi kamayadi. Bunday hollarda hayvonlarning ayrim guruhlariga, vitamin A eritmasi beriladi.

### **Veterinariya davolash ishlarini tashkillashtirish**

Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklariga qarshi kurash choralarining asosi hisoblangan oldini olish va davolash ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilishi kerak. Hayvonlarni davolashning o'zi, bir vaqtida kasallikning oldini olish ham hisoblanadi. O'z vaqtidagi diagnostika, davolash va yuqumsiz kasalliklarning sababini o'rganish kasallikning

tarqalishini ogohlantiruvchi omil hisoblanadi. Keyingi yillarda veterinariya fani tomonidan yangi, bir qator yuqori samarali davolovchi, oldini oluvchi vositalar va hayvonlarni davolash usullari, shuningdek, davolash muolajalarini amalga oshiradigan asbob-uskunalar taqdim qilingan. Davolash ishlaringin samaradorligini oshirish uchun uni tashkillashtirish shakllarini kuchaytirish, eng yaxshi veterinariya davolash stansiyalari, muassasalar, xo'jaliklarda veterinariya shifoxonalarining davolash ishlardagi tajribasidan keng foydalanish, davolovchi vositalar, asbob va uskunalarini unumli qo'llash zarurdir. Davolash ishlari natijasida kasal hayvonlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatilsagina, u samarali hisoblanadi.

Ushbu tadbir xo'jalik mutaxassislarini tomonidan amalga oshirilib, uning maqsadi yuqumsiz kasalliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va o'z vaqtida davolash ishlarini amalga oshirishidir. Buning uchun chorva mollarining saqlanishi, boqilishi, ularga ko'rsatilayotgan zootexnikaviy va veterinar-sanitar ishlarining o'z vaqtida bajarilishi nazorat qilinadi, ya'ni bu masalalarda bosh veterinariya vrachi ko'proq nazoratchilik qiladi, ferma mudiri, zootexnik va molboqarlar o'z vazifalarini amalga oshirishi lozim.

Yuqumsiz kasalliklarning xavfi tez sezilmasada, sekinlik bilan chorvachilikka katta talofat beradi. Masalan, bronxopnevmoniya, dispepsiya va hokazo yosh mollarda yuqumsiz kasalliklardan oshqozonichak sistemasi kasalliklari ko'p xuruj qiladi.

Davolash ishlarni xo'jalikda bosh veterinariya vrachi bo'limda esa terapevt tomonidan tashkil qilinadi.

Davolash ishlari asosan 2 turga bo'linadi:

1. Statsionar davolash – izolyator, statsionar, davolash profilaktika punktlari (DPP-2,5-3%)ga (kasallik tarixi).

2. Ambulator davolash – hayvonlarni qatnatib davolatish.

Davolash yordamining zarurlik darajasiga qarab 3 turga bo'linadi:

1. Shoshilinch davolash

2. Odatiy davolash

3. Rejali davolash

Klinik ko'rikni hayvonlarni bonitirovkasi bilan birga o'tkazish maqsadga muvofiqlik. Klinik ko'rik natijasi bo'yicha dalolatnomalar tuzilib, unda kamchiliklar, tavsiya va takliflar qayd etiladi.

Hayvonlar joyida - chorvachilik binolarining o'zida, ambulatoriyali yoki statsionar sharoitda davolanadi. Chorvachilik binolarida asosan kechiktirib bo'lmaydigan yordamlar ko'rsatiladi.

Jumladan: noto'g'ri tug'ishlarlarda, qizil ungachga begona jism tiqilib qolganda, sanchiqlarda, qorin damlaganda (timpaniya) va boshqalarda kasallikning og'irligi va kechishiga, statsionar sharoitda davolashning mumkinligiga qarab, veterinariya vrachi hayvonning umumiyligida qolishining maqsadga muvofiqligi masalalarini hal qiladi.

Uzoq davolashni talab qiladigan hayvonlarga zamonaviy apparaturalardan foydalanib, vrachning doimiy nazorati ostida davolash zarur bo'lsa, tuman veterinariya bo'limining statsionariga yoki veterinariya uchastkasiga keltiradi.

### **Dispanserizatsiya o'tkazishni tashkillashtirish**

Dispanserizatsiya hayvonlarning kasalliklarini diagnostikasi, davolash va profilaktikasi bo'yicha rejali ravishda amalga oshiriladigan veterinariya tadbirdilar majmui bo'lib, (subklinik) yashirin kasal hayvonlarni aniqlash, kasalliklarning profilaktikasi va davolashini o'z ichiga oladi, uning maqsadi – hayvonlarni kasalliklardan muhofaza qilish va ularning mahsulдорligini pasayishiga yo'l qo'ymaslik. Dispanserizatsiya xo'jalikning joriy rejalariga kiritilib, komissiya ishtirokida amalga oshiriladi – tuman bosh veterinariya vrachi xo'jalik rahbarlari, zootexniklar.

Dispanserizatsiya shartli ravishda 3 bosqichga bo'linadi:

1. Klinik tekshiruv – barcha organlar sistemasi tekshirilip, naslchilik xo'jaliklarida qoramollarning 30-40 % dan qon, 10-15 % dan sut va siyidik tekshiriladi. Boshqa xo'jaliklarda esa 5-15 % dan qon, sut, siyidik bioximik tekshiruvdan o'tkaziladi. Natijada – sog'lom, shartli sog'lom va aniq kasal guruhlarga ajratiladi.

2. Davolash ishlari – kasal hayvonlar to'liq tekshirilip, davolanishi lozim.

3. Profilaktika – barcha kasalliklarning sabablari bartaraf etiladi. Dispanserizatsiya yakunida har bir tekshiruvdan o'tkazilgan hayvonlarga dispanser kartasi to'ldirilib, kamchiliklar va tavsiyalar komissiya tomonidan tuzilgan dalolatnomada qayd etiladi.

### **Yuqumli kasallik (epizootiya)larni oldini olish va qarshi kurashish tadbirdilarini tashkillashtirish**

Qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarning yuqumli kasalliklari xo'jaliklarning chorvachiligidagi katta iqtisodiy zarar keltiriladi va ba'zan ularning xo'jalik faoliyatini buzadi. Bu

kasalliklardan ayrimlari: kuydirgi, brutsellyoz, sil, quturish singari va boshqalar. Hayvonlardan odamlarga o'tadi, uning salomatligiga, shuningdek, hayotiga xavf tug'diradi. Bunday holatlarga asosiy e'tiborni bergen holda Respublikamizda yuqumli kasalliklarning oldini oluvchi epizootiyaga qarshi tadbirlar rejasi tuzilib, keng ko'lamda tashkillashtiriladi. Bu barcha turdag'i davlat veterinariya tarmog'i va xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislarining asosiy va muhim vazifalaridir.

Respublikamizda epizootiyaga qarshi doimiy tadbirlarni o'tkazish evaziga ko'pchilik viloyatlar sil va brutsellyozdan sog'lomlashtirilgan, yirik shoxli hayvonlarning gelmintozlar bilan kasallanishi sezilarli darajada kamaytirilgan.

Umumiy veterinariya oldini olish tadbirlarini unumli bajargan sharoitda, shuningdek, rejali diagnostik tekshirishlar hayvonlarga maxsus ishlovlar berilgan taqdirdagina yuqumli va invazion kasalliklardan butunlay sog'lom bo'lgan xo'jaliklarni tashkil etish mumkin.

Yuqumli kasalliklarning oldini olishdagi muhim shartlardan biri organizmning chidamliligin oshirishdir. Chunki sog'lom rivojlangan va semiz hayvonlar yuqumli kasalliklarga kam beriladi. Shuning uchun xo'jaliklarda hayvonlarni to'g'ri va to'la qiymatli oziqlantirishni tashkillashtirish, ularni saqlash uchun maqbul sharoit yaratishga katta e'tibor berilishi zarur.

Ayrim yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash tadbirlarining rejasini tuzishda veterinariya mutaxassislar xo'jalikning, aholi punktlarining bunday kasalliklardan sog'lom emasligini, shu erga infeksiyaning tarqalish va kirib kelish xavfini hisobga olishi kerak.

Hayvonlarning yuqumli kasallaklariga qarshi kurash tadbirlari quyidagilardan iborat:

Oldini olishning umumiy choralarini va maxsus choralarini (oldini oluvchi diagnostik tekshirish, hayvonlarni emlash va boshqa ishlashlar);

Yuqumli kasalliklarni yo'qotish choralarini e'tiborga oladi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olishdagi umumiy veterinariya tadbirlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Infeksiyaning xo'jalikka kirib kelishdan saqlaydigan choralar;

2. Xo'jalikning (joyning) epizootik holatini o'rGANISH;

3. Hayvon organizmning chidamliligin oshirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratish.

## **Infeksiyaning xo'jalikka kirishidan saqlaydigan choralar**

Ma'lumki, infeksiya kirib kelishining asosiy manbai kasal hayvonlardir. Shuning uchun xo'jalikka yangi hayvonlar kiritilganda, shuningdek, xo'jalik ichkarisidagi xususiy mollar hisobiga ayrim ferma yoki podalarmi chorva mollari bilan to'ldirishda, veterinariya mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligi va asosiy veterinariya-sanitariya qoidalarining bajarilishini talab qilishlari kerak:

a) Xo'jalikka yangi keltirilgan hamma mollarni oldini oluvchi (30 kunlik) karantinda asraladi. Bu vaqtida mollar alohida xonalarda, fernalarda yoki yaylov uchastkalarida, xo'jalikdagi mollar va parrandalardan to'liq ajratilgan sharoitda saqlanadi. Karantindagi mollar uchun alohida xizmat qiladigan xodim va ozuqa keltirishi uchun transport vositalari ajratiladi.

b) Karantin davrida hamma mollar maxsus tekshirishlardan (yirik shoxli hayvonlar – tuberkulyoz va brutsellyozga, qo'y-echki va cho'chqalar – brutsellyozga) o'tkaziladi va vaqt-i-vaqti bilan termometriya usulida klinik tekshiriladi, yuqumli kasalliklarga gumon qilinsa qo'shimcha diagnostik tekshirish o'tkaziladi. Klinik ko'zdan kechirish va termometriya o'tkazish natijalari jurnalga qayd qilinadi, jurnal tekshirish o'tkazgan veterinariya mutaxassisida saqlanadi.

Kasal hayvonlar ajratilganda yoki yuqumli kasalliklar bilan kasallanishiga gumon qilinganda ular umumiyligida podadan ajratiladi va diagozni aniqlash yoki davolash uchun zarur choralar qo'llaniladi. Bu haqda shu vaqtning o'zida tumanning bosh vetrinariya vrachiga xabar qilinadi.

v) Mollarda oldini oluvchi tadbirlar o'tkazish (immunizatsiyalash, gelmintsizlantirish, mollarni maxsus cho'miltirish va hokazo). Karantin muddatining tamom bo'lishi bilan mollar yakunlovchi klinik ko'zdan kechiriladi va dalolatnoma tuziladi hamda ularni fermaning umumiyligida podasiga o'tkazishga ruxsat beriladi. Dalolatnoma tuzishda karantinlash davridagi klinik ko'zdan kechirish va termometriya o'tkazish natijalarining ma'lumotlari, shuningdek, mollarning yuqumli kasalliklardan sog'lom ekanligini tasdiqlaydigan diagnostik tekshirishlar va oldini oluvchi emlashlarning natijalari hisobga olinadi. O'zbekiston Respublikasi veterinariya qonunchiligiga asosan faqat kiritish emas, balki kasal mollarni xo'jalikdan chiqarish (veterinariya tashkilotlarining maxsus ruxsatidan tashqari) va shu infeksiyadan sog'lom bo'limgan joydan mollarni keltirish va chiqarish ham man etiladi.

Veterinariya qonunchiligi bo'yicha o'matilgan tartibga asosan xo'jalikdan chiqarish va xo'jalikka mollarni keltirishda, ularga mollarning o'zi emas, balki xo'jalik ham, ayrim kasalliklarda joylarning ham yuqumli kasalliklardan sog'lom ekanligini tasdiqlaydigan veterinariya guvohnomasi beriladi. Xo'jalik rahbarlari va veterinariya mutaxassislari bunday guvohnomasiz mollarni qabul qilganda tezlik bilan keltirilgan mollar va ularning kelgan joyi (xo'jalik)ning yuqumli kasalliklardan sog'lom ekanligini tasdiqlovchi hujjat so'rab rasmiy xat yuboriladi.

### **Xo'jalik yoki hududning epizootik holatini o'rganish**

Xizmat qiladigan hududning epizootik holatini o'rganish veterinariya mutaxassisining birinchi navbatdagi vazifasi hisoblanadi. Bu holatni bilgandan keyin sog'lom xo'jalikka yuqumli kasalliklarning kirib kelishini oldini olish choralarini o'z vaqtida va to'g'ri tashkillashtirish mumkin.

Tumanning epizootik holatini hisobga oladigan asosiy hujjat – maxsus jurnal (3-vet) va unga qo'shiladigan epizootik kartadir. Qaysiki, unda belgilangan hududning ko'p yillik epizootik holati to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Jurnal doimo tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'iда saqlanishi kerak. Bundan tashqari, epizootik holat bilan yuqumli kasalliklar bo'yicha veterinariya hisobga olish va hisobot ma'lumotlari, laboratoriya tekshirish natijalari, xo'jalikning veterinarsanitar tekshirish dalolatnomalari, shuningdek, hayvonlarda o'tkazilgan diagnostik tekshirishlar va oldini-oluvchi ishlash hujjatlari asosida tanishish mumkin.

### **Epizootiyaga qarshi oldini oluvchi va maxsus tadbirlarini tashkillashtirish**

Hayvonlarning yuqumli kasalliklariga qarshi kurashda oldini oluvchi va maxsus epizootiyaga qarshi choralar katta amaliy ahamiyatga egadir. Bunday choralarga diagnostik tekshirishlar, profilaktik emlashlar va hayvonlarni davolovchi, oldini oluvchi ishlov berishlari kiradi. Ular rejali va majburiy bo'lishi mumkin. Oldini olishning samaradorligi ko'pincha uning o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga bog'liq. Epizootiyaga qarshi oldini oluvchi va maxsus tadbirlar har yili mavsum bo'yicha qilinadi. Tumanning bosh veterinariya vrachi, veterinariya uchastkalarining mudirlari va xo'jalik veterinariya mutaxassislarining

ishtirokida rejaning loyihasini tuzadi. Reja loyihasi uchun kerakli dalillar epizootiya jurnalining ma'lumotlari, laboratoriya tekshirish natijalari va xizmat qiladigan hududdagi xo'jaliklar va aholi qaramog'idagi hayvonlarning, shu jumladan parrandalarning ham zararli kasalliklardan nosog'lom ekanligini tasdiqlovchi boshqa bor bo'lgan hujatlardir.

Reja loyihasi aniqlash bo'yicha belgilanadigan tadbirlar hajmiga shu hududdagi ma'lum kasalliklarga beriluvchan bo'lgan mollar va parrandalarning bosh soni, shuningdek, muammolar hajmi hisobga olinadi. Bu ma'lumotlar, biopreparatlar, asbob-uskunalar, dezvositalar va boshqa veterinariya ta'minot ashyolariga bo'lgan ehtiyojlar uchun zarurdir.

Oldini oluvchi va epizootiyaga qarshi tadbirlarning rejasini tuzish va ularning hajmini aniqlashda, hayvonlarning u yoki boshqa yuqumli kasalliklariga qarshi kurashishda foydalaniladigan yo'riqnomalar va qo'llanmalarga, shuningdek, shu masalalar bo'yicha rahbarlik qiluvchi veterinariya tashkilotlarining ko'rsatmalariga rioxha qilinadi. Reja loyihasini tumanning bosh veterinariya vrachi tayyorlaydi va tuman hokimligi tasdiqlaydi. Rejaning bajarilishi uchun nazoratni tuman bosh veterinariya vrachi yoki veterinariya bo'limining epizootolog vrachi amalga oshiradi. Ana shu rejaga muvofiq xo'jaliklar va veterinariya uchastkasi hududi bo'yicha ham shunday tadbirlar rejasini tuzib chiqiladi.

Ko'p tarmoqli chorvachilik xo'jaligida va davolash-profilaktika veterinariya muassasasida bu rejaning umumiyligi shakli quyidagichadir.

Diagnostik tekshirishlar epizootiyaga qarshi boshqa tadbirlar bilan bog'liq ravishda o'tkaziladi. Ularning maqsadi kasallik bilan zararlangan hayvonlarni iloji boricha tezroq aniqlashdir. Bu podadan ularni ajaratishga va kasallikning tarqalishini oldini olishga imkoniyat beradi. Yuqumli va parazit kasalliklar bilan kasallangan hayvonlarni aniqlashda diagnostik tekshirishlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: allergik, serologik, bakteriologik, mikrobiologik, gematologik, koprologik va gistologik.

Diagnostik tekshirishlar xo'jalikning aynan o'zida yoki laboratoriyalarda o'tkaziladi. Ayrim kasalliklarda xo'jaliklardagi maxsus tekshirishlar hayvonlarni klinik ko'zdan kechirish va zarur bo'lgan hollarda termometriyalash bilan birgalikda o'tkaziladi. Diagnostik tekshirishlar podadagi barcha mollarda (silda, brutsellyozda, manqada va boshqa zararlanganlikni o'rganishda va parrandalarning ayrim kasalliklarida) o'tkazilishi mumkin. Mazkur xo'jalik, aholi punktlarida

mavjud ma'lum kasallikkarga beriluvchan bo'lgan mollarning bosh sonini bir vaqtning o'zida ular tomonidan hisobga olinishi, diagnostik tekshirishni o'tkazishdagi muhim tashkiliy qoida hisoblanadi.

Diagnostikaning allergik usulini (silga, manqaga) veterinariya vrachi xo'jalikning o'zida o'tkazadi. Buning uchun belgilangan kuni tekshirilishi kerak bo'lgan hayvonlarning soni taxminan hisoblanadi, hayvonlarni ushlab turish uchun zarur miqdordagi odamlar ajratiladi, ishslash uchun joy aniqlanadi, kerakli buyumlar tayyorlanadi (probirkalar, shpritslar, pipetkalar va boshqalar). Aholiga tegishli hayvonlarni navbatdagi birma-bir ko'zdan kechirish va tekshirishlar haqida hayvonning egalari fuqarolar yig'ini faollari tomonidan xabar qilinadi. Ishning boshlangunicha xo'jalikda bo'lgan hisob asosida, shaxsiy egalikdagi mollar uchun mahalladagi ma'lumotlar asosida hamma hayvonlarning aniq ro'yxati bo'lishi kerak.

Yuqumli kasallikklardagi allergik tekshirish usullari va ularni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining maxsus yo'riqnomalarida ko'rsatib o'tilgan. Xo'jalikdagi hayvonlarda o'tkazilgan tekshirishlar va ularning natijalari haqida dalolatnoma tuziladi, qaysiki unga tekshirilgan hayvonlarning ro'yxati (opis) qo'shiladi. Ro'yxatga hayvonning laqabi va inventar raqami, jinsi, yoshi (tug'ilgan yili) rangi va belgilari ko'rsatiladi. Aholiga tegishli mollar tekshirilganda ikkinchi ustunga hayvon egasining nasabi, ismi va sharifi ko'rsatiladi. Oxirgi natijalarni baholagandan keyin veterinariya vrachi yordamchilari bilan birgalikda bu ro'yxatga imzo chekadilar, qaysiki, u xo'jalikda (punktida) o'tkaziladigan tadbirlar dalolatnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Dalolatnoma va ro'yxat odatda uch nusxada tayyorlanadi. Ularning bir nusxasi xo'jalikda, ikkinchisi tumanning bosh veterinariya vrachida, uchinchisi veterinariya uchastkasida (punktida) saqlanadi. U yoki bu sabablarga ko'ra tekshirilmagan hayvonlar tez vaqt ichida qo'shimcha tekshiriladi, bu haqda alohida ko'rsatiladi. Xo'jaliklarning allergenga ijobjiy yoki guman reaksiya bergan hayvonlar ayrim fuqarolarga tegishli bo'lsa, hayvonning egasi, uning ma'lumotlari (yoshi, rangi va boshqalar) albatta dalolatnomada ko'rsatiladi va belgilanadi. Dalolatnomaning yakunlovchi qismida kasal va kasallikka shubha qilinadigan hayvonlarga qanday muolaja qilinishi yoziladi, shuningdek, allergenga sezgir hayvon ajratilgan fermadagi va podadagi hayvonlarni saqlash haqida maslahat beriladi.

Tekshirish bo'yicha taxminiyl dalolatnoma quyidagicha:

## D A L O L A T N O M A

" " 20 yil

Narpay tuman Chortepa qishlog'i

"Navro'z" fermer xo'jaligi

Dalolatnoma Chortepa veterinariya uchastkasining mudiri, veterinariya vrachi Shodmanov I.K., veterinariya feldsheri Nasirov A. va №2 fermaning mudiri Bazarov J. lar ishtirokida tuzildi shul haqdakim, biz tomondan 14 maydan 20 maygacha №2 fermadagi yirik shoxli mollarda sil (tuberkulyoz)ga tekshirish o'tkazildi. 14 maygacha fermada hammasi bo'lib 756 bosh yirik shoxli mollar hisoblanadi. Shulardan 352 boshi sigir, 84 boshi g'unajin, 4 bosh nasldor buqa, buzoq va tanalar 316 bosh. Poda tuberkulyozdan sog'lom hisoblanadi. Hamma mollar klinik ko'zdan kechirildi va teri ichkarisiga yuborish usuli asosida tuberkulyozga tekshirildi. Tuberkulin birinchi marotaba 14 mayda, ikkinchi marotaba 17 mayda yuborildi. " " yil tayyorlangan № seriyali tuberkulin qo'llanildi. Muolaja uchun tuberkulin 320 ml, 200 ml spirit va 300 gr paxta sarflandi.

Mollarda sil kasalligining klinik alomatlari kuzatilmadi. Tuberkulinizatsiya o'tkazish natijasida 755 boshdan salbiy natija olindi. \_\_\_\_ yili tug'ilgan buzoqqa (inv.№387) ikkinchi marotaba tuberkulin yuborilganda gumon natija olindi. Ko'rsatilgan buzoqcha qo'shimcha tekshirish uchun izolyatorga ajratildi.

Ilova: Mollarning ro'yxati 8 varaqdan iborat.

Imzolar:

- 1.
- 2.
- 3.

Diagnostikaning serologik usuli hayvonlarning (parrandalarni ham qo'shib) qon zardoblarini, uning tarkiblarida u yoki bu kasallik qo'zg'atuvchisining borligini aniqlaydigan maxsus tekshirishlarga asoslangan.

Xo'jalik sharoitida shu joyning uzida parrandalarni agglyutinatsiya reaksiyalari bo'yicha pulloroz va mikroplazmozga tekshirish mumkin. Yirik shoxli mollarning brutsellyozi, leykozi, o'pkaning yoppasiga yallig'lanishida joyining o'zida hayvonlarni faqat klinik ko'zdan kechirish mumkin. Serologik, gematologik tekshirishlar esa veterinariya

laboratoriyalarda o'tkaziladi. Shuningdek, gelmint tashuvchilikga namunalar, bakteriologik, mikroskopik, gistologik va biologik tekshirishlar ham laboratoriya ja'natiladi.

### Karantin (Qo'llanma)

Hayvonlarda yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi, o'tkir kechadigan favqulodiy hodisa deb qaraladi va uni yo'qotish, kechiktirib bo'lmaydigan choralarini qo'llashni talab qiladi. Yuqumli kasalliklarning tez yuzaga kelishi va ayrim holda juda tez epizootiya tusini oluvchi xususiyatlarini inobatga olish zarur. Epizootiyaning yuzaga kelishi chorvachilik xo'jaliklarining, ayrim holda tuman va viloyatlar bo'yicha xo'jalik faoliyatini buzadi. Veterinariya mutaxassislari rejali tadbirlarni (xo'jalikni surunkali kasalliklardan sog'lomlashdirish va oldini olish) o'tkazishdagi asosiy ishlardan tashqari epizootiyaga qarshi kurashishga qo'shilishlari kerak. Yuqumli kasalliklarni yo'qotishdagi tadbirlarning tartibi va ko'lami har xil bo'lishi mumkin. Ular infeksiyaning turiga, epizootiyaning kechishiga, uning yuzaga kelish vaqtida sharoitiga bog'liq. Ayrim hollarda kasallik bir nechta hayvonlarning kasallanishi yoki o'lishi bilan chegaralanishi, boshqa hollarda epizootiya tusini olishi mumkin. Biroq, ikkala holda ham, kasallikni to'xtatishda tez chora ko'riliishi zarur. Aytaylikki, xo'jalikdan yoki aholi yashaydigan punktdan biron ta hayvonning kuydirigidan o'lish hodisasi yoki podadagi biron ta sigirning brutsellyozli infeksiya tufayli bola tashlash hodisasi kuzatiladi. Shuning uchun, agar o'z vaqtida kuydirgi yo'zg'atuvchisining kirib kelish manbai aniqlanmasa, himoya qiluvchi emlashlar o'tkazilmasa, kasallik tarqalishi va hatto odamlarning sog'ligiga xavf solishi ham mumkin. Xo'jalidagi yuqumli kasalliklarni yo'qotish tadbirlarini tashkillashtirishga faqat veterinariya mutaxassislari emas, balki xo'jalik rahbarlari va mahalliy jamaot tashkilotlari ham jalb qilinadi. Bunda eng muhimmi, ushbu kasalliklardan sog'lom bo'lgan xo'jaliklarga infeksiyaning tarqalishiga yo'il qo'ymaslikdir.

Yuqumli kasalliklarni yo'qotish va tarqalishining oldini olishdagি tadbirlar keng qamrovli o'tkazilishi kerak, bulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Kasal va kasallikka shubhali hayvonlarni aniqlash va ajratish;
2. Infeksiya manbalari va ularni kirib kelishini o'rganish;
3. Xavfli yuqumli kasallik aniqlangan xo'jalik (fermalar, brigadalar, otarlar va aholi punktlari)da karantin belgilash va infeksiya xavf tug'diradigan hududlarni aniqlash;

4. Infeksiya uchog'ini yo'qotishdagi tadbirlar;
5. Karantinni bekor qilish.

### **Kasal va kasalliklarga shubhali hayvonlarni aniqlash va ajratib qo'yish**

Yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda, ayniqsa, oqsil, kuydirgi, otlarning kontagiozli plevropnevmoniyasi kabi juda xavfli yuqumli kasalliklarda zararlangan hayvonlarni ertaroq aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Xo'jalikning yoki veterinariya uchastkasining (punktning) veterinariya mutaxassisiga, hayvonlarning yuqumli kasalliklar bilan kasallanishiga shubha qilinganligi yoki bir vaqtning o'zida bir nechta hayvonning kasallanganligi haqida xabar topishi bilan diagnoz qo'yish va sababini aniqlash uchun tezlik bilan fermaga (xo'jalikka) etib kelishi zarur.

Xo'jalik veterinariya mutaxassislari dastlab hayvonlarni ko'zdan kechirishi, termometrashi, kasal va kasallikka shubhali hayvonlarni ajratilishi, agar kasallanish hodisasi kamdan-kam bo'lsa, bunday hayvonlarni umumiyligida podadan va bir-biridan ajratib qo'yishi zarur. Maxsus bino-izolyator bo'limgan ayrim hollarda (kasallikning o'z xarakteriga qarab) bunday hayvonlarni alohida joylarga qo'yish (vaqtincha chora sifatida) yoki shu binoning o'zida umumiyligida podadan ajratib asrash kerak. Boshqa hayvonlarga, ayniqsa yonida turganlariga diqqat bilan veterinariya nazorati o'rnatiladi. Agar kasallik bir binoning o'zida katta guruhdagi hayvonlarni egallasa, bunday vaqtida binoni (sigirxona, cho'chqaxona, tovuqxona) izolyator qilib qo'yiladi. Ajratib qo'yilgan kasal va kasallikka shubhali hayvonlarga xizmat qiluvchi xodimlar va veterinariya xodimlaridan tashqari begona kishilarning kirishi kat'ian ma'n qilinadi.

Yaylovda yoki lagerda yuruvchi hayvonlarning orasida kamdan-kam hollarda kasallik uchrasa, kasallari umumiyligida podadan ayrıldı va ajratib qo'yiladi. Podadagi qolgan hayvonlar esa alohida sug'oriladigan boshqa yaylovli uchastkaga joylashtiriladi. Ko'plagan miqdorda kasallansa, hayvonlarning bu gruppasi (otari) shu joyda qoldiriladi. Agar xo'jalikning veterinariya feldsheri o'tkir o'tuvchi infeksiyaga shubha qilsa, lekin kasallikka oxirgi diagnozni kuya olmasa, u xo'jalikda kasal hayvonlarni ayirish va ajratib kuyish choralarini o'tkazishi kerak.

## **Yuqumli kasalliklarni aniqlash va uni tugatish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish (Karantin tadbirlari)**

Yuqumli kasallikka taxmin qilingan hollarda o'sha joyning veterinariya mutaxassislari va rahbarlari veterinariya qonuniga asosan shoshilinch tarzda tuman bosh veterinariya vrachiga xabar beradilar. So'ngra esa veterinariya bo'limi hamda veterinariya laboratoriysi mutaxassislari bilan hamkorlikda aniq diagnoz belgilanib, tegishli tadbirlarni tashkillashtirishga kirishiladi.

Aniqlangan yuqumli kasalliklarga o'lat, oqsil, tovuq o'lati, kuydirgi kabi o'ta xavfli o'tkir ineksiyalar – deb diagnoz qo'yilsa, bu xabar shoshilinch tarzda yuqori veterinariya boshqarmalariga ham ma'lum qilinadi va tuman bosh veterinariya vrachi tomonidan tumanning epizootik holatini yozish jurnali va epizootik kartaga tegishli belgilar qo'yiladi. So'ngra esa kasallikning epizootik o'chog'i aniqlanadi, ya'ni ferma binosi, mavjud mollar va atrof muhit va uning tarqatish chegaralari belgilab olinadi. Ushbuni inobatga olgan holda mazkur territoriyada karantin o'rnatish lozim deb topiladi va quyidagicha tashkillashtiriladi.

Karantin aniqlangan yuqumli kasallikning yoyilib ketishini oldini olish maqsadida o'tkaziladigan chegaralovchi tadbirlar majmuidan iborat. Veterinariya to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga amal qilinadi. Karantin o'rnatish uchun yuqumli kasallik aniqlanganligi haqidagi dalolatnama asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tuman bosh veterinariya vrachi tomonidan karantin o'rnatish haqidagi qaror loyihasi tayyorlanadi va tuman hokimligiga kiritiladi. Hokim tomonidan tasdiqlangan ushbu qaror qonun kuchiga kirib, undagi tadbirni tegishli shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir. Barcha tadbirlar bajarilib, oxirgi kasal hayvon o'lgach yoki sog'aygach belgilangan vaqtidan keyin yakunlovchi dezinfekiya o'tkazilib, maxsus dalolatnama tuziladi.

Ushbuga asoslangan holda yana tuman bosh veterinariya vrachi karantinni bekor qilish haqidagi qaror loyihasini tayyorlab tuman hokimligiga kiritadi. So'ngra o'z jurnaliga karantin bekor qilinganligi haqida belgi quyadi. Ayrim hujjat namunalari ilova qilinadi.

## **Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan chog'dagi chekllovchi tadbirlar (karantin)**

Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'choqlari aniqlangan hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning,

ovullarning muayyan hududlarini nobop punktlar deb e'lon qilish va ularda cheklovchi tadbirlar (karantin) joriy etish tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Belgilangan muddatlar o'tganidan va hayvonlarning yuqumli kasalliklari o'choqlari tugatilganidan keyin, shuningdek zarur veterinariya tadbirlari o'tkazilganidan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning, tumanlarning, shaharlarning, shaharchalarning, qishloqlarning, ovullarning muayyan hududlaridagi cheklovchi tadbirlar (karantin) tegishli bosh davlat veterinariya inspektorlarining taqdimnomasiga ko'ra cheklovchi tadbirlarni (karantinni) belgilagan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat veterinariya inspektorining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan bekor qilinadi.

### **Kasallanishga xavf tug'diruvchi hudud (zona)ni aniqlash**

Tuman hokimining karantin o'rnatish qarorida bir vaqtning o'zida kasallanishga xavf tug'diruvchi hudud, undagi xo'jaliklar, aholi yashaydigan punktlar ham sanab ko'rsatiladi va e'lon qilinadi.

Epizootik vaziyatni, kasallikning xususiyatini, aholi yashaydigan punktlarning joylashishini va ularning xo'jalik bilan bog'lanishini hisobga olgan holda tuman bosh veterinariya vrachi, xavf soluvchi zonaning chegarasini aniqlaydi. Agar infeksiya manbalari ma'lum bo'lmasa, bunday chegaralar asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Xavf soluvchi zonada hayvonlarni klinik kechirishga muhim e'tibor ajratiladi, hayvonlarning kirishi va chiqishi chegaralanadi, kuzatish joylari o'rnatiladi, hayvon mahsulotlari va xom ashyosini tayyorlash va sotishga e'tibor kuchaytiriladi, kasalliklarning oldini olish bo'yicha ommaviy tushuntirish ishlari o'tkaziladi.

Xotirjam bo'Imagan punktlarda va xavf soluvchi hududlarda o'tkir yuqumli kasalliklar yuzaga kelganida infeksiyaga qarshi kurashuvchi maxsus komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga: ma'muriy tashkilotlarning vakillari, veterinariya va meditsina mutaxassislari,

xo'jalik rahbarlari kiradi. Komissiya katta vakillik huquqiga ega bo'ladi. Ular kasallikni yo'qotish ishlarining holatini ma'muriy tashkilotlar qarorlarining bajarilishini, mutaxassislarining topshiriqlarini ko'rib chiqadilar va agar lozim bo'lsa, qo'shimcha choralarini ham qo'llaydilar.

Epizootiyani yo'qotish bo'yicha tadbirlarni tashkillashtiradigan va o'tkazadigan barcha veterinariya mutaxassislarini karantinning saqlanishini nazorat qilib turadilar. Karantin qoidalarining va yuqumli kasalliklarning yo'qotilishi bo'yicha tadbirlarning bajarilishi uchun javobgarlik xo'jalikning rahbarlariga, qishloq xo'jalik tashkilotlari va mahalliy jamoat tashkilotlariga, veterinariya mutaxassislariga yuklatiladi.

Karantinning tadbirlarini buzganligi uchun xo'jalik, tashkilotlar, muassasalarning lavozimdagи kishilari, ayrim fuqarolar mol va parrandalarning egallari ham javobgarlikka tortiladi.

#### **Veterinariya mutaxassislariga to'g'ri keladigan ish hajmini hisoblash koeffitsientlari**

<b>№</b>	<b>Hayvonlarning yoshi va turlari</b>	<b>Koeffitsientga aylantirish</b>
1	Sigir, bo'qalar (yillik o'rtacha)	1,0
2	Yosh qoramollar, burdoqiga va yaylovda boqilayotdigan katta yoshli qoramollar (yillik o'rtacha)	0,66
3	Barcha yoshdagи cho'chqalar (yillik o'rtacha)	0,16
4	Barcha yoshdagи qо'ylar va echkilar, qorako'l va romanovskiy qо'ylaridan tashqari (yillik o'rtacha)	0,06
5	Barcha yoshdagи qorako'l va romanovskiy qо'ylari (yillik o'rtacha)	0,1
6	Barcha yoshdagи ishchi hayvonlar, yilqilar va tuyalar (yillik o'rtacha)	0,66
7	Katta yoshdagи parrandalar (yil oxirida)	0,025
8	Yosh parrandalar (o'rtacha yillik)	0,02
9	Urg'ochi norkalar asosiy tudasi	0,2
10	Bo'rsiq (urg'ochisi)	0,6
11	Tulki (urg'ochisi)	0,5
12	Olmaxon (urg'ochisi)	0,4
13	Urg'ochi quyonlar	0,16
14	Nutriya	0,08
15	Asalari oilasi (yil oxirida)	0,2

*Izoh:* Naslchilik xo'jaliklarida hayvonlarni shartli bosh songa o'tkazishda qo'shimcha 0,2-0,4 koeffitsientga ko'paytiriladi

## **Surunkali yuqumli kasalliklardan sog'lomlashtirish tadbirlari**

Yuqorida ko'rsatilgan choralarini tashkillashirish asosan o'tkir oqimda o'tadigan, tez tarqalib ko'p miqdordagi mollar va parrandalarning bosh sonini egallaydigan kasalliklarga tegishlidir. Katta kontagiozlikga ega bo'limgan va asosan surunkali oqimda o'tadigan ayrim yuqumli va invazion kasalliklarda ham belgilangan tartibdag'i tadbirlar o'tkaziladi. Bularga sil, brutsellyoz, vibrioz, yirik shoxli mollarning yuqumli vaginiti va trixomonoz, yosh mollarning paratif, bir qator gelmintoz va boshqa kasalliklar kiradi. Bunday kasalliklarda sog'lomlashtirish choralarini cheklashlar belgilanib o'tkaziladi. Xo'jalikdan chiqqan kasallikni aniqlash uchun xo'jalikning veterinariya vrachi yoki feldsheri tuman bosh veterinariya vrachiga va veterinariya uchastkasining mudiriga xabar qilish kerak.

Xo'jalikning veterinariya mutaxassisini podadagi kasalliklarni aniqlash, ularni ajratib qo'yish va davolash choralarini qo'llaydi. Ushbu kasalliklarga qarshi kurashish yo'riqnomasi talablarini aniq tashkillantiradi va bajarilishini ta'minlaydi. U kasallarning, kasallikning o'tishi va o'limning aniq hisobini olib borishi kerak. O'lgan hayvonlarga patologoanatomik o'zgarishlarni ko'rsatib dalolatnomaga tuziladi. Ko'rsatilgan kasalliklar xo'jalikda tasdiqlansa, tuman bosh veterinariya vrachi sog'lomlashtiruvchi tadbirlarni tuzadi va uni tuman hokimi tasdiqlaydi. Veterinariya mutaxassislari asosiy e'tiborni zooantropoz kasalliklarda tashkillashtiriladigan tadbirlarga qaratadi. Odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lgan zooantropoz kasalliklari o'tkir va shuningdek surunkali oqimda o'tadi. O'tkir zooantropoz infeksiyalar qatoriga kuydirgi va quturish, surunkalilarga esa tuberkulyoz, brutsellyoz va invazion kasalliklar (trixinellyoz, sistitserkoz, exinokokkoz va boshqalar) kiradi. Zooantropoz kasalliklari paydo bo'lganda sanitariya epidemiologiya xizmati bilan birgalikda, veterinariya mutaxassislari nosog'lom punktlarda odamlarning kasal hayvonlar bilan, ularning mahsuloti va xom ashyosi bilan aloqada bo'lganda yoki ularning mahsulotini iste'mol qilishi natijasida odamlarning kasal bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan choralarini qunt bilan tashkillashtirishi va o'tkazishi kerak.

Sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirishning murakkablig'i ularning uzoqqa cho'zilishi bilan bog'liqidir. Tuberkulyoz yoki brutsellyozdan nosog'lom xo'jalik (ferma)ni sog'lomlashtirish uchun, xo'jalik va maxsus veterinariya tadbirlarining o'tkazilishini ko'zda tutuvchi rejalar tuziladi. Bosh veterinariya vrachining so'rovnomasiga

asosan bunday reja, tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi. Yuqumli kasalliklarning diagnostikasida va ularga qarshi kurash tadbirlarini tashkillashtirishda tuman veterinariya laboratoriyaning roli kattadir. Bu laboratoriylar kelib tushadigan materiallarda diagnostik tekshirish o'tkazadi, veterinariya muassasalariga, xo'jaliklarning veterinariya mutaxassislariga yuqumli va invazion kasalliklarning oldini olish va ularni tugatishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi, surunkali kasalliklardan nosog'lom xo'jaliklarni sog'lomlashtirish rejalarini ishlab chiqishda qatnashadi, xizmat qiladigan xo'jaliklarda epizootiyaga qarshi va sog'lomlashtiruvchi tadbirlarning sifati hamda o'z vaqtida bajarilishini tekshiradi. Bu laboratoriylar, shuningdek, veterinariya tashviqot targ'ibot ishlarini ham olib boradi, xizmat qiladigan xo'jalik va veterinariya tarmogining ishchilari uchun seminarlar va yo'l-yo'riqlar tashkillashtiradi.

Oldini oluvchi tadbirlarni o'tkazishda, ayniqsa nosog'lom xo'jaliklarda (fermalarda) yuqumli kasalliklarni yo'qotishda hayvonlarning kasalliklariga qarshi kurash bo'limining tarkibiga kiruvchi dezinfeksiyalovchi otryadlarning roli kattadir. Tashqi muhitni zararli kasalliklarning qo'zg'atuvchilaridan o'z vaqtida va sifatlari qilib zararsizlanadirish-chorvachilik xo'jaliklarda bu kasallikning oldini olish va tugatishdagi muhim tarmoqdir. Tarqalishi oqibatida karantin yoki cheklashlar belgilanadigan hayvonlarning yuqumli kasalliklari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya tadbirlarining ahamiyati va turlarini aytинг?
2. Umumiy profilaktik tadbirlar va ular qanday o'tkaziladi?
3. Xo'jalikning veterinar-sanitar va epizootik ahvolini qanday o'rGANIADI?
4. Dispanserizatsiya tadbiri nechta bosqichda amalga oshiriladi?
5. Davolash ishlarini qanday tashkil etiladi?
6. Veterinariya mutaxassislariga to'g'ri keladigan ish hajmini hisoblash koeffitsientlarini aytинг?
7. Xo'jalikda yuqumli kasallik chiqqanda qanday tadbirlar o'tkaziladi?
8. Yuqumli kasalliklarni oldini olishning umumiy va maxsus tadbirlari qanday o'tkaziladi?
9. Yuqumli kasalliklarda karantin yoki cheklov tadbirlarini o'tkazish uchun kim qaror chiqaradi?

## VETERINARIYA XIZMATI BINOLARINING QURILISHINI TASHKIL ETISH

### Veterinariya inshootlarining qurilishi

Veterinariya muassasalarini uchun bino qurishni tashkillashtirish mas'uliyati birinchi navbatda uning rahbarlariga – viloyatlarning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari boshliqlariga, tuman va shaharlarning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari rahbarlariga hamda xo'jaliklarning bosh veterinariya vrachiga yuklatiladi. Buning uchun soha rahbarlari aniq takliflar bilan tegishli hokimliklarga oldindan murojaat qilishi va o'z loyihasini hukumatning ko'p yillik qurilish rejalariga kiritishi zarur.

Xo'jaliklar sharoitida esa bosh veterinariya vrachi zarur inshoot-bino qurilishini taklif qilib, mazkur xo'jalik rahbariga murojaat qiladi. So'ngra taklif xo'jalik boshqaruvining umumiyligini yig'ilishida muhokama qilinib, ijobiy hal etiladi.

Barcha veterinariya qurilish ishlari kelajakda veterinariya qonunchiligidagi ko'rsatilgan assosiy veterinariya xizmatining vazifalarini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bu veterinariya ob'ektlarida epizootiyaga qarshi ishlari, davolash ishlari, diagnostika ishlari, laboratoriya tekshirish ishlari va hokazolar amalga oshiriladi. Shuning uchun ham davlatimiz hududida epizootiya tarqalib ketmasligi borasida mol bosh sonining kamayib ketmasligida, sifatli va sog'lom chorva mahsulotlari etkazib berishda, hamda insoniyatni antropozoonoz kasalliklardan asrash borasida katta ahamiyatga egadir. Ushbuni hisobga olib, veterinariya uchastkalari, tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari, viloyat (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, tuman (shahar), viloyat va respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazlari asosan davlat byudjeti hisobiga quriladi. Fermer va boshqa xo'jaliklarda esa, veterinariya ob'ektlarining qurilishi va ularning jihozlanishida shu xo'jalik zimmasiga yuklatiladi.

### Veterinariya inshootlarining qurilishni rejalashtirish

Veterinariya muassasalarining qurilishi veterinariya ishining istiqbolli (perspektiv) rejasida ko'rsatilgan bo'lib, bir necha yilga mo'ljallanadi.

Tumanlarda tuman bosh veterinariya vrachi taklifiga binoan, shaharda esa shahar bosh veterinar vrachi taklifiga binoan tuman va

shaharda qurilish zarur bo‘lgan boshqa ob’ektlar qatorida veterinariya inshootatini ko‘rib chiqib, zarur bo‘lsa rejalashtiradi.

Veterinariya inshootlarining qurilishini rejalashtirishda tuman (shahar)ning qurilish ishlari bo‘yicha rejasiga kiritilishi lozim.

### **Veterinariya inshootlarining qurilishi uchun er maydoni ajratish tartibi**

Veterinariya inshootlarining qurilishi uchun er maydoni mahalliy hokimiyat tomonidan tuzilgan komissiya (arxitektor, sanepidstansiya, yong‘inga qarshi kurash tashkiloti, tuman bosh vetvrachi) ishtirokida aniqlanadi.

Buning uchun quyidagi talablarga rioya qilinish shart:

- Markaziy avtomobil yulidan kamida 500 metr uzoqlikda bo‘lishi;
- Suv o‘tadigan kanallardan 500-1000 metr uzoqlikda bo‘lishi;
- Qishloq yoki ko‘rinadigan aholi punktning shamolga qarshi tomonida bo‘lishi;
- Yer osti suvlarining chuqurroq joylashgan yer maydoni tanlanishi;
- Yongin bo‘lganda boshqa binolarga ta’sir qilmaydigan bo‘lishi va hokazolar.

### **Veterinariya inshootlari qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini tuzish**

Hokimiyatning qarori va er ajratilganligi hamda tanlanganligi haqida dalolatnama tayyorlangan-loyiha ishlari maxsus loyihalash tashkilotlari tomonidan buyurtmachining talabi bo‘yicha 1-2 qavatlari qilib bajariladi. Ko‘pincha 1 qavatida tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi, 2 qavatida esa tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazi joylashtirilishi mo‘ljallanadi. Agar tayyor loyiha bo‘lsa, tuman bosh veterinariya vrachi bu loyiha bilan tanishib ma’qullashi mumkin. Ma’qul bo‘lmasa o‘zining fikrlarini yozma ravishda bayon qilib, buyurtma beradi. Loyerha tayyor bo‘lgach, tuman qurilish bo‘limi muhandisi bilan birgalikda berilgan buyurtmaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligi tekshiriladi, lozim bo‘lsa tuzatadilar.

### **Veterinariya inshootlarining qurilishini nazorat qilish**

Qurilishning sifati ustidan nazorat qilish tuman yoki shahar bosh veterinariya vrachining hamda veterinariya organi qurilish

muhandisining zimmasiga yuklatiladi. Qurilish boshlanishidan toki qabul qilinguncha qadar ular javobgar shaxs hisoblanadilar.

Qurilish tugagandan keyin ayrim bino va inshootlar belgilangan tartibga rioya qilingan holda maxsus komissiya qabul qilgandan keyingina foydalanishga topshirilishi kerak. Komissiya qurilishning tugaganligi va sifati haqida yakun qiladi va uni foydalanishga topshirish uchun dalolatnomaga tuzadi. Komissiya tarkibiga yuqori veterinariya tashkilotining vakili tuman bosh veterinariya vrachi, mablag' bilan ta'minlovchi bank, yong'inga qarshi kurash bo'limi va qurilish tashkilotlarining vakillari kiradi.

Binodan foydalanish uchun javobgarlik topshirganda va qabul qilganda dalolatnomaga imzo qo'yilgandan keyin muassasa rahbariga yuklatiladi.

Binolarga doimo qarab turish, quruvchi mutaxassislar ishtirokisiz bo'ladigan mayda ta'mirlash muassasa mas'ul xodimlar tomonidan bajariladi. Foydalanish muddati va eskirishga qarab u to'liq yoki joriy ta'mirlanadi. Bunday ta'mirlash oldindan ko'zda tutiladi va kelgusi yil rejasiga qo'shiladi.

To'liq ta'mirlash uchun maxsus smeta (loyiha) tuziladi. Qaysiki unda taxminiy qilinadigan ishlarning ko'lami ko'zda tutiladi. Bunday talabnama va smetani veterinariya uchastkalari va veterinariya punktlarining mudirlari tuman bosh veterinariya vrachiga topshirdi. Keyin esa tumanning barcha veterinariya muassasalarining to'liq joriy ta'mirlash uchun umumiy smeta (loyiha) tuziladi va tegishli tartibda tuman hokimiyati tomonidan tasdiqlanadi.

### **Qurib bitkazilgan inshootlarni foydalanishga qabul qilish**

Buning uchun maxsus ishchi komissiya tuziladi. Uning tarkibida tuman bosh vetrachi, qurilish tashkiloti xodimi, tuman arxitektori, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi vakili, yong'inga qarshi kurash tashkiloti vakili ishtirokida qurilishning loyiha asosida qurilganini tekshirib, yakunida ishchi komissiyasining dalolatnomasini tuzadilar. Kamchilik bo'lsa, ko'rsatilib kim tomonidan, qachon tuzatilishi ta'kidlanadi, so'ngra esa davlat qabul komissiyasi tomonidan bino qabul qilinadi. Uning tarkibida tegishli vazirlik, qo'mita vakili, tuman yoki shahar bosh veterinariya vrachi, qurilish tashkiloti vakili, muhandis, sanitariya epidemiologiya stansiya xodimi ishtirok etib, ishchi komissiyasining dalolatnomasidagi kamchiliklar tuzatilganini tekshiriladi, aks holda quruvchilar tashkilotiga chora ko'riladi. Barcha

talablar bajarilgan bo'lsa, dalolatnoma tuzilib, ob'ekt qabul qilinadi va buyurtmachining ixtiyoriga topshiriladi.

**Nazorat savollari:**

1. Veterinariya muassasalari qurilishini kim tashkillashtiradi?
2. Veterinariya muassasalari qurilishini kim rejalashtiradi?
3. Veterinariya muassasalari uchun er maydoni qaysi tartibda ajratiladi?
4. Veterinariya muassasalari uchun er maydoni ajratilishida ishchi guruh tarkibida qaysi soha xodimlari ishtirot etadi?
5. Veterinariya muassasalari uchun ajratilgan er maydoni markaziy avtomobil yo'llariidan qancha uzoqlikda bo'lishi kerak?
6. Veterinariya muassasalari uchun ajratilgan er maydoni suv o'tadigan kanallardan qancha uzoqlikda bo'lishi kerak?
7. Veterinariya muassasalari uchun ajratilgan er maydoni er osti suvlarining chuqurlik darajasi qanday bo'lishi kerak?
8. Veterinariya muassasalari qurilishi loyiha-smeta hujjatlari kim tomonidan tuziladi?
9. Qurib bitkazilgan inshootlarni foydalanishga topshirilishida nimlarga e'tibor qaratiladi?
10. Qurib bitkazilgan inshootlarni foydalanish topshirilishida kimgardan iborat ishchi guruh tuziladi?

## **IV-BOB. VETERINARIYA TADBIRLARINI IQTISODI VA MOLIYAVIY-MODDIY TA'MINOTI**

### **VETERINARIYA TADBIRLARINI IQTISODI**

#### **Veterinariya tadbirlarining iqtisodini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari**

Iqtisodiy islohotlar davrida hozirgi zamон veterinariyasining asosiy vazifasi chorvachilikka xizmat ko'rsatishning ilg'or usullari va vositalarini qo'llab chorvachilik tarmog'ining rentabelligini oshirib borishdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda har bir veterinarianiya mutaxassisи, veterinarianiya muassasalari va tashkilotlari bajargan ishlarini har tomonlama iqtisodiy tahlil qilib borilishi kerak.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda hayvonlarning kasallanishini va o'limini kamaytirishga, ularning mahsuldarligini oshirishga, kasallik muddatlarini qisqartirishga, yetishtiriladigan chorva mahsulotlari va xom-ashyolarining sifatligini ta'minlashga, sog'lom podalar yetishtirishga va boshqalarga qaratilgan imkoniyatlari o'rganiladi.

#### **Veterinariya tadbirlarini iqtisodiy tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar sistemasi**

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishda qator ko'rsatkichlar sistemasi ishlab chiqilgan. Bular quydagilardan iborat:

1. Haqiqiy va oldi olingan zarar aniqlanadi:  
Hz-haqiqiy zarar, Oz-oldi olingan zarar;
2. Veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun sarflangan xarajatlar - Vx;
3. Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlanadi - Is;
4. Veterinariya mutaxassislarining ish unumdarligi aniqlanadi - Iu;
5. Veterinariyaga xarajat qilingan kapital mablag'larning qoplanishi aniqlanadi - Kmq;
6. Veterinariya tadbirlari samaradorligining summar indeksi - Si;
7. Sarflangan 1 so'mga samaradorlikni aniqlash - Ss.

#### **Haqiqiy zarar va uni aniqlash usullari**

Chorva mollari va parrandalarning kasallanishi oqibatida yo'qotilgan mahsulot, xom ashyo yoki tirik hayvonlarning qiymatini so'mdagi ifodasiga haqiqiy zarar (iqtisodiy zarar) deyiladi.

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda haqiqiy zarar - muhim ko'rsatkich hisoblanib, uning ko'p uchraydigan 7 ta turi mavjud bo'lib va ular quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mollarning harom o'lishi va majburiy so'yilishi oqibatidagi haqiqiy zarar - Z1:

$$Z1 = M \times O \times N - Sr;$$

M - harom o'lgan va majburiy so'yilgan mollar soni;

O - hayvonlarning tirik og'irligi, kg;

N - mahsulotning narxi, so'm;

Sr - realizatsiya qilingan mahsulot va xom ashyo summasi, so'm.

Misol: O'tkir timpaniya bilan 10 bosh qoramol kasallangan, o'rtacha tirik vazni - 300 kg, 2 boshi harom o'lgan, 8 boshi majburiy so'yilgan, 1 kg tirik vazni o'rtacha (bozor hisobida) - 40000 so'm, 8 boshning (8 x 140) 1120 kg sifati pasaygan go'shti (1120 x 35000) 39200000 so'mga, 2 boshning jasadi go'sht-suyak uniga aylantirilib - 2500000 so'mga realizatsiya qilingan.

$$Z1 = M \times O \times N - Cp = 10 \times 300 \times 40000 - (39200000 + 2500000)$$
$$= 120000000 - 41700000 = 78300000 \text{ so'm}.$$

2. Mollarning mahsuldarligi pasayishi oqibatidagi iqtisodiy zarar - Z2:

$$Z2 = Km \times Mk \times N;$$

Km - turli kasalliklar davrida yo'qotilgan mahsulotlar koeffitsienti;

Mk - kasallangan mollarning bosh soni;

N - mahsulotning narxi.

Misol: Mastit bilan 8 bosh sog'in sigir kasallangan, ularning mahsuldarligi o'rtacha bir kunda 10 litr sut bo'lib, 5 kunlik kasallanish davrida 4 litrdan kam sut bergen (5x4), mahsulot narxi - 5500 so'm.

$$Z2 = Km \times Mk \times N = 20 \times 8 \times 5500 = 880000 \text{ so'm}.$$

3. Mollarning nasldorlik qiymatini pasayishi oqibatidagi iqtisodiy zarar - Z3:

$$Z3 = M \times (Nz - Nz);$$

M - zotdorligi yo'qolgan mollar soni, bosh;

Nz - zotdor mollar narxi;

Nzy - zotdorligi yo'qolgan mollar narxi.

Misol: Brutsellyoz bilan 8 bosh naslli g'unojin kasallangan, ularning o'rtacha tirik vazni 300 kg bo'lib, sog'lom vaqtida 1 kg tirik vazni 40000 so'mdan sotilgan, kasal bo'lgach esa 1 kg tirik vazni 15000 so'mdan baholanib, majburan so'yishga jo'natildi.

$Z3 = 8 \times (300 \times 40000 - 300 \times 15000) = 8 \times 7500000 = 60000000$  so'm.

4. Mahsulot sifatining pasayishi oqibatidagi iqtisodiy zarar-Z4:

$Z4 = Sm \times (Ns - Nk);$

Sm - sifati pasaygan mahsulotlar miqdori, kg, ts;

Ns - sog' mollardan olingan mahsulotning narxi, so'm;

Nk - kasal mollardan olingan mahsulotning narxi, so'm.

Misol: Teylerioz bilan 5 bosh qoramol kasallangan, 3 boshi sog'aydi, 2 boshi majburan so'yildi va o'rtacha 130 kg dan sifati pasaygan go'sht olinib, 29500 so'mdan sotildi.

$Z4 = Sm \times (Ns - Nk) = 2 \times 130 \times (38500 - 29500) = 260 \times 9000 = 2340000$  so'm.

5. Ona mollardan bola olishning kamyishii oqibatidagi iqtisodiy zarar - Z5:

$Z5 = (Kt \times Tom - Tb) \times N;$

Kt - reja bo'yicha tug'ilish koefitsienti;

Tom - tug'adigan ona mollar soni;

Tb - tug'ilgan bolasi - buzoq, qo'zi, cho'chqa bolasining bosh soni;

N - tug'ilgan yosh mollarning narxi.

*Ilova:* Sut yo'nalishidagi sigirning buzog'i - 3,61 st sut narxiga teng;

Go'sht yo'nalishdagi sigirning buzog'i - 0,88 st tirik vazn narxiga teng;

Junbop qo'yning qo'zisini narxi - 0,84 kg jun bahosiga teng;

Go'shtbop qo'yning qo'zisini narxi - 8,41 kg tirik vazn bahosiga teng;

Ona cho'chqaning bir martada tug'ilgan bolalari - 1,67 kg tirik vaznga teng.

Misol: Pushtsizlik natijasida 100 bosh sigirdan 14 bosh buzoq kam olindi, tug'ilish koefitsienti - 1 ga teng, buzoqning narxi - 3,61 sentner sut bahosiga teng.

$Z5 = (Kt \times Tom - Tb) \times N = (1 \times 100 - 86) \times (361 \times 5500) = 14 \times 902500 = 27797000$  so'm.

6. Ishchi hayvonlarni ishsiz turib qolishi oqibatidagi iqtisodiy zarar - Z6:

$Z6 = Xs \times Ki \times Tik;$

Xs - kasallangan ishchi hayvonning soni;

Ki - ishsiz kunlar soni;

Tik - ishsiz kunning tannarxi.

Misol: Institutning o'quv xo'jaligida 2 bosh ishchi ot aravaga qo'shilganda oyoq paylari cho'zilib, 6 kun ishlatilmadi va davolandi. 1 kunlik ishi 100000 so'm narxlanadi.

$$Z_6 = X_s \times K_i \times T_k = 2 \times 6 \times 100000 = 1200000.$$

7. Zararlangan mol go'shti, organlari va xom ashynosini brak qilish oqibatidagi iqtisodiy zarar -  $Z_7$ :

$$Z_7 = M_b \times N_u \times S_{ki};$$

$M_b$  - brak mahsulotning miqdori;

$N_u$  - o'rtacha narx;

$S_{ki}$  - qayta ishlab sotilgan mahsulot so'mmasi.

Misol: Sistitserkoz tufayli 30 kg go'sht brak qilinib, qayta ishlandi va 16 kg past navli kolbasa tayyorlanib 22850 so'mdan sotildi, 1 kg go'shtning o'rtacha bahosi - 65000 so'm.

$$37 = M_b \times N_u - S_{ki} = 30 \times 65000 - (16 \times 22850) = 1950000 - 365600 = 1584400 \text{ so'm}.$$

Kasallangan hayvonlarda ushbu zararlarning qaysilari xos bo'lsa, o'shalar hisoblanadi va so'ngida nechta zarar turi aniqlangan bo'lsa, ular o'zaro qo'shib, umumiy zarar topiladi. Hisoblashda narxlarning o'zgarishi inobatga olinishi zarur.

### **Oldi olingan zararni (Oz) aniqlash usuli**

Bu ko'rsatkich odatda veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini ifodalab, turli kasalliklarni barvaqt oldini olib, profilaktik muolajalar o'tkazish evaziga bartarf etilgan ehtimoldagi (kutilgan) zarardir.

Oldi olingan zararni aniqlash uchun me'yoriy hujjatlarda keltirilgan quyidagi koefitsientlardan foydalaniladi.

1. Kasallanish koefitsienti –  $K_k$ :

Kasallangan mollar sonini kasallikka moyil bo'lgan barcha mollar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

2. O'lim koefitsienti –  $K_o$ :

Kasallik oqibatida o'Igan mollar sonini jami kasal mollar bosh soniga nisbatli bilan aniqlanadi.

3. Zarar koefitsienti –  $K_z$ :

Kasallik oqibatidagi jami zarar miqdorini barcha kasal mollarga nisbatiga tengdir.

$Oz = M_s \times K_{kb} \times K_z - X_z;$

$M_s$  - k asallikka moyil mollar soni;

$K_{kb}$  - Kasal bo'lish ehtimoli bor mollar koefitsienti;

Kz - 1 bosh kasal molga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha koeffitsient;  
Xz - haqiqiy iqtisodiy zarar, so‘m.

### **Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi va uni hisoblash usullari**

Veterinariya iqtisodiyotida asosiy ko‘rsatkichlardan biri veterinariya tadbirlari evaziga erishilgan iqtisodiy samaradorlik hisoblanib, uning quyidagi turlari farqlanadi:

- Taxmin etilgan iqtisodiy samaradorlik;
- Kutilgan iqtisodiy samaradorlik;
- Rejalashtirilgan iqtisodiy samaradorlik;
- Haqiqiy iqtisodiy samaradorlik;

Iqtisodiy samaradorlik (Is) – bu malakali veterinariya xizmati ko‘rsatish evaziga erishilgan mahsuldarlikning qiymati bilan ifodalanib, mavjud ko‘rsatkichlarga qarab, turli formulalar yordamida aniqlanadi. Profilaktik tadbirlar o‘tkazilganda iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun dastlab oldi olingan zarar (Oz)ni hisoblash zarur:

Oz = Ms x Kkb x Kz - Xz;

Ushbu ma‘lumotlar bo‘lganda iqtisodiy samaradorlik Oz-dan Vx ni ayirish natijasiga teng:

Is = Oz - Vx;

Davolash muolajalari o‘tkazilganda esa quyidagi formuladan foydalaniladi:

Oz = Mds x N - Sr;

Mds - davolangan mollar soni;

N - mollarning o‘rtacha narxi, so‘m;

Sr - majburiy so‘yilgan molning realizatsiya so‘mmasi;

Bu holatda ham Is = Oz - Vx;

Qayd etilgan usullar bo‘yicha umumiyl iqtisodiy samaradorlik aniqlanadi.

Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini har 1 so‘m veterinariya xarajatiga necha so‘m to‘g‘ri kelishini hisoblash uchun esa 1 so‘mga samaradorlik - Ss ko‘rsatkichidan foydalaniladi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

Is

$$Ss = \frac{Is}{Vx};$$

## Veterinariya mutaxassislarining ish unumdorligi

Veterinariya muassasasining, veterinariya mutaxassislarining ish fuoliyati natijalariga baho berishda ularning mehnatining unumdorligini hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi. Veterinariya mutaxassislarining ish unumdorligi 3 ta ko'rsatgichga qarab aniqlanadi va so'm hisobida mahsulotlar miqdori bilan ifodalanadi. Ish unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

1. Bir ish vaqtি birligida (ish kuni, soati) bajarilgan ish hajmi bilan.

Ih 140 bosh

$$Iu = \frac{Ih}{Ik} = \frac{140}{7} = 20 \text{ bosh}$$

Ik 7 soat

2. Bir ish hajmini bajarishga ketgan vaqt miqdori bilan belgilanadi:

Iv 420 minut

$$Iu = \frac{Iv}{Ih} = \frac{420}{140} = 3 \text{ minut (qon olish uchun)}$$

Ih 140 bosh

## Nazorat savollari:

1. Veterinariya tadbirlarining iqtisodini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari nimalardan ibora?
2. Veterinariya tadbirlariga sarflangan xarajatlar va ularni hisoblash usullarini aytинг?
3. Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash usullarini aytинг?
4. Haqiqiy va oldi olingan zarar deb nimaga aytildi?
5. Haqiqiy zararning turlari va ularni aniqlash ko'rsatkichlari?
6. Veterinariya xarajatlarini hisoblash usulalrini aytинг?
7. Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi summar indeksi qanday aniqlanadi?
8. Epizootiyaga qarshi tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
9. Gelmintozlarga qarshi tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

## VETERINARIYA TADBIRLARINI MOLIYALASHTIRISH

### **Veterinariya tadbirlarini moliyaviy ta'minotining ahamiyati**

Veterinariya tadbirlarini rejalar asosida, o'z vaqtida, to'la hajmda kerakli vositalar bilan etarli ta'minlagan holda yuqori darajada o'tkazilishi uchun kerakli miqdorda mablag'lar bilan ta'minlanganligi muhim ahamiyatga ega. Veterinariya muassasalari, tashkilotlari o'z ish faoliyatlarini keraklicha tashkil qilishlari uchun ularning xodimlari ish haqi bilan, transport bilan zaruriy vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bular o'z vaqtida tegishli mablag'lar ajratilishini talab qiladi.

### **Veterinariya tadbirlarini moliyaviy ta'minotining manbalari**

Davlat veterinariya xizmati O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'larini va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ta'minlanadi.

Davlat veterinariya xizmati:

Respublika va mahalliy byudjet mablag'lar;

Davlatning mollarni sug'urta qilish mablag'laridan ajratmalar. Pullik xizmatlar ko'rsatganlik uchun veterinariya korxonalari, muassasalari va tashkilotlari oladigan mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

Ushbu qonun talablarini buzganlik uchun undiriladigan ma'muriy jarima pullari viloyatlar va Toshkent shahrining epizootik fondlariga tushadi.

Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yildigan hayvonlar yuqumli kasalliklarining oldini olish va bartaraf etish tadbirlari byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

Respublikamiz xalq xo'jaligida veterinariya xizmatining yetakchiligini Davlat veterinariya tashkilotlari tashkil qiladi. Shuning uchun ularning asosiy xarajatlarini davlat o'z zimmasiga olib, davlat va mahalliy byudjetlardan kerakli mablag'lar ajratiladi. Davlat byudjeti hisobidan saqlanadigan veterinariya xizmatini - Davlat veterinariya xizmati va Davlat veterinariya tarmog'i deyiladi.

1. Davlat byudjetidan tashqari veterinariya xizmatiga yana quyidagi manbalardan mablag'lar ajratiladi.

2. Qishloq xo'jalik hayvonlarini davlat sug'urtasi to'lovlaridan ajratilgan mablag'lar.

3. Chorvachilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar, hissadorlik jamiyatlari, yordamchi xo'jaliklarning o'zлari ajratadigan mablag'lar ishlab chiqarish moliya rejasida 1 ta band veterinariya xarajati ko'rsatiladi.

4. Veterinariya muassasalari va tashkilotlarining maxsus mablag'lari - zoovetservis punktlarining pullik xizmat ko'rsatishidan tushgan maxsus mablag'lar. Chet ellarda 52-98% gacha xususiy veterinariya va pullik xizmat. Bizda ayni paytda uning salmog'i 50% dan ortib bormoqda: pullik zoovetservis punktlari.

5. Xo'jalik hisobidagi veterinariya tashkilotlarining o'z mablag'lari.

6. Veterinariya qonunchiligi buzilgan hollarda davlat veterinariya inspektorlari tomonidan undiriladigan jarima pullari.

### **Veterinariya xizmatiga ajratilgan mablag'larni sarflash maqsadlari**

Veterinaiya xizmatiga ajratilgan mablag'lar quyidagi maqsadlarga sarflanadi:

- Davlat veterinariya tarmog'i muassasa va tashkilotlarini saqlash uchun;
- Veterinariya tashkilotlarida xizmat qiluvchi mutaxassislarining ish haqida;
- Veterinariya xizmatiga zaruriy dorilar, bog'lov vositalari, asbob-uskunalar, har xil qurilmalar maxsus va sanitар kiyimlar, xo'jalik asboblari, jihozlar, ozuqa, yoqilg'i va hokazolarni sotib olish uchun;
- Epizootiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish uchun;
- Veterinariya-sanitariya ob'ektlarini qurish va ta'mirlash uchun;
- Veterinaiyaga kerakli transport vositalari, maxsus mashinalar sotib olish uchun;
- Veterinariya fanini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlari va kadrlar tayyorlash uchun.

### **Byudjet mablag'larini sarflash tartiblari**

Byudjet mablag'lari asosan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi ixtiyoriga kelib tushadi. Uni sarflash uchun maxsus moliya ta'minoti rejasida tuziladi. Bu rejaning tuzilishicha tuman va shaharlar taqdim etgan epizootiyalarga qarshi profilaktik

tadbirlar rejasi asos qilib olinadi. Byudjet mablag'lar hisobiga yuqumli kasalliklar bilan kurash tadbirlari, diagnostik tekshirishlar, gelmintoz va boshqa tadbirlarga ishlashlar, avtotransport saqlash, yuqumli kasalliklarga epizootiyaga qarshi kurash tadbirlari o'tkaziladi.

Respublika byudjetidan bevosita respublika bo'ysunuvidagi veterinariya muassasalari, hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash bo'limlar va boshqa tashkilotlarni saqlashga ajratiladi.

Viloyat byudjetidan viloyatga bo'ysungan veterinariya muassasalari va har xil kasalliklar bilan kurashish otryadlarini saqlash uchun ajratiladi.

Shahar byudjetidan shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limini, veterinariya uchastkalarini, bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarini saqlash uchun ajratiladi.

Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorat boshqarmasi, transport veterinariya-sanitariya uchastkalari, chegara veterinariya nazorati punktlari ham respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan saqlanadi.

Respublika byudjeti, moliyaviy ta'minlanadigan va viloyat byudjetidan ham mablag' ajratiladigan yuqumli va infeksiyon kasalliklarga o'tkaziladigan tadbirlar:

1. Epizootiyalarga qarshi kurashish uchun biopreparatlar, dezinfektion vositalar, kerakli preparatlar va asboblarni xarid qilish hamda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan kurashish uchun;

2. Har xil Vazirliklar, Qo'mitalarga bo'ysungan xo'jaliklarda epizootiyalarga qarshi tadbirlarga sarflangan xarajatlar qoplanadi. Byudjet hisobidan qoplanadigan epizootiyalarga qarshi tadbirlar ro'yxati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan taqdim etilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 25 oktyabrdagi "Davlat veterinariya xizmati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 361-sod qarori bilan profilaktika, tashxis qo'yish va tugatish tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari ro'yxati tasdiqlangan.

Profilaktika, tashxis qo'yish va tugatish tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklari ro'yxati

T/r	Kasalliklar ro'yxati
<b>1. Bir necha hayvonot turi uchun umumiyo bo'lgan kasalliklar</b>	
1.	Oqsil
2.	Brutsellyoz
3.	Aueski
4.	Leptospiroz
5.	Kuydirgi
6.	Quturish
7.	Listerioz
8.	Sil
9.	Ku-bezgagi
<b>2. Qoramollarning kasalliklari</b>	
10.	O'lat
11.	Emfizematoz karbunkul (qorason)
<b>3. Qo'y va echkilarning kasalliklari</b>	
12.	Chechak
13.	Bradzot enterotoksemiya
14.	O'lat
15.	Skrepi
<b>4. Cho'chqalarining kasalliklari</b>	
16.	Afrika o'lati
<b>5. Ot va tuyalarining kasalliklari</b>	
17.	Manqa
18.	Yuqumli anemiya (INAN)
19.	Gripp (inflyuensa)
20.	Tuyalar o'lati
21.	Otlarning Afrika o'lati
<b>6. Parrandalarning kasalliklari</b>	
22.	Nyukasl kasalligi
23.	Chechak
24.	Yuqumli laringotraxeit
25.	Ormitoz (psitakoz)
26.	Yuqori patogenli gripp
27.	Mareka
<b>7. Mo'yinali hayvonlar, quyonlar va mayda uy hayvonlarining kasalliklari</b>	
28.	Quyonlarning gemorragik kasalligi
29.	Sestodozlar
30.	Quyonlar miksomatozi
31.	Quyonlar o'lati
<b>8. O'zbekiston Respublikasi hududida ilgari ro'yxatga olinmagan barcha turdag'i hayvonlarning xavfli kasalliklari</b>	

## **Chorvachilik bilan shug‘ullanadigan xo‘jaliklarni veterinariya xizmati ehtiyojlari uchun ajratgan mablag‘lari**

Bu mablag‘lar hukumat tomonidan tasdiqlangan me’yorlar asosida ajratiladi va quyidagi maqsadlarga sarflanadi:

- Chorvachilik ob‘ektlarida veterinariya-sanitariya tadbirlari o‘tkazish;

- Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va boshqalar;

- Dorilar, antibiotiklar, biostimulyatorlar;

- Barcha turdag'i hayvonlarni davolash;

- Veterinariya ob‘ektlarini qurish;

- Veterinariya bilimlarini targ‘ib qilish.

Veterinariya muassasalarining maxsus mablag‘lari. Tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda zaruriy hujjatlar asosida ichki xarajatlarga foydalaniladi.

Xo‘jalik hisobidagi veterinariya tashkilotlarining mablag‘lari, ularning nizomida ta’kidlangan qoidalar bo‘yicha sarflanadi.

Veterinariya muassasalarining xarajatlar smetasi. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi o‘ziga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish uchun mahalliy moliya organlari bilan kelishilgan holda xarajat smetasini tuzadi va tuman hokimiga tasdiqlatadi. Mavjud mablag‘larning smeta asosida sarflash veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i va bosh hisobchiga yuklatiladi. Ularning ustidan esa tuman moliya bo‘limi nazorat o‘tkazishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya tadbirlarini moliyaviy ta’minoti qanday va u kim tomonidan amalga oshiriladi?
2. Veterinariya tadbirlarining ta’minot manbalarini ko‘rsating?
3. Veterinariya xizmatiga byudjet mablag‘lari qanday ajratiladi?
4. Veterinariya xizmati qaysi mablag‘lar bilan moliyalashtiriladi?
5. Veterinariya xizmatiga ajratilgan mablag‘lar qanday sarflanadi?

## VETERINARIYA TADBIRLARINING MODDIY TA'MINOTI

### **Veterinariya tadbirlarining moddiy ta'minotini tashkil qilish**

Veterinariya tadbirlarining moddiy ta'minoti rejalashtirilgan barcha veterinariya tadbirlarini dori moddalar, biologik preparatlar, dezinfektion vositalar, laboratoriya anjomlari va boshqa turli asbob-uskunalar bilan o'z vaqtida markazlashgan holda ta'minlashdan iborat. Bu ta'minotni bajarish uchun "O'zzoovetta'minotxizmat" davlat unitar korxonasi mavjud. Har bir viloyat va tumanlarda veterinariya ta'minoti bo'yicha mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi.

Veterinariya tadbirlarining yillik rejasi va talabnomalar asosida ta'minot tashkil etiladi. Mayjud qaror bo'yicha veterinariya ta'minoti sohasida firmalar faoliyat ko'rsatishga ruxsat etilgan. Ayni paytda shahar va tumanlarda xususiy veterinariya dorixonalari faoliyat ko'rsatishmoqda.

### **Veterinariya ta'minotining ob'ektlari**

Ta'minot ob'ektlariga barcha veterinariya ashyolari-tovarlar kiradi:

1. Biologik preparatlar – vaksina, zardob, diagnostikum va hokazo.
2. Dori-darmonlar.
3. Dezinfektion vositalar.
4. Laboratoriya asbob-uskuna va reaktivlar.
5. Fiksatsiya-diagnostik asboblar.
6. Bog'lov vositalari.
7. Fizioterapevtik asboblar.
8. Dezinfektion asboblar.
9. Veterinariya tashviqoti vositalari.
10. Veterinariya hisob-kitob va hisobot varaqalari.
11. O'lchov asboblari va boshqalar.

Hozirgi davrda veterinariya moddiy ta'minotini yaxshilash maqsadida turli chet el firmalari va zavodlari bilan shartnomalar tuzilib hamkorlik qilinmoqda.

### **Veterinariya ta'minotni amalga oshirish usullari**

Veterinariya xizmatini dori-darmon va boshqa veterinariya tovarlari bilan o'z vaqtida va etarli darajada ta'minlash maxsus talabnomalar asosida (zayavka) amalga oshiriladi.

Bunday talabnomalar pastdan yuqoriga qarab, ya'ni shirkat, fermer xo'jaliklar, veterinariya uchastkalardan tushgan talabnomalarni tuman miqyosida umumlashtirib, viloyat zooveterinariya ta'minoti

birlashmalariga beriladi. Bu erda esa barcha tumanlardan tushgan talabnomalar umumlashtirilib, “O’zzoovetta’mnotxizmat” davlat unitar korxonasiiga yuboriladi. O’zbekistonda ta’minlashi mumkin bo’lgan ob’ektlar bo'yicha talabnomalar olib qolinadi, ushbu talabnomalar bilan asosan “O’zzoovetta’mnotxizmat” davlat unitar korxonasi shug’ullanadi.

Talabnomalar 5 guruhga bo’linib, uning bajarilishi nazorat qilinadi:

1-guruh – dorilar, biopreparatlar, dez.vositalar;

2-guruh – ximiyaviy reaktivlari, ximiyaviy preparatlar;

3-guruh – maxsus apparatlar, laboratoriya va apteka idishlari, termometrlar;

4-guruh – veterinariya asboblari va uskunalar;

5-guruh – veterinariya va agroximiya laboratoriya asbob-uskunalar, optika ashyolari.

### **Veterinariya tovarlarini hisobga olish va saqlash**

Olingen dori-darmonlar, biopreparatlar, dezinfeksiyalovchi vositalar va boshqa ashyolar belgilangan tartibda saqlanishi kerak. Dori-darmonlar alohida, guruhlar bo'yicha quruq, salqin, qulflanadigan binolarda, shkaflarda saqlanadi, bunday joyga begona kishilarning kirishi man qilinadi. Suyuq, oqib ketadigan moddalar va mazlarni birga saqlash mumkin emas. Buning uchun alohida shkaflar ajratilishi kerak. Veterinariya xizmatida qo'llaniladigan zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dorivor vositalarni saqlash, hisobga olish va tarqatish tartibi maxsus qoidalar bo'yicha belgilanadi. Veterinariya bo'limlari, hayvonlar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'limlari, veterinariya uchastkalari, zoovetpuktleri, veterinariya laboratoriylariga “A” ro'yxitga qarashli sof holdagi dorivor vositalarni saqlash va unga ega bo'lishga (qulflanadigan temir shkaflar bo'lsa) ruxsat beriladi.

Boshqa barcha veterinariya muassasalariga (veterinariya uchastkalari va punktlarini qo'shgan holda), tashkilotlar, korxonalar va xo'jaliklarga veterinariya maqsadidagi zaharli vositalarni faqat tayyor birikma holida saqlashga ruxsat beriladi. “B” ro'yxitga qarashli kuchli ta'sir ko'rsatuvchi dorivor vositalarni barcha veterinariya muassasalari, shuningdek, xo'jaliklar, tashilotlar va muassasalarning bunga sharoiti bor bo'lgan veterinariya dorixonalarida saqlashga ruxsat beriladi. Zaharli dorivor vositalarga ega bo'lish va uni saqlash huquqiga ega

bo'lgan veterinariya muassasalari bularni faqat "O'zzoovetta'minotizmat" davlat unitar korxonasi va uning filiallaridan olishlari kerak. Zaharli va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi dorivor vositalarni faqat maxsus seyf va shkaflar bilan jihozlangan binolarda saqlashga ruxsat beriladi. Zaharli va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi dorivor vositalar ularning shakliga qarab shisha, chinni, plastmasli yoki polietilenli idishlarda, faqat retsept asosida beriladi. Qog'ozlarda yoki sellofanlarda bunday dorivor moddalarni berish man etiladi. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dorivor vositalarni belgilangan tartibda va berilishi mumkin bo'lgan miqdorda foydalanishda ularni yozib berish va undan qo'llanishda asosiy javobgarlikni veterinariya vrachi yoki veterinariya feldsheri olib boradi. Zaharli dorivor vositalar bilan band bo'lgan kishilar shaxsiy gigiyena qoidasiga to'liq amal qilishi shart.

Bioreparatlar uchun alohida ertulaga ega bo'lgan bino bo'lishi kerak, bu erda ular yashiklarda, shkaflarda yoki tokchalarda saqlanadi. Har bir yashikda yoki shkafda saqlanayotgan biopreparatning seriyasi va yarog'lilik muddati ko'rsatiladi.

Veterinariya ashyolarini hisobga olish jurnali va kartochka shakli ilova qilinadi.

**Zaharli dorivor moddalar alohida daftarda quyidagi shakl bo'yicha hisobga olinadi**

Olingan sana	Kirim			Chiqim		Qoldiq	Imzo
	Qaerdan	Miqdori	Sana	Kasallik tarixi, 1-vet jurnali bo'yicha ro'yxat raqami	Miqdori		

**Veterinariya ta'minoti talabnomalarining shakli**

Veterinariya ta'minotini amalga oshirish uchun tegishli shakldagi talabnomalar – dorilar, dorivor o'simlilar, biopreparatlar, dezinfeksiya vositalariga; ximiavyiy reaktivlar va preparatlarga; veterinariya anjomlari va asbob-uskunalariga; asboblar, apparatlar, laboratoriya va apteka idishlari va termometrlarga; veterinariya, agroximiya va laboratoriya asbob-uskunalariga hamda dorixona ashyolariga beriladi.

# T A L A B N O M A

I-guruh. Dorilar, biopreparatlar, dezinfeksiya vositalariga  
 “\_\_\_” 20 \_\_\_ yilga \_\_\_\_\_  
 talabnomaga bergan tashkilot, xo'jalik nomi \_\_\_\_\_

so'mga

## R E K V I Z I T L A R

1. Buyurtmachi nomi \_\_\_\_\_

Manzili \_\_\_\_\_

2. Yukni qabul qilib oluvchi nomi \_\_\_\_\_

Manzili \_\_\_\_\_

3. Xarid qiluvchi nomi \_\_\_\_\_

Manzili \_\_\_\_\_

Tuman va davlat bankida joriy hisobi № \_\_\_\_\_

Korxona rahbari \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.O.

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_ F.I.O.

“\_\_\_” 20 \_\_\_ yil

№	Ashyolarning nomi	Ulgurji bahosi		Yillik	Ehtiyoj	Jumladan kvartal bo'yicha ehtiyoj				Illova
		so'm	tiyin			I	II	III	IV	

xo'jalik nomi \_\_\_\_\_ bosh vetvrach \_\_\_\_\_ imzo \_\_\_\_\_  
 F.I.O.

### Dorilar son - hisobi bo'yicha kitob shakli

Material nomi \_\_\_\_\_ nomenklatura № \_\_\_\_\_  
 O'Ichov birligi \_\_\_\_\_ bahosi \_\_\_\_\_

Kuni	Hujjat		Kimdan keldi yoki kimga berildi	Miqdori yoki og'irligi		
	Nomi	Raqami		Kirim	Chiqim	Qoldiq

**Materiallarning son - so‘mma hisobi kartochkasi**

Muassasa \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_

Dori (biopreparat) nomi \_\_\_\_\_ schet № \_\_\_\_\_

O‘lchov birligi \_\_\_\_\_ preyskurant bahosi \_\_\_\_\_ miqdor

Yozuv kuni	Kimdan keldi, kimga berildi (hujjatlar, kuni va №)	Kirim	Chiqim	Qoldiq

**Nazorat savollari:**

1. Veterinariya ta’mnotinining amalga oshirishning ahamiyati?
2. Veterinariya ta’mnotinining obe’ktlariga nimalardan iborat?
3. Veterinariya ta’mnotinni amalga oshirish usullari?
4. Veterinariya ta’mnotinini amalga oshiruvchi tashkilot va muassasalar?
5. Veterinariya ta’mnoti talabnomalarining nechta shakli mavjud?
6. Veterinariya talabnomalari kim tomonidan beriladi?
7. Talabnomalar necha guruhg‘a bo‘linadi va ular qaysilar?
8. Veterinariya tovarlari va asbob uskunalarini olib kelish bilan kim shug‘ullanadi.
9. Veterinariya dori vositalarini saqlash tartibi qanday?
10. Veterinariya dori vositalarini ro‘yxatga olish hisobdan chiqarish tartibi?
11. Veterinariya preparatlarining dizenfeksiyalovchi moddalarini, jihozlarini hisobi, ularni saqlash va xarajat qilish tartibi?

## V-BOB. VETERINARIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH

### TUMANLARDA VETERINARIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH

#### Tuman veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi

Tumanlar veterinariya xizmatini tashkil qiladigan hududlarning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u joylarda asosan qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, parrandalar, baliqlar, asalarilar va boshqa hayvonlar parvarishlanib, ulardan qator chorvachilik mahsulotlari olinadi va ishlab chiqariladi.

Veterinariya sohasida bajariladigan profilaktik, davolash, veterinar-sanitar va epizootiyaga qarshi kurash tadbirlarining o'ndan to'qqiz qismi ya'ni 90 foizi tumanlarda amalga oshiriladi.

Tumanlarda veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining tashkiliy tuzilmasi: bo'lim boshlig'i, Veterinariya faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat nazorati bo'yicha mutaxassis, Hayvonlar sog'lig'ini muhofaza qilish, tashxis ishlari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha mutaxassis, Chorvachilik bo'yicha mutaxassis, Moliya-iqtisod, xo'jalik faoliyati bo'yicha mutaxassis, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha mutaxassis, Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlaridan tashkil topgan.

#### Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining faoliyati

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi – tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, veterinariya uchastkalari va bozorlardagi veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalardan tashkil topgan.

Davlat veterinariya muassasasi tuman miqyosida veterinariya xizmatini tashkil qiladi va amalga oshiradi.

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limidagi mutaxassislarning soni tumandagi hayvonlar bosh soniga, joylashish o'mi va hududiy kengligiga bog'liq holda belgilanadi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i bir paytda tuman bosh veterinariya inspektorini ham hisoblanadi.

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi mutaxassislari quyidagi tadbirlarni rejalashtiradi, tashkilashtiradi va kasalliklarni oldini olish hamda yo'qotishni amalga oshiradi. Shuningdek, hayvonlarni maqbul sharoitlarda asrash, oziqlantirish,

davolash, emlash, klinik va laborator diagnostik tekshiruvlar o'tkazishda ishtirot etadi.

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tumanning barcha hududi bo'yicha nazorat o'tkazib, uning mansabdon shaxslari chorvachilik ob'ektlaridagi ishlab chiqarish jarayonlaridan kunning istalgan paytda xabarlashishlari mumkin. Jumladan, bozorlar qoshidagi veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalari ham tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga bo'ysunadi va uning tasarrufida hisoblanadi.

### **Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining joylashishi va jihozlanishi**

Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tuman markazida joylashadi va o'z binosiga ega bo'ladi. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi asbob-uskunalar, apparatura, jihozlar va transport vositalari bilan ta'minlanishi zarur. "Veterinariya ambulatoriya", "Veterinariya tez yordami", "Yuk avtomashinasи", "Dezinfektion qurilma (DUK)" larga ega bo'ladi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi o'zining maxsus hisob raqami, shtampi va dumaloq gerbli muhriga ega.

### **Tumanda veterinariya ishini boshqarish**

O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bo'yicha tuman veterinariya xizmatiga tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi rahbarlik va nazorat qiladi. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshliqlari mazkur tuman hokimi bilan kelishilgan holda viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan tayinlanadi. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i tumandagi barcha veterinariya xizmatlarini tashkillashtiradi va boshqaradi.

Jumladan:

- Veterinariya tadbirlarini rejalahshtiradi va tashkillashtiradi;
- Veterinariya xizmati xodimlarining faoliyatini tashkillashtiradi;
- Kadrlarni tanlaydi va tavsiya etadi;
- Veterinariya xizmatini moddiy va moliyaviy ta'minotini boshqaradi;
- Chorvachilik xodimlarining veterinariya-sanitariya madaniyatini oshiradi;

- Tumanda hayvonlarni so'yish, xom-ashyo tayyorlash punktlari faoliyatini nazorat qiladi;
- Davlat veterinariya-sanitariya nazoratini o'tkazadi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi xizmatchilarini ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi.

Veterinariya uchastkasi – davolash-profilaktika muassasasi hisobalandi va u tegishli tumanning bir qismida qishloq xo'jalik va uy hayvonlari (parrandalar, baliqlar, asalarilar va boshqa hayvonlar)ning kasalliklariga qarshi kurash choralarini va boshqa veterinariya tadbirlarini tashkillashtiradi hamda amalga oshiradi. Uning faoliyat hududi tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining buyrug'i bilan aniqlanadi, qaysiki unda uchastkaga biriktirilgan xo'jalik va aholi punktlari sanab o'tiladi.

Tasdiqlangan namunaviy jadvalga asosan veterinariya uchastkasi quyidagi shtatlar ega bo'ladi:

Veterinariya uchatkalarida uchastka mudiri, veterinariya feldsher, veterinariya sanitari faoliyat ko'rsatadi.

Uchastkada veterinariya vrachlari va feldsherlarning bo'lishi, ularga hayvonlarning kasalliklariga qarshi kurash bo'limlariga o'xshash ko'plab ishlarni amalga oshirish imkoniyatini (faqt kichik ko'lamda) beradi.

Veterinariya uchastkasini saqlash va uning veterinariya tadbirlarini o'tkazish uchun ketadigan xarajatlari, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining byudjet mablag'i va pullik xizmat ko'rsatish hisobidan qoplanadi.

Veterinariya uchastkasi kerakli texnika vositalari bilan ta'minlanadi.

Unda maxsus mashinalar: "Veterinariya tez yordami", "Veterinariya ambulatoriyasi", shuningdek, boshqa texnikalar bo'lishi kerak.

Veterinariya uchastkasi mutaxassislariga dehqon, fermer va boshqa xo'jaliklarda ularning profilaktik, epizootiyaga qarshi va veterinariya-sanitariya tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazishini nazorat qilish, kerak bo'lgan taqdirda bu masalalar bo'yicha ularga ko'rsatmalar berish huquqi berilgan. Bundan tashqari, veterinariya uchastkasi belgilangan tartibda veterinariya kuzatuv hujjatlarini berish, go'sht-sut va boshqalarning veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazish va xulosa berish huquqiga ham ega hisoblanadi.

Veterinariya uchastkasi burchak shtampi va o'zining nomi ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'ladi.

### **Tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi**

Tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi har bir tumanda yoki tumanlararo tashkil etiladi. Bunda hayvonlarning kasalliklarini (parrandalar, baliq va asalarilarni) diagnostik tekshiruvdan o'tkaziladi, hayvonlar uchun oziqa va ichadigan suvning sifati aniqlanadi, go'sht, sut va oziqa mahsulotlari ekspress-analiz (ekspertiza) qilinadi.

Tumanlar hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlarining tuzilmasi: direktor, Bakteriologiya, parazitologiya va toksikologiya laboratoriysi, Serologiya laboratoriysi, Bosh hisobchi, Veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalardan tashkil topgan.

Tuman hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining ishi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan uning haqidagi nizom bilan belgilanadi. Ushbu markaz tumandagi diagnostik tekshirishlarning to'g'rilingiga, kelib tushgan materiallarning o'z vaqtida va sifatli tekshirilishiga, o'z xulosasining aniq va to'liqligiga javob beradi.

Markazga o'zi xizmat qiladigan hududdagi veterinariya muassasalari rahbarlariga hayvonlarning kasalliklari diagnostikasi masalalari bo'yicha xulosa va uslubiy ko'rsatma berish va veterinariya tadbirlarini o'tkazish huquqi berilgan.

Tuman hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazida maxsus avtomashinalar "Veterinariya tez yordami" va "Vivariy", shuningdek boshqa texnikalar bo'lishi kerak. Tuman hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi viloyat hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining rahbarligida faoliyat ko'rsatib, ulardag'i byudjet mablag'i hisobidan ta'minlanadi.

Markazning direktori va hisobchisini tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantoirish bo'limi tavsiyasiga asosan viloyat hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori tomonidan lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qilinadi. Markazning qolgan xodimlarini markazning direktori ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi.

Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalarda laboratoriya mudiri, veterinariya vrachi, vetvrach radiolog, vetvrach trixinellog, vetlaborant, veterinariya sanitari faoliyat ko'rsatadi.

Tuman hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi o'zining burchak shtampi va nomi ko'rsatilgan dumaloq gerbli muhriga ega.

### **Nazorat savollari:**

1. Tuman veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishini aytинг?
2. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga kim rahbarlik qiladi?
3. Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining joylashishi va jihozlanishi?
4. Tumanda veterinariya ishini boshqarish uslublarini aytинг?
5. Tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi faoliyatini aytинг?

## **SHAHRLARDA VETERINARIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH**

### **Shaharlarda veterinariya xizmatining xususiyatlari**

Respublikamiz aholisining 30 % dan ortiq qismi shaharlarda istiqomat qiladi va mazkur shaharlar sharoitida aholining zinch yashashi ko'pchilik xonalarda parrandalar, uy hayvonlari hamda chorva mollarining asralishi, shuningdek, shaharlar sharoitida, ayniqsa yirik shaharlarda chorvachilik mahsuloti va xom ashyolarini qayta ishlovchi korxonalari, go'sht kombinatlari, terini qayta ishlash korxonalari, turli muzlatgichlar, hayvonlar va ularning mahsulotlari sotiladigan dehqon va mol bozorlarining ko'p bo'lishi veterinariya xizmatining faoliyatini murakkablashtirib o'ziga xos yo'nalishda va ko'p tarmoqli faoliyat ko'rsatishga sabab bo'ladi. Shaharlarda shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tashkil etilib uning boshlig'i tegishli shahar hokimi bilan kelishilgan holda, tegishli viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'ining buyrug'i bilan tayinlanib, u ma'muriy, tashiliy masalalar bo'yicha shahar hokimiga bo'ysunadi.

Veterinariya masalalari bo'yicha esa viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasiga bo'ysunadi. Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i bir paytda mazkur shaharning bosh veterinar vrachi hamda davlat veterinariya inspektori hisoblanadi.

### **Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi tarmoqlari**

Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining tashkiliy tuzilmasi: bo'lim boshlig'i, Veterinariya faoliyatini muvofiglashtirish va davlat nazorati bo'yicha mutaxassis, Hayvonlar sog'lig'ini muhofaza qilish, tashxis ishlari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha mutaxassis, Chorvachilik bo'yicha mutaxassis, Moliya-iqtisod, xo'jalik faoliyati bo'yicha mutaxassis, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha mutaxassis, Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlaridan tashkil topgan.

Shuningdek, yordamchi xo'jaliklar, util zavod, transport, go'sht kombinatlari va teri zavodlarining veterinariya xizmatlari kiradi.

Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish - shahar hududidagi markaziy veterinariya tashkiloti hisoblanib, hayvonlarni

emlash va davolash ishlarida tashkilotchi hamda ijrochi bo'lib, shahar hududidagi barcha veterinariya muassasalarini va mutaxassislariga uslubiy hamda amaliy yordam beradi va veterinariya-sanitariya nazoratini o'tkazadi.

Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limidagi mutaxassislarining soni shahardagi hayvonlar bosh soniga, joylashish o'rni va hududiy kengligiga bog'liq holda belgilanadi.

Veterinariya uchastkasi. Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining tarkibiga kiradi va bo'lim tomonidan ish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan ta'minlanadi. Shtat bo'yicha uchastkada veterinariya vrachi, feldsher, sanitari va yordamchi xodimlar bo'lishi ko'zda tutilgan. Uchastkaning asosiy ishi – hayvonlarni ambulator va statsionarda davolashdir, lekin ko'pincha mutaxassislar xonadonlarga borib hayvonlarga veterinariya yordami ko'rsatadilar. Shu bilan birga uchastka xodimlari shahar hududidagi barcha xo'jaliklarda profilaktik va epizootiyalarga qarshi kurash tadbirlerini o'tkazadilar.

### **Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriylari**

Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriysi – dehqon bozorlari, savdo nuqtalari (obyektlari)da davlat veterinariya nazoratini o'matishga, veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni va xom ashyolarni, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligini aniqlash yuzasidan veterinariya-sanitariya ekspertizasini o'tkazish va tegishli xulosa berishga qaratilgan faoliyat sohasidagi davlat veterinariya nazorati organi hisoblanadi.

### **Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasining vazifalari va funksiyalari**

Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- savdo nuqtalariga keltirilgan kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yogi, chorvachilik xom ashyolari, so'yilgan uy parrandalar, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlatalidigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtini va boshqa qishloq

xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish, shuningdek, veterinariya ko'rigidan va ekspertizadan o'tkazilishi lozim bo'lgan mahsulotlar orqali hayvonlar yuqumli kasalliklarining tarqalishini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlarni tashkil etish;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, xom ashyolarni va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarni qabul qilish, yetkazib berish, saqlash, tashish, tayyorlash, qayta ishslash va realizatsiya qilish chog'ida veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligini ta'minlash maqsadida monitoringni amalga oshirish.

Laboratoriya o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib savdo nuqtalarida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- sotuvchilar tomonidan laboratoriya keltirilgan, kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, chorvachilik xom ashyolari, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlatalidigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtini va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazishni tashkil etadi;

- bozordan tashqaridagi savdo nuqtalarida davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni va xom ashyolarni, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish ishlarini tegishli tuman va shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi mutaxassislari tomonidan amalga oshiradi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolari jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlatalidigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtlarini va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-

ovqat mahsulotlarni veterinariya jihatidan xavfsizligini aniqlash maqsadida laboratoriya tekshiruvlari uchun belgilangan me'yorlar asosida namunalarni oladi;

- laboratoriyyaga har kungi tekshiruvlar uchun davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlar va xom ash'yolardan, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlaridan olingen namunalarni ekspertizadan o'ttazilgandan so'ng, mahsulotlarni qoldig'ini yo'q qilib dalolatnoma tuzadi;

- savdo nuqtalarida odamlar va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlar va xom ashyolarni, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni sotishda veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalariga rioxo qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalgalashadi;

- kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, chorvachilik xom ashyolari, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlataladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalari (qushlar) go'shtini va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazadi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan cho'chqa, yovvoyi cho'chqa, suvsar, bursuq, ayiq, nutriya va boshqa trixinellyoz bilan kasallanadigan hayvonlar go'shti (tanasi)ni, shuningdek tana nimtalarini, ularni yog'i (shpik)ni ushbu mahsulotlar savdo nuqtalariga keltirilishidan oldin laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazilganligi natijasidan qat'iy nazar majburiy tartibda qaytadan trixinellyozga tekshiruvlarni amalgalashadi;

- laboratoriya savdo nuqtalarida sotilayotgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, xom ashyolarni, shuningdek, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni navini, kategoriyasini, oziqlik qiymatini, muvofiqlik belgisini aniqlamaydi va bu boradagi laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazmaydi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, chorvachilik xom ashyolari, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari,

qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlataladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtini veterinariya jihatidan xavfsizligini ta'minlashda monitoringni amalga oshirish maqsadida har oyida bir marta belgilangan tartibda namunalarni olib yo'llanma asosida joylashgan hududdagi tuman, shahar, (viloyat yoki respublika) tashxis markazlariga yuborishni amalga oshiradi;

- savdo nuqtalarida veterinariya sanitariya-ekspertizasidan o'tkazilishi lozim bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va chorvachilik xom ashyolari, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlari orqali hayvonlar yuqumli kasalliklarining tarqalishini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlarni tashkil etadi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlataladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtlariga chiqish joyidan olinishi shart bo'lgan belgilangan tartibdagi veterinariya hujjatlarini mavjudligi va veterinariya hujjatlariga ko'rsatilgan ma'lumotlar, keltirilgan mahsulotlar turiga, miqdori va soniga to'g'ri kelishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlataladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalar (qushlar) go'shtlariga chiqish joyidan olinishi shart bo'lgan belgilangan tartibdagi veterinariya (2-vet. va 3-vet. shakldagi guvohnomalari, 4-vet. va 200-vet. shakldagi

ma'lumotnomasi) hujjatlari bo'limgan taqdirda, mahsulotlar (yuk) egalaridan veterinariya hujjatlarini taqdim etishni talab qiladi va holat yuzasidan tilxat oladi, dalolatnomasi hujjatlarni rasmiylashtiradi;

- belgilangan tartibdagi veterinariya hujjatlarisiz keltirilgan go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, shuningdek chorvachilik xom ashyolari va davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi boshqa oziq-ovqat mahsulotlarni savdo nuqtalarida maxsus ajratilgan xona-izolyator (sovutgich)ga joylashtirilib, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazadi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, qandolatlar, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlatiladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i, ovlanadigan parrandalari (qushlar) go'shti va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish natijasiga ko'ra mahsulot (yuk) egalariga tegishli xulosalar yozilgan hujjat (yorliq)ni beradi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, shuningdek, kelib chiqishi so'yiladigan hayvonlarga mansub mahsulotlar va xom ashyolar jumladan, go'sht va go'sht mahsulotlari, so'yish mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, hayvonlar yog'i, so'yilgan uy parrandalari, parranda (qush) tuxumi, asal, baliq va baliq mahsulotlari, qo'ziqorin, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek, hududlarda oziq-ovqat uchun ishlatiladigan ovlanadigan hayvonlar go'shti va yog'i ovlanadigan parrandalari (qushlar) go'shti va go'sht mahsulotlarini (yuklarni) realizatsiya qilishda, saqlash sharoitlari va tashishda (muddati, saqlash tartibi, harorati va boshqalar) veterinariya-sanitariya qoidalari buzilishi natijasida, veterinariya jihatidan xavfsizligiga shubha tug'ilganda mahsulotlarni (tarkibida nosog'lom o'zgarishlar vujudga kelgan) qaytadan laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazadi, ilgari qo'yilgan tamg'alarni olib tashlab, oldin berilgan xulosa hujjati

(yorliq)ni qaytarib oladi va qaytadan tamg‘alarni qo‘yib, tegishli xulosa yozilgan hujjat (yorliq)ni beradi;

- savdo nuqtalariga keltirilgan parrandalar (qushlar) tuxumi laboratoriya mutaxassislari tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilib, butligi buzilgan, singan ya’ni veterinariya jihatidan xavfliligiga belgi berib turgan tuxumni iste’molga ishlatish uchun yaroqsizligi sababli savdodan olib qo‘yib, u belgilangan maqsadlarda ishlatilmasligi uchun utilizatsiyalash yoki yo‘q qilib tashlanib, tuzilgan dalolatnomani nusxasini mahsulot (yuk) egasiga taqdim etadi;

- laboratoriya – davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni holati, tekshirish tartibi va qoidalari boshqa laboratoriya vakolatiga kiradigan tekshiruv ekspertizalarni o‘tkazmaydi va xulosa hujjatini bermaydi;

- laboratoriya asbob-uskunalarini, jihozlari va boshqa laborator tekshirish dori- vositalardan samarali foydalanish ishlarini tashkil etadi hamda ularni foydalanish muddati va texnik holatlaridan kelib chiqib, belgilangan tartibda hisobdan chiqarishga shuningdek laboratoriyanı moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va tekshiruv dori vositalarini ta’minoti ishlari bo‘yicha talabnomha va takliflarni yuqori turuvchi tizim tashkilotlariga taqdim etadi;

- laboratoriyanı atestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiyaga tayyorlash ishlariga amaliy yordam beradi;

- ijro intizomi, ichki mehnat tartibi qoidalari, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariга rioya qilish va hujjatlar (daftarlar)ni yuritilishini nazorat qiladi;

- laboratoriya jismoniy va yuridik shaxslarning va ularni vakillarini qabul qilishni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini belgilangan tartibda o‘rganib chiqadi va taalluqli javoblarni beradi;

- laboratoriya qonunchilikda belgilangan tartib-tamoillar asosida pullik xizmat ko‘rsatadi;

- laboratoriya xodimlarini 3-bosqichli ta’lim dasturi asosida-komp'yuter texnikasi va internet bilan ishlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini o‘rganishi bo‘yicha choratadbirlarni amalga oshiradi;

- savdo nuqtalarini (bozorlarni) qayta qurish va rekonstruksiya qilish komissiyasi tarkibida ishtirok etadi va laboratoriya masallallari bo‘yicha takliflarni kiritadi;

- savdo nuqtalarida veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini talab qiladi.

### **Laboratoriyaning huquqlari va javobgarligi**

Laboratoriya o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha savdo nuqtalari (egalaridan) ma’muriyatidan va savdo nuqtalari hududida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslardan, davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni, xom-ashyolarni, shuningdek, o‘simgiliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni laboratoriya tekshiruvlariga oid hujjatlarni so‘rab olish;

- savdo nuqtalariga keltirilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlar, xom-ashyolarni, shuningdek o‘simgiliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni veterinariya jihatidan xavfsizligini aniqlash maqsadida mahsulotlardan belgilangan me’yorlar asosida namunalarni olish;

- davlat veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq zarur hollarda, klinik belgilar va ko‘rsatmalar (sabab) bo‘lganda ko‘rikdan va veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o‘tkazilgan oziq-ovqat mahsulotlarni va chorvachilik xom-ashyoni, shuningdek o‘simgiliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni qo‘sishimcha bakteriologik, biokimiyoviy, kimiyo-toksikologik, radiologik va boshqa laboratoriya tekshiruvlarni o‘tkazish uchun mahsulotlardan belgilangan tartibda namunalarni oladi va tegishli tuman, shahar (viloyat yoki respublika) tashxis markazlariga yo‘llanma asosida jo‘natish;

- savdo nuqtalarida har kungi va qo‘sishimcha o‘tkazilgan veterinariya-sanitariya ekspertizasi natijasiga ko‘ra mahsulot (yuk) egalariga laboratoriya xulosalari yozilgan hujjat (yorliq)ni va ma’lumotlarni berish;

- savdo nuqtalari hududida joylashgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi ob‘ektlari (ishlab chiqarish joylari, omborxonalar, sexlar,sovutgichlar, pavilonlar, savdo dukonlari va boshqa joylar)ga moneliksiz kirish va veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan veterinariya ko‘rigidan o‘tkazish;

- savdo nuqtalarida hayvonlarning va odamlarning hayoti va sog‘ligi uchun xavf tug‘diradigan hayvonlar kasalligi aniqlangan taqdirda, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq hayvonlarga mansub mahsulot va xom ashynoni, shuningdek

aloqada bo'lgan barcha turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarni zararsizlantirish (yuqumsizlantirish)ga, qayta ishlashga, utilizatsiyalashga yoki yo'q qilishga taalluqli, yuridik va jismoniy shaxslarga, fuqarolarga va savdo nuqtalari (egalariga) ma'muriyatiga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

- savdo nuqtalariga sotish, saqlash, tayyorlash, qayta ishslash, etkazib berish va realizatsiya qilish uchun keltirilgan barcha turdag'i hayvonlar, parrandalar (qushlarni) go'shtini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazilgandan so'ng "Go'shtlarni veterinariya tamg'alash" Yo'riqnomasiga muvofiq go'shtga tegishli tamg'alarmi qo'yish;

- savdo nuqtalarida odamlar uchun iste'molga yaroqsiz deb topilgan davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi oziq-ovqat mahsulotlarni va xom-ashyolarni, shuningdek, o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlarni sotilishini ta'qilab, belgilangan tartibda qayta ishslash, utilizatsiyalash yoki yo'q qilib tashlash, yaroqsizlantirish (denaturatsiyalash)ga taalluqli bo'lgan chora-tadbirlarni dalolatnomaga asosida amalga oshirish;

- kundalik bajarilgan ishlarni belgilangan shakldagi statistik veterinariya daftarlarga qayd etish, savdo nuqtalarida aniqlangan kasalliklarni hisobotini yuritish hamda laboratoriya faoliyati bo'yicha statistik hisobotlarni tayyorlab yuqori turuvchi tizim tashkilotiga topshirish;

- laboratoriya murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini eshitadi va o'rganib chiqib taalluqli javoblarni beradi;

- laboratoriya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Savdo nuqtalarida muomalada bo'lgan laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkazilmagan kelib chiqishi hayvonotga mansub oziq-ovqat mahsuloti va xom ashylari, shuningdek o'simliklarga mansub oziq-ovqat mahsulotlari uchun laboratoriya mutaxassislari javobgar hisoblanmaydi.

### **Shaharlarda veterinariya xizmati turlari**

Barcha shahrlar sharoitida 3 turdag'i veterinariya xizmati faoliyat ko'rsatadi:

- Davlat veterinariya xizmati – yuqorida qayd etilgan barcha tashkilot va muassasalar tomonidan faoliyat ko'rsatadi;

- Idoraviy veterinariya xizmati – shahar hududida joylashgan yordamchi xo‘jaliklar, chorvachilik ob’ektlari va boshqa Vazirliklar bo‘ysunuvidagi korxonalarda amalga oshiriladi. Ular davlat veterinariya xizmati nazoratida faoliyat ko‘rsatadi;

- Xususiy veterinariya xizmati – keyingi yillarda shaharlar sharoitida amalga oshiriladigan veterinariya xizmatining ko‘pchilik qismini tashkil etib, tegishli hujjatlar va ruxsatnomasi bo‘lgan har bir veterinariya vrachi hamda ularning rahbarligida veterinar feldsherlar faol shug‘ullanishadi, ayniqsa, turli kichik korxonalar, firmalar va veterinariya dorixonalarining xususiy tadbirkorligi evaziga veterinariya ta’minoti ishlari yanada yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda.

### **Shahar davlat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limining vazifalari**

- Shahar hududini veterinariya-sanitariya jihatdan sog‘lomligini ta’minlash;
- Shahar hududida veterinariya-sanitar, profilaktika va davolash tadbirlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish;
- Shahar aholisini antopozoonozlardan muhofaza qilish;
- Sanitariya-epidemiologiya stansiya xodimlari bilan birgalikda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini hamda boshqa mahsulotning sog‘lomligi va sifatini nazorat qilish;
- Shahar hududidagi tegishli ob’ektlarda davlat veterinariya-sanitariya nazoratini o‘rnatish;
- Shaharning tozalagini ta’minlashda ishtirok etib, hayvon o‘liklari va qoldiqlarini o‘z vaqtida yig‘ishtirishni tashkil etish va nazorat qilish.

Toshkent shahri veterinariya xizmati - Toshkent poytaxt shahar bo‘lishi tufayli unda Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi maqomi berilgan.

Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi:

Boshqarma boshlig‘i, boshliq o‘ribbosari, Veterinariya faoliyatini muvofiglashtirish bo‘limi, Hayvonlar sog‘lig‘ini muhofaza qilish bo‘limi, Tashxis ishlari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘limi, Davlat veterinariya nazorati bo‘limi, Veterinariya ta’minoti bo‘yicha mutaxassis, Tumanlar veterinariya bo‘limlari, Veterinariya uchuastkalari, Moliyaviy-iqtisodiy tahlil va buxgalteriya hisobi bo‘limi, Kadrlar bilan ishslash bo‘yicha mutaxassis, Bosh yuriskonsult, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo‘yicha mutaxassis,

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mutaxassis, Umumiy bo'lim mavjud.

**Nazorat savollari:**

1. Shahar veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilmasi?
2. Shaharlarda veterinariya xizmatining xususiyatlari?
3. Shaharlarda veterinariya xizmatining turlari?
4. Shaharlarda veterinariya-sanitariya nazorati?
5. Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari?
6. Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining vazifalari?

## ISHLAB CHIQARISHDA VETERINARIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH

### **Xo'jaliklarda veterinariya xizmati**

O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunning 14, 15, 16-moddalarida ta'kidlanganidek, xo'jaliklar va hissadorlik jamiyatlarida idoraviy yoki ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmati joriy etilgan bo'lib, tegishli tuman veterinariya xizmatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Xo'jaliklarda veterinariya xizmati veterinariya vrachi va veterinariya feldsheri tomonidan amalga oshirilib, mazkur xo'jalik ishlarida faoliyat ko'rsatadi.

### **Idoraviy veterinariya xizmati**

Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya nazorati va veterinariya xizmati talab qilinadigan vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar tasarrufidagi xizmatdir.

Idoraviy veterinariya xizmati o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi. Idoraviy veterinariya xizmati faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlash Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Xo'jalikdagi veterinariya mutaxassislari quyidagilarni amalga oshiradilar:

- Xo'jalik ma'muriyati va boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda chorva mollarining tuyog'ini ko'paytirish, mahsulot va xom ashyo ishlab chiqarish miqdorini oshirish;

- Xo'jalikda mavjud hayvonlarni doimiy ko'rikdan o'tkazish, rejallashtirilgan profilaktik va veterinariya-sanitariya tadbirlarini amalga oshirish, kasal mollarni aniqlab ajratish va davolash;

- Xo'jalikda O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonuniga rioya qilinishini ta'minlash;

- Xo'jalik ishlab chiqarish rejalarini bajarishga muvofiq faoliyat ko'rsatish;

- Aholini zooantropozlardan muhofaza qilish.

Xo'jaliklar va xissadorlik jamiyatlarida veterinariya mutaxassislarining shtatlarini belgilanishi:

Shirkat va fermer xo'jaliklarida hamda hissadorlik jamiyatlarida veterinariya xizmati mazkur xo'jalikning bosh yoki katta veterinar vrachi tomonidan tashkil etilib, u ma'muriy xo'jalik masalalari bo'yicha xo'jalik rahbariga, barcha mutaxassislik masalalari bo'yicha esa tuman

veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga bo'ysunadi. Shuningdek, ayrim xo'jalik, boshqarma yoki Vazirliklar qaramog'iда bo'lsa, mazkur xo'jalik bosh yoki katta veterinariya vrachi tegishli yuqori veterinariya mutaxassisiga ham bo'ysunadi.

Xo'jalik va hissadorlik jamiyatlarining bosh veterinar vrachi barcha davlat veterinariya mutaxassislari bilan kelishgan holda faoliyat ko'rsatadi.

Xo'jalikda xizmat qiladigan boshqa veterinariya mutaxassislari esa shu xo'jalikning bosh yoki katta veterinariya vrachiga bo'ysunadi.

Xo'jaliklarda veterinariya xizmatining shtat sonini aniqlash uchun bevosita mavjud mollarning shartli bosh sonlari hisoblab chiqilib, keyin belgilanadi.

Veterinariya qonunchiligiga asosan, xo'jaliklarda mavjud mollar shartli bosh soni 800 boshgacha bo'lsa, katta veterinariya vrachi, 800 shartli mol boshidan ko'p bo'lsa, bosh vetvrach joriy etiladi. Shuningdek, keyingi 750-850 mol boshiga 1-tadan vetvrach yoki vefeldsherlik shtati belgilanadi.

Hayvonlarning shartli mol boshiga aylantirish uchun mazkur xo'jaliklar soni normativlar asosida belgilangan koeffitsientlarga ko'paytirilib aniqlanadi:

M: 1 bosh sigir - 1 shartli bosh.

1 bosh bo'qa - 1 shartli bosh.

1 bosh yosh qoramol-0,86, yilqi, tuya-0,66, cho'chqa-0,16.

Qorako'l qo'y-0,1, tovuq-0,020, juma-0,025.

Xo'jalik rahbarlari mahalliy sharoit, epizootik ahvol va ferma xususiyatini hisobga olib, qo'shimcha shtat berishi mumkin.

Naslchilik xo'jaliklari uchun esa hisoblangan shartli mol boshini 1,4 koeffitsientiga ko'paytiriladi. 850 emas, balki 600-610 shartli mol boshiga 1 ta veterinariya shtati belgilanadi.

Chorvachilik va parrandachilik hissadorlik jamiyatlarida esa mavjud shtatlar jadvalidan foydalanilib, veterinariya mutaxassislarining shtatlari belgilanadi.

### **Idoraviy veterinariya xizmati veterinariya mutaxassislarining huquq va majburiyatları**

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislari:

idoraviy veterinariya nazorati ob'ektlariga moneliksiz kirish va veterinariya to'g'risidagi qonun hujjalaringan aniqlangan buzilishlarini

bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;

idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlardan veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta‘minlaydigan choratadbirlar o‘tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo‘lgan axborot taqdim etilishini talab qilish;

veterinariya to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor mansabdon shaxslarni hamda boshqa xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish haqida idoraga qarashli muassasalar va tashkilotlar rahbariyatiga ko‘rib chiqish uchun taqdimnomma kiritish huquqiga ega.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislar:

xizmat ko‘rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o‘tkazishi;

idoraviy veterinariya nazoratini hamda kelib chiqishi hayvonotga va o‘simglikka mansub mahsulotning, xom ashyoning veterinariya-sanitariya ekspertizasi o‘tkazilishini amalga oshirishi;

hayvonlar o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo‘lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko‘rishi;

belgilangan tartibda veterinariyaga oid statistika hisobotini yuritish uchun davlat veterinariya xizmatiga axborot taqdim etishi shart.

Idoraviy veterinariya xizmatining veterinariya mutaxassislar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, xo‘jalikda hayvonlar nobud bo‘lsa, maxsus yoki majburiy so‘yilsa, ularga maxsus shakldagi – 100 shakl “Hayvonlarning chiqim dalolatnomasini” yolg‘iz veterinariya mutaxassislarining diagnozlari asosida tasdiqlovchi imzolari bilan berish mumkin. Aks holda hujjat noqonuniy hisoblanadi.

Dalolatnama, veterinariya vrachi yoki feldsher, zootexnik va ferma mudiri yoki brigadir ishtirokida tuziladi.

Chorva mollari xo‘jaliklardan o‘nlab va yuzlab kilometr uzoqlikda joylashgan qishki yoki yozgi yaylovlarda saqlanayotgan vaqtida bu yaylovlarda davolash-sanitariya punktlari (DSP) yoki davolash profilaktika punktlari (DPP) deb atalgan punktlar tashkil etiladi va jihozlanadi. Ularning vazifasi – kasal, zaif va o‘sishdan orqada

qolayotgan, otar (poda) bilan birga harakat qila olmaydigan (o'tlay olmaydigan) mollarni muayyan joyga to'plab, davolash va yaxshilab boqishdan iboratdir. Bu narsa ko'plab miqdordagi mollarni nobud bo'lishdan saqlaydi.

Chorva mollari otarlardan (podalardan) yig'ib olinganda ularning epizootik holati hisobga olinadi. Mollar sog'ayib, qo'shimcha ravishda boqilgandan keyin qaysi otarlardan (podalardan) olingen bo'lса, o'sha otarlarga (podalarga) qaytariladi. Boshqa hollarda sog'aygan mollardan yangi otarlar yoki podalar tuziladi, yo bo'lmasa ular semirtirib boqilgandan keyin so'yishga topshiriladi.

Barcha xo'jaliklarda hayvonlarning kasallanishi va davolash-emlash, sanitariya ishlari tegishli jurnallarda hisobga olib boriladi.

Bu esa veterinariya xizmatining samarasini oshirib, sarf-xarajatlar va hisobotlar uchun asos bo'ladi.

Chorvachilik va parrandachilik hissadorlik jamiyatlarida veterinariya xizmatining xususiyatlari Chorvachilik xissadorlik jamiyatları (XJ) quriladigan hududni tanlashda aholi punktidagi va hissadorlik jamiyatining o'zidagi havo xavzasini, suv ta'minoti manbalarini, havzalarni va tuproqni sanitariya jihatidan muhofaza qilishga katta e'tibor beriladi. Hissadorlik jamiyatlarida hosil bo'ladigan go'ngi qayta ishlaydigan va undan foydalananadigan inshootlarni joylashtirish, oqova suvlar tashlab yuboriladigan joylarni belgilab olish muhim sanitariya-gigiyena masalalaridan biri hisoblanadi.

Sanoat asosida sut etishtiriladigan, nasldor va poda to'ldiriladigan buzoqlar o'stiriladigan hissadorlik jamiyatlar, bo'rdoqiga boqish maydonchalari brutsellyoz va sil kasalliklari xavfidan xoli bo'lgan hududda joylashtiriladi. Texnologiyaga muvofiq, mollarni o'tlatib boqish ko'zda tutiladigan hissadorlik jamiyatlar yuqorida tilga olingen infeksiyalardan xoli bo'lgan keng maydonda joylashtirilishi kerak.

Veterinariya-sanitariya va zoogigiyena talablari asosida hayvonlarni asrash va hissadorlik jamiyati ishchilar uchun maqbul sharoit yaratib berishga, yuqumli va invazion kasalliklar tarqalishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgandir. Ko'p miqdordagi hayvonlarning nisbatan kichik maydonlarga joylashtirilishi, hissadorlik jamiyatining boshqa xo'jaliklar bilan olib boradigan hamkorlik munosabatlari kuchayishi infeksiyaning ilashib kelishi va tarqalish xavfini kuchaytiradi. Shuning uchun ushbu xo'jaliklarda chorva mollarini asrash va boqishga doir veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya qilish talablari kuchaytiriladi.

Hissadorlik jamiyatini hududining atrofi ko'pincha virusli va mikrobi infeksiyalari uy hayvonlari va yovvoiy hayvonlar o'tolmaydigan qalın devor bilan o'raladi.

Tasodifan infeksiya kirib qolishiga qarshi veterinariya jihatidan himoyalangan bo'lishi uchun maxsus tizim qo'llaniladi. Bu tizim hissadorlik jamiyatini atrofidagi hududni ikki zonaga: tashqi, ya'ni keltirilgan himoya zonasiga va ichki-qo'riqlash zonasiga bo'lishni ko'zda tutadi. Barcha zona va bo'limlarning atrofi ham to'silgan bo'ladi.

Hissadorlik jamiyatini hududiga transport faqat tekshirib turiladigan dezbar'erli darvoza orqali kiritiladi. Kiraverishga avtotransport g'ildiraklarini dorilab chiqaradigan dezinfeksiyalovchi vanna qo'rildi. Dezhvannada suv chiqarish yo'li hamda eritmani ilitib beradigan quvurlar bo'ladi. Fermaning ichki transporti turadigan garajlar yoki bostirmalar ihota liniyasida remont qilinadigan transport kira oladigan qilib joylashtiriladi. Ustoxonalarni garaj bilan yonma-yon qurish maqsadga muvofiqdir.

Infeksiya paydo bo'lgan taqdirda, korxonaga avtomashinalar kiraverish joyi tozalash va dezinfeksiyalash inshooti (oqova suv yo'li bilan tutashtirilgan ko'chma yoki statsionar qurilma) bilan ta'minlanishi kerak. Avtomashinalarni yuvish va dezinfeksiyalash qurilmasi shunday joylashtirilish kerakki, infeksiya paydo bo'lgan taqdirda mashinalar qurilma orqali o'ta oladigan bo'lsin. Go'ngxonalar, axlat chuqurlari, nasos stansiyasi, go'ngni kompostrlashtirish maydonchalari, hayvonlar o'likxonasi tashqi zonaning alohida qismida joylashtiriladi.

Bu qismning atrofi to'siladi. Transport vositalari unga sanitariya-himoya zonasidan qo'shimcha dezinfeksiya orqali kiradi.

Veterinariya obyektlari, odatda, ishlab chiqarish va ma'muriy xo'jalik zonalari chegarasida joylashtiriladi. Sanpropusknik, qushxona, em-xashak ombori, oziqa tayyorlash sexi, ortish va tushirish estakadalarini zonalarning ihota qismida joylashtiriladi. Karantin bo'limlari va izolyatorlar ular uchun maxsus ajratilgan uchastkalarda quriladi. Izolyator bilan sanitariya qushxonasini bitta guruhdagi binolar qatorida joylashtirish mumkin.

Hissadorlik jamiyatida profilaktika, davolash tadbirdari va diagnostika veterinariya-sanitariya ob'ektlari bo'lishi ko'zda tutilishi kerak:

- Xizmatchi xodimlar kiyimlari va poyabzalini sanitariya ishlovidan o'tkazib turadigan veterinariya sanitariya propusknik;

- Hayvonlarni majburiy so'yib yuborishga, shuningdek, o'lgan hayvonlarni yorib ko'rish va vaqtincha saqlab turishga mo'ljallangan so'yish-sanitariya punkti (hayvonlar o'ligi maxsus jihozlangan avtotransportda utilizatsiya sexiga junatiladi);

- Hayvonlarni ambulatoriya va statsionar sharoitda davolaydigan veterinariya anjomlari va dezinfeksiya vositalari saqlanadigan veterinariya punkti. Veterinariya punktida davolash muolajalari o'tkaziladigan manej-qabulxona, biopreparatlar saqlanadigan omborxonasi ham bo'lgan dorixona dezinfeksiya vositalari ombori, bosh vetvrach xonasi va boshqa veterinariya mutaxassislari xonasini o'z ichiga oladigan ambulatoriya bo'ladi.

Yuqumsiz kasallik bilan kasallangan, uzoq muddat davolanishi kerak bo'lgan hayvonlar asraladigan statsionar. Bu statsionar veterinariya punkti bilan bitta-qismda joylashtiriladi.

Chorvachilik va parrandachilik hissadorlik jamiyatlarida veterinariya xizmatining xususiyatlari.

Sutchilik xissadorlik jamiyatida veterinariya davolash profilaktik ishlari to'la hajmda tashkil qilinadi. Chunki bu erda yuqori mahsuldor sigirlar boqiladi. Olinadigan sutning sifati veterinariya-sanitariya talabiga javob berishi lozim. Shuning uchun sutchilik xissadorlik xo'jaligidagi veterinariya punktida to'liq jihozlangan veterinariya ambulatoriya hamda mavjud mollarning 3 foiziga etadigan statsionar bo'limi bo'lishi zarur.

M: 400 bosh sog'in sigir bo'lsa - 12 boshga.

400 boshga - 1 ta veterinar vrach, 1 ta veterinar feldsher, 1 ta sanitar.

Sutchilik va g'unojin o'stirish hissadorlik jamiyatlarida umumiy veterinariya ishlari bilan bir qatorda hayvonlarning barcha yuqumli kasalliklarga chalinishidan asrash asosiy yo'naliш hisoblanadi.

Tug'ruqxona bo'limlari suttan chiqqan sigirlar asraladigan binolar va profilaktoriylar bilan munosabatda bo'lib turish qulay bo'lishi ko'zda tutilgan holda joylashtiriladi.

Yayratish maydonchalari va yayratish - boqish qo'ralari binolar oldida joylashtirilganda, ular sigirxona yoki buzoqxonaning janubiy-sharqiy yoki janubiy-g'arbiy tomondagi uzun devori yoniga quriladi. Sun'iy urug'lantirish punkti sigirxonaga bevosita yaqin joyda bo'lishi kerak.

## **Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari**

Faoliyati chorvachilikni tashkil etish va yuritish, hayvonlarni saqlash, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyon, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarni hamda hayvonlarni davolash uchun mo'ljallangan veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlari tashkil etilishi mumkin.

Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari:

korxonaning, muassasaning, tashkilotning rahbaridan veterinariya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish va ularni tugatishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar o'tkazilishini, shuningdek epizootik vaziyatni aniqlash uchun zarur bo'lgan axborot taqdim etilishini talab qilishi;

xizmat ko'rsatilayotgan korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda epizootiyaga qarshi tadbirlarni, davolash, veterinariya-sanitariya tadbirlarini o'tkazishi;

hayvonlar o'ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinganligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmatlarining veterinariya mutaxassislari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Chorvachilik xo'jaliklarida veterinariya xizmatining vazifalari?
2. Xo'jaliklarda veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi?
3. Veterinariya mutaxassislarining shtatlarini aniqlash usullari?
4. Xo'jaliklarda veterinariya mutaxassislarini huquq va vazifalari?
5. Chorvachilik xo'jaliklarida veterinariya xizmatining xususiyatlari?

## XUSUSIY VETERINARIYA XIZMATINI TASHKIL QILISH

Respublikamizning mustaqillik yillarda xalq xo'jaligining barcha jahbalarida bozorli iqtisodiyot sharoitida muhim islohotlar amalga oshirildi. Qaysiki, Respublikamiz qishloq xo'jaligining, xususan veterinariya xizmatining samarali faoliyati va rivojlanishiga ham ijobji ta'sir etmoqda. Ayniqsa "Veterinariya to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi va mazkur qonunning 17-moddasiga asosan Respublikada xususiy veterinariya xizmati bilan shug'ullanishga ruxsat etilishi bizning sohadagi islohotlarning dastlabki muhim bosqichi bo'ldi.

### Xususiy veterinariya faoliyati

Yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar – tadbirkorlik sub'ektlari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan litsenziyaga ega bo'lishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarning kasalligini aniqlab tashxis qo'yish va ularni davolash bilan shug'ullanish, bundan hayvonlarning cheklovchi tadbirlar (karantin) yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa cheklovlar qo'llanadigan kasallikkarga chalinishi hollari mustasno;

hayvonlarni kasallanishdan saqlash maqsadida emlash tadbirlari o'tkazish, shuningdek hayvonlarning egalariga maslahat berish;

veterinariya dori va texnika vositalarini, ozuqabop qo'shimchalarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari:

hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rishi;

epizootiya paydo bo'lgan taqdirda davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazishi shart.

Xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va ularning zimmasida o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda jahondagi veterinariya xizmatlarining ish usulini tahlil qilsak, turli davlatlarda xususiy veterinariya xizmati ulushi 53-98 % gacha ko'rsatkichga ega.

Ayni paytda bizning Respublikamizda ham xususiy veterinariya xizmatining ulushi ortib bormoqda, ularning ulushi 40-45% dan ortiq.

Xususiy veterinariya faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 may, 328-sod qarori "Veterinariya faoliyatini litsenziyalash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash haqida"gi qarori asosida amalga oshirilmoqda.

### **Veterinariya faoliyatiga litsenziya berish bosqichlari**

Xususiy veterinariya faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida litsenziya olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim bo'lishi lozim.

**Litsenziyalovchi organ** tomonidan litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (to'lov topshiriqnomasi).

**Tadbirkorning arizasi**, arizada quyidagilar ko'rsatilishi shart: Arizachining nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami, telefon raqami, faoliyat manzili, amalga oshirishi kerak bo'lgan faoliyat turi (arizada to'liq ko'rsatish kerak).

Ariza qabul qilingach, arizada ko'rsatilgan faoliyat manzilida yaratilgan sharoitlarni o'rganib berish uchun tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga xat yuboriladi.

Tuman (shahar) veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i, veterinariya uchastkasi mudiri (ekspertlar) va talabgor rahbari ishtirokida dalolatnoma tuzilib, imzolangandan so'ng veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i xulosa beradi.

Litsenziyalovchi organ tuzilgan dalolatnoma va xulosaga asosan litsenziya berish yoki bermaslik to'g'risida Qaror qabul qiladi.

Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda hamda Davlat boji to'langach (respublika byudjetiga 10 minimal bazaviy hisoblash miqdorida) Litsenziyalovchi organ bilan shartnoma imzolashi to'g'risida talabgorga bildirishnomasi yuboriladi.

Davlat boji to'lov (to'liq to'lagani to'g'risida) topshiriqnomasi taqdim qilingach, litsenziya talab va shartlari yuzasidan shartnomma imzolanib, litsenziya nusxasining orqa tomoniga litsenziyaning asli va litsenziya shartnomasini oldim deb imzolatiladi hamda litsenziya talabgorga topshiriladi.

Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi hisobotlar hududiy davlat soliq inspetsiyasiga hamda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasiga har oyning 5 sanasiga qadar topshiriladi, litsenziyalovchi organ o'zlarini bergan litsenziyalar reestrini yuritilib boriladi.

**Yuridik shaxslardan:** 1) to'lov topshiriqnomasi; 2) arizasi talab qilinadi.

**Jismoni shaxslardan:** 1) to'lov topshiriqnomasi; 2) arizasi; 3) mutaxassisligi bo'yicha diplom nusxasi; 4) pasport nusxasi; 5) bir oylik malaka oshirganlik to'g'risidagi sertifikat talab qilinadi.

### **Hayvon egalariga veterinariya xizmati ko'rsatish qoidalari**

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga muvofiq ishlab chiqilgan maxsus qoidalar veterinariya xizmat ko'rsatish tadbirlarini belgilaydi.

Veterinariya xizmat ko'rsatuvchi korxona, muassasa, tashkilotlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi veterinariya mutaxassis (Ijrochi) hayvon egalariga (Iste'molchi) veterinariya xizmati ko'rsatishda O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Veterinariya to'g'risida"gi qonunlariga. O'zbekiston Respublikasining va O'zbekiston Respublikasi subyektlarining veterinariyaga oid bo'lak va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

Veterinariya xizmati ko'rsatuvchi korxona, muassasa va tashkilotlar ixtisosi, faoliyatining shakli, ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumot va firma nomi aks ettirilgan peshlavhaga ega bo'lishlari shart.

Veterinariya xizmati ko'rsatuvchi, veterinariya sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassis "Iste'molchilar"ga ro'yxatdan o'tganligi va uni ro'yxatga olgan muassasa nomi to'g'risidagi, mazkur turdag'i xizmat (ish)ni ko'rsatish huquqini beruvchi maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ni, uning mazmuni va boshqa zarur ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

#### *Iste'molchi:*

Ijrochi bilan veterinariya xizmati ko'rsatish yuzasidan shartnomalar tuzish;

Ijrochidan hayvonlarning kasallik holati, epizootik vaziyat hamda hayvonlar va hayvonotga mansub mahsulotlarni maxsus tekshirish natijalari to‘g‘risida ma’lumotlar olish;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan o‘rnatilgan tartiblar asosida hayvonlarni va hayvonotga mansub mahsulotlar, ozuqalar, veterinariya preparatlarini, shu jumladan, chet ellardan olish hamda sotish;

Ijrochiga hayvonlarni davolash va kasallikning oldini olishda yordam berish hayvonlarni, hayvonotga mansub mahsulotlarni hamda xom ashyolarni sotish uchun veterinariya guvohnomasi yoki ma’lumotnomasini rasmiylashtirish, shuningdek, boshqa turdag'i veterinariya xizmatlari ko‘rsatishi so‘rab murojaat qilish;

Hayvonlar (shu jumladan, parrandalar, mo‘ynali hayvonlar, baliqlar va asalarilar)ni sotib olishda sotuvchidan veterinariya guvohnomasi yoki belgilangan namunadagi ma’lumotlarni talab qilish;

Mahalliy hukumat organlarining va Ijrochining noqonuniy hattiharakatlari va ko‘rsatmalar ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

*Iste’molchi:*

Ijrochiga, uning talabiga binoan, diagnostik tekshirish, davolash va profilaktik tadbirlar o‘tkazish uchun hayvonlarni ko‘rsatishi, yangi hayvon sotib olganligi to‘g‘risida, hayvonlarning to‘satdan o‘lishi, kasallanishi yoki ularda g‘ayri-tabiiy holatlar paydo bo‘lgan barcha hollarda darhol xabar berishi;

Go‘sht, sut, go‘sht va sut mahsulotlarini, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlarini faqat veterinariya-sanitariya ekspertizasi o‘tkazilib, oziq-ovqat maqsadida foydalanish uchun yaroqligi to‘g‘risida Ijrochining xulosasi olingandan so‘ng sotishi;

Harom o‘lgan hayvonlarning gavdalarini, shuningdek, hovlida so‘yilgan uy hayvonlari va parrandalarning inson va hayvonlar uchun iste’molga yaroqsiz mahsulotlari (konfiskatlar)ni go‘sht-suyak uni ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan zavodlar (veterinariya-sanitariya util zavodlari)ga yoki ularni yo‘q qiluvchi tarmoqlar (mol turlari)ga darhol olib borib topshirishi;

Zoogigiyena talablariga muvofiq hayvonlarning tegishli tartibda saqlanishi va oziqlantirilishini, shuningdek, ularni saqlash bo‘yicha mavjud yo‘riqnomasi, qo‘llanma va ko‘rsatmalar asosida majburiy davolash kasallikning oldini olish tartiblari o‘z vaqtida o‘tkazilishini ta‘minlashi shart.

*Ijrochi:*

Barcha maxsus tadbirlarni "Veterinariya to'g'risida"gi qonun va respublikadagi veterinariyaga doir boshqa qonun hujjatlari asosida o'tkazishi;

Ijrochi tomonidan xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilsa, Iste'molchining talabiga ko'ra ularni qo'shimcha to'lovlar siz tuzatishi;

Sifatsiz ish natijasida Iste'molchiga etkazilgan haqiqiy zararni ishning shartnomaviy bahosidan oshmaydigan so'mmada qoplashi;

Ko'rsatiladigan veterinariya xizmati (bajariladigan ishlar)ga oid ma'lumotlarni "Iste'molchiga aniq va tushunarli holda taqdim etishi shart. Ko'rsatiladigan veterinariya xizmatiga doir ma'lumotlar tanishish uchun qulay joyda bo'lishi va tarkibida quyidagilar albatta bo'lishi shart;

Veterinariya xizmati (ishlar)ning asosiy turlarini ro'yxati va ularni bajarilish shakli;

Taklif etilayotgan xizmatlarning narxnomasi yoki bahosi;

Mazkur turdag'i xizmatni ko'rsatishga huquq beruvchi maxsus ruxsatnomasi (litsenziya);

Preparatlar, dori-darmonlar va boshqa vositalarning namunalari;

Xizmat ko'rsatish paytida qo'llanuvchi veterinariya vositalari;

Xizmat (ishlar)ning bajarilishi va to'lovlar aks ettiruvchi namunaviy shartnomalar, kvitansiyalar, jetonlar, tilxatlar, talonlar va boshqa hujjatlarning nusxalari;

Ayrim toifadagi Iste'molchilar uchun ko'zda tutilgan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

Mahalliy hokimiyat organlarining hayvonlarga veterinariya xizmatlari ko'rsatish masalalariga doir me'yoriy hujjatlari va qarorlari;

Mahalliy ma'muriyat huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi idora haqidagi ma'lumotlar.

### **Xizmat (ish)lar uchun buyurtmalar qabul qilish va ularni rasmiylashtirish**

Ijrochi o'zining faoliyatiga mos keluvchi xizmat (ish)lar uchun buyurtmalar qabul qiladi.

Xizmatlar Ijrochi tomonidan shartnomaga asosida, abonenment xizmat ko'rsatishni rasmiylashtirish yoki belgilangan nusxadagi jeton, talon, kassa cheki, kvitansiyalar yoki boshqa hujjatlar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ijrochi ko'rsatiladigan xizmat (bajariladigan ish)lar mobaynida vujudga kelishi mumkin bo'lgan asoratlar, Ijrochiga bog'liq bo'lmagan holda ish sifatiga xavf soluvchi boshqa holatlar va ularning oldini olish

choralarini ko'rish to'g'risida Istemolchini o'z vaqtida ogohlantirishi shart.

Agar iste'molchi ijrochi tomonidan o'z vaqtida va asosli ravishda ogohlantirishga qaramay, xizmat ko'rsatish sifatiga xavf soluvchi holatlarni o'zgartirmasa yoki ularni oldini olish choralarini ko'rmasa, ijrochi shartnomani buzish va etkazilgan zararlarning qoplanishini talab etish huquqiga ega.

Agar Ijrochi ko'rsatiladigan xizmat (ish)lar mobaynida yuzaga keladigan asoratlar to'g'risida Iste'molchining o'z vaqtida ogohlantirilmasa va buni belgilangan shakldagi hujjatda qayd etmasa, u ko'rsatilgan xizmat (ish)lar natijasi uchun javobgar bo'ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Xususiy veterinariya xizmatini tashkil qilish tartibi?
2. Xususiy veterinariya xizmati bilan kimlar shug'ullanadi?
3. Xususiy veterinariya xizmati ko'rsatish qoidalari?
4. Xususiy veterinariya xizmati bilan shug'ullanish maqsadida litsenziya olish uchun kerakli hujjatlar?
5. Xususiy veterinariya xizmati bilan shug'ullanish uchun litsenziya kim tomonidan beriladi?

## VI-BOB. VETERINARIYA-SANITARIYA NAZORATI

### VETERINARIYA-SANITARIYA NAZORATINI TASHKIL QILISH

#### **Veterinariya-sanitariya nazoratining mohiyati va maqsadlari**

Veterinariya-sanitariya nazorati tashqi muhitning sog'lom va ozodaligini ta'minlash evaziga hayvon podalarini va chorva mahsulotlarini sog'lomlashtirish hamda insonlarni antropozoonoz kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan muhim veterinariya tadbirlar majmuidir.

Veterinariya-sanitariya nazorati - barcha turdag'i davlat, idoraviy va ishlab chiqarishdagi, xususiy veterinariya tashkilotlari faoliyatida amalga oshirladigan asosiy tadbirlardan hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Chorvachilikni rivojlantirish va sanitariya jihatidan sifatli mahsulot yetishtirishni ta'minlash;

2. Aholini antropozoonoz kasalliklardan himoyalash maqsadida chorva mollari va mahsulotlarining sog'lomligiga erishib, ijtimoiy muammoni hal etish. Bu muammoni amalga oshirishda sanitariya-epidemiologik stansiyasi xodimlari bilan hamkorlikda ish olib boradilar.

#### **Veterinariya-sanitariya nazoratining maqsadlari:**

1. Veterinariya-sanitariya qoidalarining buzilishini oldini olish;
2. Qoida buzilish oqibatlarini tugatish;
3. Sifatli va sog'lom mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlash.

#### **Veterinariya-sanitariya nazoratining turlari:**

Veterinariya-sanitariya nazoratini barcha davlat veterinariya tashkilotlari hamda chorvachilik xo'jaliklari va hissadorlik jamiyatlari mutaxassislari amalga oshiradilar.

Shuningdek maxsus veterinariya-sanitariya nazorati muassasalarini ham mavjud:

a) Veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari;

b) Transport veterinariya-sanitariya uchastkalari;

v) Chegara veterinariya-sanitariya nazorati punktlari;

g) Terini kuydirgi kasalligiga tekshirish laboratorilari va boshqa tegishli tashkilotlar shug'ullanadi.

Ularning barchasi O'zbekiston Respublikasi "Veterinariya to'g'risida"gi qonunning tegishli moddalaridagi qoidalariiga rioya qiladilar.

Davlat veterinariya tarmog'ida ishlovchi mutaxassislar veterinariya inspektorlari hisoblanadi va davlat veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshiradilar.

Ishlab chiqarish veterinariya nazorati - xo'jalik va korxonalardagi idoraviy va xususiy veterinariya xizmatlari tomonidan ish jarayonida amalga oshiriladi.

### **Davlat veterinariya nazorati obyektlari**

Quyidagilar davlat veterinariya nazorati ob'ektlari hisoblanadi:

- hayvonlar, ularning jinsiy va somatik hujayralari;
- hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilar;
- kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari, veterinariya dori va texnika vositalari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalar, patologik material, biologik chiqindilar, shuningdek suv, havo va tuproq namunalari;
- hayvonlarning yuqumli kasalliklarini qo'zg'atuvchilarni yuqtirish omillari bo'lishi mumkin bo'lgan transport vositalari, idishlar, joylash-o'rash materiallari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning veterinariya sohasidagi faoliyati;
- davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni etishtiradigan, tayyorlaydigan, ishlab chiqaradigan, saqlaydigan, qayta ishlaydigan, tashiydigan, realizatsiya qiladigan yoki ulardan foydalananadigan yuridik va jismoniy shaxslarning hududlari hamda ishlab chiqarish binolari;
- hayvonlar haydar o'tiladigan yo'llar, yo'naliishlar, biotermik o'ralar, hayvonot qabristonlari, hayvonlar boqiladigan yaylovlarning va sug'oriladigan joylarning hududlari;
- veterinariya hisobi va hisoboti bo'yicha hujjatlar;
- veterinariya dalolatnomalari, litsenziyalari, ruxsatnomalari, ma'lumotnomalari, guvohnomalari va sertifikatlari;
- davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni ishlab chiqarish, tayyorlash (so'yish), saqlash va qayta ishlashga doir normativ-texnik hujjatlar.

### **Hayvonlarni asrashda veterinariya-sanitariya nazorati**

Hayvonlarni asrashda veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshirish chorvachilikda veterinariya-sanitariya madaniyatini

rivojlantirishga bag'ishlangan bo'lib, barcha chorvadorlar va veterinariya xodimlari zimmasiga mas'uliyat yuklaydi.

Barcha chorvachilik fermalarida quyidagi vazifalarni bajarishni taqoza etadi:

- fermani sanitariya-gigiyena normalari asosida ko'rish;
- hayvonlarni asrash, oziqlantirish va sugorishda sanitariya-gigiyena talablarini bajarish;
- ishlab chiqarish jarayonida sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilish;
- mahsulot yetishtirishning sanitar qoidalariga rioya qilish;
- shaxsiy gigiyenaga rioya qilish;
- ferma hududida va molxonalarda veterinariya-sanitariya kunlarini o'tkazib turish.

### **Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni respublika ichida tashishda veterinariya kuzatuv hujjatlarini berish qoidasi**

Ushbu davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarga veterinariya kuzatuv hujjatlarini berish qoidasi (keyinga o'rnlarda - Qoida deb yuritiladi) Hayvonlar sog'ligini himoya qilish xalqaro tashkilotining "Erdagi hayvonlar sog'ligi to'g'risida"gi xalqaro kodeksi, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining Veterinariya sohasida hamkorlik qilish bo'yicha hukumatlararo Kengashining 1998 yil 22 oktyabrdan Toshkent shahrida imzolangan 79-92-sont qarori, "Veterinariya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagagi "Davlat veterinariya xizmati tizimida ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish tartib - taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 139-sont qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

**veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari** – veterinariya sohasidagi talablarni belgilovchi, davlat organlari va boshqa organlar, yuridik jismonyi shaxslar rioya etishi shart bo'lgan hujjatlar;

**veterinariya kuzatuv hujjatlari** - davlat veterinariya xizmati nazorati ostida tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududida barcha turdagi transport vositalarida tashishda veterinariya xizmati tomonidan

yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan veterinariya guvohnomasi, veterinariya ma'lumotnomasi;

**veterinariya guvohnomasi** - O'zbekiston Respublikasi davlat veterinariya xizmati tashkilotlari tomonidan barcha turdag'i nazoratdagi tovarlarga beriladigan belgilangan namunadagi hujjat bo'lib, u ushu tovarlar hayvonlarning o'ta xavfli va karantin kasalliklari bo'yicha sog'lom hududdanligini, hayvonotga mansub xom ashyo va mahsulotlar esa, bundan tashqari belgilangan tartibda veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tganligini hamda veterinariya-sanitariya talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

**veterinariya sertifikati** - nazoratdagi tovarlarni ishlab chiqargan mamlakatning davlat veterinariya vrachi tomonidan belgilangan namunada beriladigan xalqaro hujjat bo'lib, u nazoratdagi tovarlarning veterinariya-sanitariya jihatidan xavfsizligini hamda import qiluvchi davlatning veterinariya talablariga muvofiq davlatning hayvonlar yuqumli kasalliklari bo'yicha sog'lomligini tasdiqlaydi (kafolatlaydi);

**veterinariya, veterinariya-sanitariya talablari** - davlat hududini chetdan hayvonlarning yuqumli kasalliklari qo'zg'atuvchilarining kirib kelishidan hamda veterinariya-sanitariya jihatdan xavfli sanalgan nazoratdagi tovarlarning keltirilishidan himoyalashga qaratilgan, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy hisoblangan, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan import qilinuvchi nazoratdagi tovarlarga nisbatan quyiladigan talablar;

**hayvon** - barcha sut emizuvchilar, suv hayvonlari yoki parrandalar, shuningdek asalarilar;

**davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar** - hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, mikroorganizmlar shtammlari, ozuqalar va ozuqbop qo'shimchalar, veterinariya texnika vositalari;

**hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot hamda xom ashyo egalari** - faoliyati chorvachilikni tashkil etish va yuritish, hayvonlarni saqlash, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyonи, ozuqalarni, ozuqbop qo'shimchalarini hamda hayvonlarni davolash uchun mo'ljallangan veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'lik bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

**1-shakldagi veterinariya guvohnomasi beriladigan davlat  
veterinariya xizmati nazorati ostidagi yuklar ro'yxati**

1. Barcha hayvon turlari
2. Qushlar
3. Yovoyi hayvonlar
4. Laboratoriya, uy va zoopark hayvonlari
5. Dengiz hayvonlari
6. Asalari
7. Baliq va boshqa gidrobiontlar
8. Hayvon urug'i va embrioni
9. Urchtiilgan uvildiriq
10. Tuxum (inkbatsiyalangan)

**2-shakldagi veterinariya guvohnomasi beriladigan davlat  
veterinariya xizmati nazorati ostidagi yuklar ro'yxati**

1. Go'sht va go'sht mahsulotlari
2. Sut va sut mahsulotlari
3. Baliq mahsulotlari
4. Tuxum (iste'mol uchun)
5. Asal

**3-shakldagi veterinariya guvohnomasi beriladigan davlat  
veterinariya xizmati nazorati ostidagi yuklar ro'yxati**

1. Teri
2. Jun
3. Qil
4. Tivit, pat
5. Ichak va endokrin xom ashyosi
6. Qon
7. Suyak
8. Asalari mahsulotlari (asaldan boshqa);
9. Yem-xashak
10. Zoologiya, anatomiya, hayvonlar paleontologiya kolleksiyalari va kolleksiya predmetlari
11. Hayvonotga tegishli boshqa xom ashyolar

**I-shakl**

*Davlat veterinariya muassasalarini veterinariya vrachlari  
tomonidan hayvonlarga (shu jumladan parranda, balig,  
hasharotlarga), shuningdek ularni ko'paytirish uchun  
foydalaniladigan biologik obyektlarga beriladi*

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### **VETERINARIYA GUVOHNOMASI**

No

“\_\_\_” 20 \_\_\_ y.

Men, quyida imzo chekuvchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya guvohnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoniy shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, veterinariya ko'rige o'tkazilganda, jo'natilayotgan \_\_\_\_\_ (hayvonlar turi, biologik obyektlar  
ko'rsatiladi)

miqdoridagi \_\_\_\_\_ bosh (joy, dona) kasal va  
yuqumli kasalliliklar bilan kasalligiga shubhalanayotgan hayvonlar aniqlanmagan va ularni

(jo'natuvchi tashkilot nomi, to'liq manzili,

shu jumladan aholi punkti, ko'cha nomi va uy raqami, tuman, viloyat)

hayvonlar o'ta xavfli va karantin kasalliklari bo'yicha sog'lom hududlardan jo'natilmoqda:

hayvonlardan olingan material veterinariya laboratoriyasida tekshirilgan.

(laboratoriya nomi ko'rsatiladi)

va quyidagi natijalar olingan:

Kassalik nomi

Tekshiruv sanasi

Sinov usuli

Sinov natijalari

Hayvonlar quyidagilarga qarshi emlangan:

«\_\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_\_» 20 \_\_\_ y.

Hayvonlar parazitlarga qarshi ishlov berilgan:

«\_» 20 y.  
«\_» 20 y.  
«\_» 20 y.

Illova qilinuvchi o'rov materiallari va yuklar bevosita ta'minotchi-xo'jalikdan olingen va yuqumli kasaliliklar qo'zg'atuvchilar bilan kontaminatsiyalanmagan.

Hayvonlar jo'natilmogda \_\_\_\_\_

(yuborilgan joyi va oluvchi nomi)

spetsifikatsiya bo'yicha (yuk xati, nakladnoy) № \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ yil  
quyidagi maqsadda \_\_\_\_\_

(bo'rdoqiga boqish, ko'paytirish, sotish, so'yish va boshq.)

hamda \_\_\_\_\_

(temir yo'l, avtomobil, havo transportidi,

avtomashina, vagon raqami, kema nomi, reys raqami va hokazo)  
marshruti bo'yicha \_\_\_\_\_

(asosiy yo'nalish punktlari ko'rsatiladi)

Transport vositalari tozalangan va dezinfeksiyalangan.

#### ALOHIDA QAYDLAR:

(o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan og'rigan hayvonlarni jo'natishda,

alohida sharoitlarda va maxsus ruxsatnoma (ko'rsatma) bo'yicha tashilishida to'ldiriladi)

(davvetnazorat organlarining ortish, tushirish, yo'nalish vaqtidagi qaydlari)

Guvohnoma ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi. Guvohnomaning nusxalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib bo'zilishlari aniqlanganda, guvohnoma aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga beriladi.

Veterinariya vrachi

M.O.

(imzo va lavozimi to'liq nomi,

familiyasi, ismi, sharifi)

I-shakl

Davlat veterinariya muassasalarini veterinariya vrachlari  
tomonidan hayvonlarga (shu jumladan parranda, balig,  
hasharotlarga), shuningdek ularni ko'paytirish uchun  
foydalilaniladigan biologik obyektilarga beriladi

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA GUVOHNOMASI KORESHOGI

Nº

"\_\_\_" 20 \_\_\_ y.

Men, qo'yida imzo chekuvchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya guvohnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoni shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, veterinariya ko'rige o'tkazilganda, jo'natilayotgan \_\_\_\_\_  
(hayvonlar turi, biologik ob'ektlar  
ko'rsatiladi)  
miqdoridagi \_\_\_\_\_ bosh (joy, dona) kasal va  
yuqumli kasalliklar bilan kasalligiga shubhalanayotgan hayvonlar aniqlanmagan va ulami  
(jo'natuvchi tashkilot nomi, to'liq manzili,

shu jumladan aholi punkti, ko'cha nomi va uy raqami, tuman, viloyat)

hayvonlar o'ta xavfli va karantin kasalliklari bo'yicha sog'lom hududlardan jo'natilmoqda:

hayvonlardan olingan material veterinariya laboratoriyasida tekshirilgan.

(laboratoriya nomi ko'rsatiladi)

va quyidagi natijalar olingan:

Kassalik nomi

Tekshiruv sanasi

Sinov usuli

Sinov natijalari

Hayvonlar quyidagilarga qarshi emlangan:

«\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_» 20 \_\_\_ y.

«\_\_» 20 \_\_\_ y.

Hayvonlar parazitlarga qarshi ishlov berilgan:

«\_» 20 y.  
«\_» 20 y.  
«\_» 20 y.

Illova qilinuvchi o'rov materiallari va yuklar bevosita ta'minotchi-xo'jalikdan olingan va yuqumli kasaliklar qo'zg' atuvchilar bilan kontaminatsiyalanmagan.

Hayvonlar jo'natilmoqda \_\_\_\_\_  
(yuborilgan joyi va oluvchi nomi)

spetsifikatsiya bo'yicha (yuk xati, nakladnoy) № \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ " yil  
quyidagi maqsadda \_\_\_\_\_  
(bo'rdoqiga boqish, ko'paytirish, sotish, so'yish va boshq.)

hamda \_\_\_\_\_  
(temir yo'l, avtomobil, havo transportidi,  
avtomashina, vagon raqami, kema nomi, reys raqami va hokazo)  
marshruti bo'yicha \_\_\_\_\_  
(asosiy yo'naliш puntlari ko'rsatiladi)  
Transport vositalari tozalangan va dezinfeksiyalangan.

#### ALOHIDA QAYDLAR:

(o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan og'rigan hayvonlarni jo'natishda,  
alohida sharoitlarda va maxsus ruxsatnoma (ko'rsatma) bo'yicha tashilishida to'ldiriladi)  
  
(davvetnazorat organlarining ortish, tushirish, yo'naliш vaqtidagi qaydlari)

Guvohnoma ortish, yo'naliш davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi. Guvohnomaning nusxalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib bo'zilishlari aniqlanganda, guvohnoma aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga beriladi.

Veterinariya guvohnomaisni oldim:

(familiyasi, ismi, otasining ismi)  
(lavozimi)  
(sana va imzo)

(vetvrachning familiyasi, ismi, otasining ismi)  
(lavozimi)  
(sana va imzo)

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi sub'ekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA GUVOHNOMASI

№

"\_\_\_" 20 \_\_\_\_ y.

Men, quyida imzo chekuvchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya guvochnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoniy shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, \_\_\_\_\_  
(mahsulot nomi)

miqdoridagi \_\_\_\_\_  
(joy, dona, kg) (o'rami) (tamg'alash)

ishlab chiqarilgan \_\_\_\_\_  
(tashkilot nomi, egasining f.i.sh., manzili)  
(ishlab chiqarilgan sanasi)

to'liq hajmda veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazildi.

"veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tgan xom ashyodan tayyorlangan" (keraksizi o'chirilsin) hamda yaroqli deb hisoblanadi \_\_\_\_\_

(chechklovlar siz yoki cheklangan totish uchun, sabablari ko'rsatiladi,

yoki qayta ishalsh uchun votsanekspertiza qoidalariga muvofiq)  
hamda jo'natilmoqda \_\_\_\_\_  
(transport turi, yo'nalish marshruti, tashish shartlari)

bo'yicha \_\_\_\_\_  
(olvuchining nomi va manzili) (mahsulot transport hujjati nomi, raqami va berilgan  
sana)

Mahsulot qo'shimcha laboratoriya sinovlaridan o'tgan \_\_\_\_\_  
(nomi)

(laboratoriya nomi, ekspertiza raqami va tekshiruv natijalari)

ALOHIDA QAYDLAR: \_\_\_\_\_  
(hududning epizootik holati ko'rsatiladi, mahsulotni hududdan chetga chiqarishga,

yuqori davvetinspektori tomonidan berilgan ruxsatnoma sanasi va raqami)

(tamg'a raqami va boshqalar keltiriladi)

Transport vositasi tozalangan va dezinfeksiyalangan.

Guvochnoma ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi. Guvochnomaning nusxalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib bo'zilishlari aniqlanganda, guvochnoma aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga beriladi.

Veterinariya vrachi

M.O.:

(imzo va lavozimi to'liq nomi,

familiyasi, ismi, sharifi)

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA GUVOHNOMASI KORESHOGI

No

" " 20 \_\_\_\_ y.

Men, quyida imzo chekvuvchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya guvohnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoniy shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, \_\_\_\_\_  
(mahsulot nomi)

miqdordagi \_\_\_\_\_ (joy, dona, kg) (o'rami) (tamg'alash)  
ishlab chiqarilgan \_\_\_\_\_ (tashkilot nomi, egasining f.i.sh., manzili)

(ishlab chiqarilgan sanasi)  
to'liq hajmda veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazildi.  
"veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tgan xom ashyodan tayyorlangan" (keraksizi o'chirilsin) hamda yaroqli  
deb hisoblanadi \_\_\_\_\_

(chechklovlar sиз yoki cheklangan sotish uchun, sababli ko'rsatiladi,  
yoki qayta ishalsh uchun votsanekspertiza qoidalariiga muvofiq)

hamda jo'natilmoqda \_\_\_\_\_ (transport turi, yo'nalish marshruti, tashish shartlari)  
bo'yicha \_\_\_\_\_ (oluvchining nomi va manzili) (mahsulot transport hujjati nomi, raqami va berilgan sana)  
Mahsulot qo'shimcha laboratoriya sinovlaridan o'tgan  
(nomi)

(laboratoriya nomi, ekspertiza raqami va tekshiruv natijalari)  
ALOHIDA QAYDLAR: \_\_\_\_\_ (hududning epizootik holati ko'rsatiladi, mahsulotni hududdan chetga chiqarishga,

yuqori davvetinspektori tomonidan berilgan ruxsatnomma sanasi va raqami  
(tamg'a raqami va boshqalar keltiriladi)

Transport vositasi tozalangan va dezinfeksiyalangan.  
Guvohnoma ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi. Guvohnomaning  
nusxalarli haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tarib bo'zilishlari aniqlanganda, guvohnoma aniqlangan kamchiliklar  
ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga  
beriladi.

Veterinariya guvohnomaisni oldim:

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

(vetvrachning familiyasi, ismi, otasining ismi)

(lavozimi)

(lavozimi)

(sana va imzo)

(sana va imzo)

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA GUVOHNOMASI

№

" " 20 y.

Men, quyida imzo chekuvchi veterinariya vrachi, ushuu veterinariya guvohnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoniy shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki,

(texnik xom ashiyo yoki ozuqalar nomi)

miqdoridagi

(joy, dona, kg)  
(tamg'lash)

(o'rami)

kelib  
chiqishi

(qushxonadan, o'lgan, kasal yoki sog'lom hayvonlardan olingen)

Davvetxizmati nazorati ostida ishlab chiqilgan (tayyorlangan)  
(ishlab chiqaruvchi nomi, egasining FISH, manzili)

va yaroqli deb hisoblanadi

(cheklovlsiz sotish, qayta ishlash va foydalanish uchun agar cheklovlar bo'lsa-sababi  
va tartibi ko'rsatiladi,

hamda  
jo'natilmoqda

yoki qayta ishhalsh uchun vetanekspertiza qoidalariga muvofiq)

(transport turi, yo'nalish marshruti)

bo'yicha

(olvuchining nomi va manzili)

Xom  
o'tkazildi

(mahsulot transport hujjati nomi, raqami va berilgan sana)

ashyo

(ozuqa)

(dezinfeksiya, yuvish, konservatsiyalash - sinov usullari va preparatlar nomi,

ALOHIDA  
QAYDLAR:

laboratoriya nomi, ekspertiza raqami va tekshiruv natijalari ko'rsatiladi)

(hududning epizootik holati ko'rsatiladi, mahsulotni hududdan chetga chiqarishga,

yuqori davvetinspektori tomonidan berilgan ruxsatnomma sanasi va raqami)

(tamg'a raqami va boshqalar keltiriladi)

Transport vositasi tozalangan va dezinfeksiyalangan.

Guvohnoma ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib olvuchiga beriladi.  
Guvohnomaning nusxalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib bo'zilishlari aniqlanganda, guvohnoma  
aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti  
bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga beriladi.

Veterinariya vrachi

M.O.

(imzo va lavozimi to'liq nomi,

familiyasi, ismi, sharifi)

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA GUVOHNOMASI KORESHOGI

No

" \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ y.

Men, quyida imzo chekvuchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya guvohnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoniy shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, \_\_\_\_\_  
(texnik xom ashyo yoki ozuqalar nomi)

miqdoridagi \_\_\_\_\_  
(joy, dona, kg) (o'rami)  
(tamg'alash)

kelib chiqishi \_\_\_\_\_  
(qushxonadan, o'lgan, kasal yoki sog'lom hayvonlardan olingan)

Davvetxizmati nazorati ostida ishlab chiqilgan (tayyorlangan) \_\_\_\_\_  
(ishlab chiqaruvchi nomi,  
egasining FISH, manzili)

va yaroqli deb hisoblanadi \_\_\_\_\_  
(cheklovlarsiz sotish, qayta ishslash va foydalanish uchun agar cheklovlar bo'lsa-sababi va  
tartibi ko'rsatiladi,

hamda jo'natilmoqda \_\_\_\_\_  
(transport turi, yo'nalish marshruti)

bo'yicha \_\_\_\_\_  
(oluvchining nomi va manzili)

Xom ashyo (ozuqa) o'tkazildi \_\_\_\_\_  
(mahsulot transport hujjati nomi, raqami va berilgan sana)

ALOHIDA QAYDLAR: \_\_\_\_\_  
(dezinfeksiya, yuvish, konservatsiyalash – sinov usullari va preparatlar nomi,  
laboratoriya nomi, ekspertiza raqami va tekshiruv natijalari ko'rsatiladi)

laboratoriya nomi, ekspertiza raqami va tekshiruv natijalari ko'rsatiladi)

yuqori davvetinspektori tomonidan berilgan ruxsatnomma sanasi va raqami)

(tamg'a raqami va boshqalar keltiriladi)  
Transport vositasi tozalangan va dezinfektsiyalangan.  
Guvohnoma ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi. Guvohnomaning  
nuxsalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib buzilishlari aniqlanganda, guvohnoma aniqlangan kamchiliklar  
ko'rsatilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga  
beriladi.

Veterinariya guvohnomasini oldim:

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

(vetvrachning familiyasi, ismi, otasining ismi)

(lavozimi)

(lavozimi)

(sana va imzo)

(sana va imzo)

Davlat veterinariya muassasalarini hamda  
ishlab chiqarish xizmati veterinariya vrachlari  
tomonidan davlat veterinariya xizmati nazorati  
ostidagi tovarlarga beriladi

O'zbekiston Respublikasi  
Davlat veterinariya nazorati

(O'zbekiston Respublikasi subyekti)

(tuman, shahar)

(veterinariya muassasasining nomi)

### VETERINARIYA MA'LUMOTNOMASI

No

" " 20 \_\_\_\_ y.

Men, quyida imzo chekuvchi veterinariya vrachi, ushbu veterinariya ma'lumotnomasini berdim

(kimga berildi, yuridik yoki jismoni shaxs F.I.SH.)

shu haqidaki, \_\_\_\_\_  
(tovar nomi)

midqordi \_\_\_\_\_  
(tirik hayvonlarda: bosh, yoshi, jinsi, turi, agarda mahsuloti bo'lsa: joy, dona, kg, o'ram, tamg'a)  
keilib chiqishi \_\_\_\_\_

(hudud nomi aniq ko'rsatiladi: MFY, QFY, ko'cha nomi, korxonha, tashkilot, xo'jalik nomi va x.k.)  
Davvetxizmati nazorati ostida ishlab chiqilgan (tayyorlangan) \_\_\_\_\_  
(ishlab chiqaruvchi nomi,  
egasining FISH, manzili)

va yaroqli deb hisoblanadi \_\_\_\_\_  
(boqish, so'yish, cheklolvarsiz sotish, qayta ishlash va foydalanish uchun  
agar cheklolvar bo'lsa-sababi va tartibi ko'rsatiladi,

jo'natilmoqda \_\_\_\_\_  
(transport turi, yo'nalish marshruti)

qaerga \_\_\_\_\_  
(oluvchining nomi va manzili)

bo'yicha \_\_\_\_\_  
(mahsulot transport hujjati nomi, raqami va berilgan sana)

Transport vositasini tozalangan va dezinfeksiyalangan.

Ma'lumotnomani ortish, yo'nalish davomida nazorat uchun va yuk qabul qilib oluvchiga beriladi.  
Ma'lumotnomaning nusxalari haqiqiy emas. Blank to'ldirishda tartib buzilishlari aniqlanganda,  
guvohnoma aniqlangan kamchiliklar ko'satilgan holda berilgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi  
sub'ekti bo'lgan davlat veterinariya inspektoriga beriladi.

**Ma'lumotnomani faqat tuman (shahar) hududida davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi  
tovarlarini tashish uchun beriladi.**

Veterinariya vrachi

M.O.

(imzo va lavozimi to'liq nomi,

familiyasi, ismi, sharifi)

### **Nazorat savollari:**

1. Veterinariya-sanitariya nazoratining mohiyati va maqsadi qanday?
2. Veterinariya-sanitariya nazoratining ob'ektlarini aytинг?
3. Hayvonlarni asrashda veterinariya-sanitariya nazorati?
4. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarni respublika ichida tashishda qaysi veterinariya kuzatuv hujjatlari beriladi?
5. Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarga veterinariya kuzatuv hujjatlari kimlar tomonidan beriladi?
6. Veterinariya kuzatuv hujjatlariiga nimlar kiradi?
7. Davlat chegarasida veterinariya-saniatariya nazorati?

## **CHORVACHILIK XO'JALIKLARIDA, TRANSPORT VA DAVLAT CHEGARASIDA VETERINARIYA-SANITARIYA NAZORATI**

### **Hayvonlarning xom ashyolarini tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarda veterinariya-sanitariya nazorati**

Nazorat qilinadigan xom ashyolarga - teri, jun, pat va parlar, suyak va boshqalar kirib, ayniqsa, chetdan kelgan yoki kelib chiqishi aniq bo'Imaganlari qat'iy tartibda har tomonlama tekshiriladi. Mazkur korxonalarning o'z veterinariya vrachlari bo'lishi mumkin yoki Davlat veterinariya tashkilotlaridan yollab ishlatalishadi (teri zavodlari va boshqalar).

Terilar kuydirgiga tekshirilishi shart. Veterinariya laboratoriyasida pritsepitatsiya reaksiyasi o'tkaziladi.

### **Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo egalarining huquqlari**

Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari:

veterinariya xizmati ko'rsatilishi to'g'risida tegishli veterinariya xizmatlari, shuningdek xususiy veterinariya faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari bilan shartnomalar tuzish;

hayvonlarning kasallikka chalinishi holati, epizootik vaziyat to'g'risida, shuningdek hayvonlarda, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoda o'tkazilgan maxsus tekshirishlar natijalari haqida veterinariya xizmatidan axborot olish;

hayvonlarni, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoni, ozuqalarni, ozuqabop qo'shimchalarini, veterinariya dori va texnika vositalarini veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq olish hamda realizatsiya qilish, shu jumladan xorijda olish va realizatsiya qilish;

davlat organlari va boshqa organlarning qonunga xilof qarorlari, ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud bevosita sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Hayvonlarning, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyoning egalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **Avtomobil yo'llari va tuproq yo'llarda veterinariya nazorati**

Mahalliy Davlat veterinariya tarmog'i mutaxassislari tomonidan amalga oshirilib, hayvon yoki mahsulot harakatlanadigan hududlardagi Bosh veterinariya vrachlari avvaldan ogohlantiriladi va viloyatlar orasidagi chegaralarda veterinariya xodimi ishtirokida veterinartekshiruv punktlari tashkil qilinadi. Ular hayvonlarni tekshirishi, yuqumli kasalliklarga taxmin bo'lganda zaruriy choralar ko'rish huquqiga egadirlar. Shuningdek, tashilayotgan yoki harakatlanayotgan hayvon va mahsulotlarga zaruriy hujjat bo'lmasa, punkt nazoratchilariga ularni saqlash va tegishli veterinariya tashkilotlariga xabar qilish huquqi berilgan.

Mollarni mavsumiy yaylovlarga haydash paytida esa suruvlarni veterinariya xodimlarining o'zлари boshlab yurishlari lozim. Bu esa veterinariyaga bog'liq bo'lgan muammolarni oson hal qilishda qo'l keladi.

## **Temir yo'l va daryo transportida veterinariya-sanitariya nazorati**

Temir yo'l va daryo transportida veterinariya nazorati Veterinariya va chovvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan aloqa yo'llari va suv floti rahbariyati bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Buning uchun yirik temir yo'l stansiyalari va portlarda veterinariya-sanitariya uchastkalari tashkil qilinib, nazorat o'tkazadigan o'z hududiy chegarasiga ega bo'ladi.

Mazkur uchastkalarning boshliqlari - veterinariya vrachi bo'ladi va ushbu yo'lda Bosh Davlat veterinariya inspektori hamdir. Uning muovini esa bosh epizootolog hisoblanadi. Veterinariya-sanitariya uchastkalarining xodimlar hayvon va parrandalarni hamda chorva mahsulotlarini ko'rikdan o'tkazish bilan birga ularni ortish, tashish va tushurishda tegishli veterinariya-sanitariya qoidalarini bajarilishini nazorat qiladi. Ushbu veterinariya-sanitariya uchastkalarida hayvon va chorva mahsulotlarini ko'rikdan o'tkazish jurnallari yuritilib, veterinariya qonuniga zid hollarda uchastka boshlig'i tomonidan yutuq qilinishi yoki jarima solinishi mumkin.

Dengiz flotlarida veterinariya nazorati mahalliy davlat veterinariya tashkiloti tomonidan bajarilib, eksport va import muammolalari esa chegara davlat veterinariya xizmatiga buysunadi.

## **Davlat chegarasida veterinariya-sanitariya nazorati**

Davlatlararo hayvonlarni, chorva mahsulotlari va ozuqalarini eksport hamda import jarayonlari chegara veterinariya nazorati punktlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu turdag'i veterinariya punktlari chet el havo yo'llari bilan bog'langan aeroportlarda ham tashkil qilinadi. Chegara veterinariya nazorat punktlari davlat byudjeti hisobidan faoliyat ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasiga bo'ysunadi. Ularning bosh vazfiasi davlatimiz hududida chetdan yuqumli kasallik kiritmaslik va o'zidan chetga sog'lom hayvon hamda mahsulot jo'natishdir.

Chegara veterinariya nazorati punktlari chetdan o'tkazilgan hayvon va mahsulotlarini ko'rikdan o'tkazishi, karantinda saqlashi va tegishli veterinariya-sanitariya ishlovi berishlari lozim. Kasal mollarni esa saqlab davolaydilar.

Punkt veterinariya xodimlari jo'natilayotgan hayvonning guvohnomasi asosida unga veterinariya sertifikati hujjatini tayyorlaydi va ruxsat beradi.

## **Bozorlarda veterinariya-sanitariya nazorati**

Bozorlardagi veterinariya-sanitariya nazorati veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriysi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyalari shaharlardagi, tuman markazlaridagi va boshqa dehqon bozorlarida tashkil etilgan.

Laboratoriya xodimlarining vazifalari bozorga keladigan barcha chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari hamda sotish joylariga rastalarining sanitari holatini nazorat qiladi.

Laboratoriyaada veterinariya vrachi, veterinar-sanitar, laborant shtatlari mavjud bo'ladi.

Bozorda sotiladigan barcha mahsulotlarning iste'molga yaroqligiga laboratoriya mudiri javob beradi. Go'sht mahsulotlariga kleymolar qo'yilsa, boshqa mahsulotlarning sifatiga ma'lumotnomma beriladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Transportda veterinariya-saniatariya nazorati?
2. Avtomobil va tuproq yo'llarda veterinariya-saniatariya nazorati?
3. Temir yo'l va daryo transportida veterinariya-sanitariya nazorati?

4. Hayvonlarning xom ashyolarini tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarda veterinariya-sanitariya nazorati?
5. Bozorlarda veterinariya-sanitariya nazorati?
6. Hayvonlarning xom ashyolarini tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarda veterinariya-sanitariya nazorati?

## ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA VETERINARIYA SANITARIYA NAZORATI

### **Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalarida veterinariya-sanitariya nazorati**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 8 maydagi "Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalari faoliyatini tartibga solish hamda iste'mol bozoriga go'sht va go'sht mahsulotlarini yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 386-sون qaroriga muvofiq quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda chorvachilik sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida dehqon va fermer xo'jaliklari, ayniqsa, aholi qaramog'idagi chorva hayvonlari soni, ulardan olinadigan mahsulot miqdorining oshishi hisobiga qo'shimcha daromad olish hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lган ehtiyojini qondirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqdi.

Shu bilan birga, hududlarda faoliyat yuritib kelayotgan hayvonlarni so'yish va go'sht sotish bilan shug'ullanuvchilar tomonidan aholini go'sht bilan ta'minlashda veterinariya-sanitariya norma va qoidalariga to'liq rioya qilmaslik natijasida xavfsizligi hamda sisati kafolatlanmagan go'sht va go'sht mahsulotlarining savdoga chiqarish holatlari ham uchrab kelmoqda.

Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonasi faoliyatini tashkil etishda hayvonlarning sog'lig'ini va go'sht, go'sht mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish maqsadida ishlab chiqarishdagi veterinariya xizmati tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonasi tomonidan hayvonlarni so'ydirish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, shu jumladan aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hayvonlar saqlanayotgan joylardan, shu jumladan xo'jaliklar, mol bozorlari va xonardonlardan so'yish korxonasiga keltirish hamda go'shtni realizatsiya qilish joyiga, shu jumladan bozorlar, savdo majmualari va boshqa savdo ob'ektlari hamda aholi xonardonlariga etkazib berish bo'yicha transport va boshqa servis xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish tavsiya etiladi.

Hayvonlarni tijorat maqsadlari uchun ixtisoslashtirilgan va mini so'yish korxonalarida so'ydirish majburiydir. Ruxsat etilmagan joylarda, shu jumladan uy sharoitida hayvonlarni tijorat maqsadlari uchun so'yish qat'iyan taqiqilanadi.

Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalarida quyidagi asosiy va yordamchi binolar nazarda tutilishi kerak:

hayvonlarni tushirish joyi;

hayvonlarni so'yishdan oldin ko'rikdan o'tkazish uchun qabul qilish maydoni:

hayvonlarni so'yishdan oldin saqlash maydoni (bostirma);

texnologik jarayonlar ketma-ketligi saqlangan holda, belgilangan tartibda mexanizatsiyalashgan uskunalar joylashtirilgan hayvonlarni so'yish binosi;

kasalliklarga gumon qilingan hayvonlarni alohida saqlash uchun bino (joy);

hayvonlarni avtomatlashtirilgan yoki yarim avtomatlashtirilgan harakatsizlantirish va terisini shilish uskunasi, arra va boshqa zarur jihozlari bo'lган so'yish joyi (so'yish binosi ichida);

so'yilgan hayvonni bo'laklarga ajratish joyi, go'shtni sovutish, muzlatish va vaqtincha saqlash uchun katta hajmdagi muzlatgich, tuz saqlanadigan ombor, muzlatilgan go'sht saqlanadigan muzlatgichli-ombor, shartli-yaroqli go'shtni zararsizlantirish uchun bino (joy);

ichak sexi, terini tuzlash sexi;

rahbar, veterinariya vrachi, ishchi-xodimlar uchun alohida xonalar. dush xojatxona qon namunalarini tekshirish uchun veterinariya laboratoriysi;

ichak, oshqozon ichini tozalash joyi, go'ng saqlash joyi, tozalash hamda boshqa joy va qurilmalar bo'lishi kerak.

Korxonaga zoonoz kasalliklar bilan kasallangan so'yiladigan (veterinariya qoidalariiga ko'ra so'yishga ruxsat etiladigan) hayvonlar keltirilganida, barcha hollarda o'rnatilgan profilaktika choralariga rioya qilinishi kerak.

### **Hayvonlarni so'yishda veterinariya-sanitariya nazorati**

Hayvonlarni so'yishda veterinariya-sanitariya nazoratining asosiy maqsadi insonlarning sog'ligini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, birorta hayvon yoki go'sht tanasi veterinariya ko'rigi va ekspertizasisiz so'yishga yoki sotishga ruxsat etilmaydi. Hayvonlarni so'yishda veterinariya qonunchiligidagi ta'kidlanganidek, veterinariya-sanitariya nazorati amalga oshirilishi shart.

Hayvonlarni so'yishdan oldin belgilangan muddat och saqlanib, termometriya o'tkaziladi. 14 kundan kichik bo'lган hayvonlar go'sht uchun so'yilishiga ruxsat berilmaydi. Go'sht uchun sog'lom hayvonlarni

o'yishga ruxsat etiladi. Kasal va yuqumli kasallikka chalinganlikda yuqum qilinayotgan yoki o'lim xavfi (og'ir jarohat, suyak sinishi, kuyish va boshqa jarohatlar) bo'lgan hayvonlarni so'yish tegishli yo'riqnomalar va mazkur qoidalarda nazarda tutilgan hollarda (go'sht inson iste'moliga uxsat etilganida) ruxsat etiladi.

Quyidagi hollarda hayvonlarni go'sht uchun so'yish taqiqlanadi:

Veterinariya vrachining ruxsati bo'limganida;

kuydirgi, emfizematozli karbunkul, yirik shoxli hayvonlar o'lati, tuyalar o'lati, qutirish, qoqshol, xavfli shish, bradzot, qo'ylarning enterotoksemyasi, yirik shoxli hayvonlar va qo'ylarning kataral bezgaki (til ko'karishi), cho'chqalarniig afrika o'lati, tulyaremiya, botulizm, sap, epizootik limfangoit, melioidoz (soxta sap), miksomatoz va quyonlarning gemorragik kasalligi, parranda grippi bilan kasallangan yoki gumon qilingan hayvonlar;

o'lim talvasasida bo'lgan hayvonlar;

kuydirgi kasalligiga qarshi emlangan va davolangan hayvonlarni emlashdan (davolashdan) keyin 14 kun davomida, oqsil kasalligiga qarshi emlanganda, emlanishdan keyin 21 kun davomida;

malleinizatsiya qilinmagan bir tuyoqli hayvonlar. Malleinizatsiya qilinmagan hayvonlar so'yilganda go'sht va boshqa mahsulotlari utilizatsiyaga yuboriladi.

So'yish uchun yuborilayotgan hayvonlar ta'minlovchi xo'jalikda belgilangan tartibda veterinariya ko'rigan o'tkazilishi kerak.

Brutsellyoz va sil kasalliklari bilan kasallangan, klinik belgilar namoyon qilgan, kasallik tashxisi aniqlanmagan, yuqumli bo'limgan kasallikka chalingan, tana harorati yuqori yoki past bo'lgan hayvonlar, ornitoz, gripp, nyukasl kasalligiga chalingan parrandalarni so'yish korxonalariga yuborish taqiqlanadi.

### **So'yilgan hayvon tanalari va a'zolarining so'yishdan keyin veterinariya-sanitariya ko'rigi**

Xo'jalikdagi barcha toifadagi hayvonlar so'yilganidan so'ng ularning go'shti va boshqa mahsulotlarini veterinariya vrachi so'yishdan keyingi veterinariya - sanitariya ekspertizasini o'tkazishi shart.

So'yishdan keyin veterinariya - sanitariya ekspertizasi o'tkazilgandan so'ng "Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalarida so'yish haqida" 200-shakldagi ma'lumotnomaga beriladi.

So'yish va so'yilgan hayvonni bo'laklarga ajratish uchun harakatlanadigan liniyasi bo'limgan ixtisoslashtirilgan so'yish

korxonalarida so'yilgan hayvonlar kallasi, o'pka - jigar va qorataloq, veterinariya tekshiruvi uchun maxsus ilgaklarga osilishi yoki stolga joylashtirilishi kerak.

So'yilgan hayvon va ichki organlarining veterinariya tekshiruvi uchun joylar qulay va yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak, mol kasalligi aniqlanganida ularni qayd qilish uskunalari bo'lishi kerak, sterilizatorlar (pichoq, ilgak va boshqa anjomlarni zararsizlantirish uchun), issiq va sovuq suvli qo'l yuvish joylari,sovun, qo'l va sochiqlarga ishlov berish uchun dezinfeksiyalovchi eritmali baklar bo'lishi kerak.

Harakatlanadigan konveyer bilan jihozlangan hayvonlarni qayta ishlash liniyasida qoidalarning ko'rsatilgan bo'limida nazarda tutilgan veterinar tekshiruvining biron - bir ish joyi bo'lmaganida yoki bunday ish joyining kerakli veterinariya xizmati mutaxassisi bilan ta'minlanmagan hollarda, bu liniyada hayvonlarni qayta ishslashga ruxsat berilmaydi.

Texnologik sxema va quyidagi talablarga ko'ra veterinariya tekshiruvi uchun kalla, ichki organlar korxona ishchilarini tomonidan tayyorlanishi kerak:

yirik shoxli hayvon kallasi tanasidan ajratiladi, pastki jag' kesishma burchagi bilan osib qo'yiladi, tilini tepasidan va yonlaridan shikastlamay og'iz bo'shlig'idan erkin tushib turadigan qilib kesib olinadi va tekshirilish kerak bo'lgan barcha limfa tugunlari saqlab qo'yiladi;

ot kallasi tanasidan ajratiladi va kalladan tili ajratilgandan so'ng butunligini saqlagan holda burun pardadevori chopiladi;

cho'chqa kallasi bir oz kesib so'yishdan keyingi veterinariya ekspertizasi tugagunicha tanasi bilan birga qoldiriladi, terisini shilganda yoki kuydirgandan so'ng kallasi ensa va chap yuzi tomonidan kesib ensa atlant bo'g'imini chiqariladi, og'iz bo'shlig'idan tilni kekirdak bilan kesib olinadi va tekshiruv oxirigacha olib qo'yiladi;

buzoq, qo'y va echki kallalari ensa - atlant bo'g'imidan ajratiladi, ichki organlari tekshiruvi tugagunicha tana bilan birga qoldiriladi;

tanadan chiqarib olingan o'pka va kekirdak, yurak va jigar veterinariya tekshiruvi tugagunicha bir-biri bilan tabiiy bog'lanib turishi kerak (liver) va ularda limfa tugunlari saqlab qolinishi kerak;

konveyer stollariga quyiladigan ichki organlarni veterinariya vrachi tana bilan birga tekshirishi kerak.

## **Hayvon gavdalari (go'sht)ni veterinariya tamg'asi va shtampi bilan tamg'alash**

Barcha turadgi chorva mollarining, yovvoyi hayvon va arrandalarning go'shti va go'sht mahsulotlari tegshili yo'riqnomalar yicha qat'iy tarzda veterinariya tamg'asi va shtampi bilan amg'alanishi shart.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini ovalsimon tamg'a bilan amg'alanish vakolati davlat veterinariya tashkilotlarida ishlovchi, respublika buysunuvidagi viloyat va shahar veterinariya idoralarining vakillari ishtirokida veterinariya-sanitariya ekspertizasi bo'yicha attestatsiyadan o'tgan va tegishli tuman (shahar) bosh veterinariya vrachi va feldsherlarga beriladi. Boshqa tashkilot va muassasalarning veterinariya vrachi va feldsherlari uy sharoitida yoki qushxonalarda so'yilib, go'sht kombinati yoki boshqa qayta ishslash korxonalariga jo'natilayotgan go'sht va go'sht mahsulotlariga davlat veterinariya xizmati nazoratida "Dastlabki ko'rik" tamg'asini bosishga haqidirlar.

Veterinariya tamg'asi va shtamplari belgilangan tartibda tuman bosh veterinariya inspektorining yozma ruxsatnomasi bo'yicha bronza yoki boshqa zanglamaydigan metaldan tayyorlanib, chiziqlar, raqam va xarflar aniq bilinishi talab etiladi.

Go'shtlarni tamg'alanish va veterinariya tamg'asi hamda shtampini tayyorlatish uchun vakolatli veterinariya vrachlari va feldsherlarining ro'yxati respublika bo'ysunuvidagi viloyat va shahar bosh veterinariya inspektorlari tomonidan tasdiqlanadi.

Go'shtlarni tamg'alanish qat'iy tarzda veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilgandan keyingina bajariladi.

Tamg'alar vakolatli veterinariya vrachi (feldsheri)da temir shkaflarda saqlanib, begona kishilar qo'liga tushmasligi talab etiladi.

Go'shtlarni tamg'alanishda Sog'liqni saqlash vazirligi idoralari ruxsat etgan buyoqlardan foydalilanadi.

## **Veterinariya tamg'asi va shtamplari**

Go'shtni iste'molga yaroqli ekanligini tasdiqlovchi veterinariya tamg'asi va shtamplari mavjud bo'lib, ular tegishli yo'riqnomalar yicha tayyorlanadi.

Veterinariya tamg'alarini ovalsimon shaklda bo'lib, uning markazida 3 juft raqam aks ettiriladi - ularning birinchisi viloyat yoki shaharning tartib raqamini ifodalasa, ikkinchisi - mazkur tumanni va uchinchi jufti faoliyat ko'rsatayotgan veterinariya tashkiloti yoki muassasasini

bildiradi. Shuningdek, tamg'aning yuqori qismida tegishli davlatning nomi va pastida "Davlat veterinariya nazorati" yozib qo'yilgan. Ovalsimon shakldagi tamg'aning bosilishi, go'sht va go'sht mahsulotlarining to'liq veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazilib, iste'molga yaroqli ekanligini va cheklovlar siz oziq-ovqat uchun foydalanishga tavsija etiladi. Veterinariya shtamplari esa zararsizlantirilishi talab etiladigan go'shtlarga bosilib, ular veterinariya-sanitariya qoidalari bo'yicha cheklanib, foydalanishga ruxsat etiladi.

To'rt burchakli veterinariya tamg'alarining yuqori qismida "Vetxizmat" markazida "Dastlabki ko'rik" so'zлari yozilgan bo'lib, pastidagi uch juft raqamning birinchi jufti viloyat, shahar, ikkinchisi - tumanni va uchinchi jufti tashkilot yoki korxonani bildiradi.

Ushbu tort burchakli tamg'a bosilgan go'shtni so'yish oldi va so'yishdan keyin ko'rikdan o'tkazilgan hayvon go'shti ekanligini bildirib, bunda qo'shimcha ravishda to'liq hajmdagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilishi talab qilinadi.

To'rt burchakli veterinariya tamg'alarining yuqori qismida "Vetxizmat" markazida go'shtni zararsizlantirish usullari - "Qaynatish", "Qaynatilgan kolbasaga", "Go'shtli nonga", "Konservaga", "Eritish", (yog', sala), "Oqsil", "Finnoz", "Tuberkulyoz", "Util" so'zлari yozilgan bo'lib, pastki uch juft raqamlarning birinchi jufti viloyat, shahar, ikkinchisi - tumanni va uchinchi jufti tegishli tashkilot, muassasa va korxonani ifodalaydi.

To'rt burchakli qo'shimcha shtamplar esa go'shtning qaysi hayvon turiga mansubligini bildiradi:

"Ot go'shti", "Kiyik go'shti", "Ayiq go'shti" va hokazo.

Quyon va parrandalar go'shtining qoldiq mahsulotlariga ovalsimon tamg'alar bosilib, ular tegishli yo'riqnomaga bo'yicha kichik o'lchamda tayyorlanadi. Parrandachilik fabrika va xo'jaliklarining qushxonalarida tovuq go'shtlarining 1 va 2 toifasini bildiruvchi elektr tamg'alardan ham foydalaniladi.

Veterinariya tamg'asi va shtamplarining birinchi juft raqamlari Respublika Bosh veterinariya inspektorini tomonidan beriladi, ikkinchi juft raqamlar respublika bo'y sunuvidagi viloyat va shahar bosh veterinariya inspektorlari tomonidan beriladi, uchinchi juft raqamlar esa tuman (shahar) bosh veterinariya inspektorlari tomonidan beriladi. MDH mamlakatining Bosh veterinariya inspektorlari bir-birlariga ovalsimon shakldagi tamg'alarining ro'yxatini tegishli tartibda taqdim etishadi.

MDH mamlakatlari hududida ovalsimon tamg'a bosilgan go'sht va go'sht mahsulotlarini sotishga ruxsat etiladi. "Dastlabki ko'rik" shtampi bosilgan go'sht va go'sht mahsulotlarini o'z davlatidan chetga chiqarish man etiladi.

### **Go'sht va uning qoldiq mahsulotlarini tamg'alash tartibi**

Barcha turdag'i hayvon go'shtlariga veterinariya tamg'asi va shtampi quyidagi tartibda bosiladi:

- go'sht nimiralarining har bir kundan va son qismlarining ustiga bir marotabadan tamg'a bosiladi;

- kalla, yurak, til, o'pka, jigar va bo'yralarga bir marotabadan bosiladi;

- quyon va nutryalarning go'shtini 2 joyiga - ko'krak va sonning tashqi yuzasiga tamg'a bosiladi;

- tovuq go'shtning bo'yin yoki sonning tashqi yuzasiga bitta tamg'a bosiladi;

- parrandachilik xo'jaliklarida elektro tamg'adan foydalanib, jo'ja, tovuq va o'rdak jo'jalarining bir oyog'ining boldiriga, o'rdak, g'oz, ko'rka hamda g'oz va ko'rka jo'jalarining ikkala oyog'ining boldiriga bosiladi;

- sanoatda qayta ishlashi lozim bo'lgan parranda go'shtining elka qismiga "S" elekrotamg'asi bosiladi;

- yilqi, tuya, kiyik, ayiq, eshak va xachirlarning go'shtlari veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazilib, veterinariya tamg'asi yoki shtampi bosiladi;

- yog' mahsulotlariga tamg'a bosilmaydi, balki tamg'alangan yorliq yopishtiriladi.

Veterinariya-sanitariya ekspertizasidan to'liq o'tkazish imkonni bo'limgan go'sht va uning qoldiq mahsulotlariga "Dastlabki ko'rik" shtampi bosilib, davlat veterinariya muassasalaridan biriga jo'natiladi.

Zararsizlantirib, qayta ishlashga jo'natiladigan go'sht va uning qoldiq mahsulotlariga zararsizlantirish usulini ko'rsatuvchi shtamp bosiladi. Tamg'a esa bosilmaydi.

Erkak cho'chqalarning go'shtiga tamg'a bilan birga "Xryak SQI" (sanoatda qayta ishlash) shtampi bosiladi.

Tovuq go'shti tashiladigan idishlarga "Qaynatish", "Konservaga" va boshqa shtamplar bosilgan bir nechta yorliq yopishtiriladi.

Barcha turdag'i hayvonlarning go'shti veterinariya-sanitariya ekspertizasi tekshiruvi bo'yicha iste'molga yaroqsiz deb topilgan go'sht nimtalariga 3-4 tadan "Util" shtampi bosiladi.

Go'shtlarni nomaqbul holatda saqlash va tashish oqibatida veterinariya-sanitariya sifati buzilsa, oval tamg'asi bekor qilinadi va takroran veterinariya-sanitariya ekspertizasi o'tkazilib, tegishli tartibda shtamp bosiladi.

Mazkur qoidalarning bajarilishini nazorat qilish va javobgarlik:

Go'shtni tamg'alash vakolati berilgan veterinariya mutaxassislar belgilangan tartibda go'shtning veterinariya-sanitariya sifati uchun javobgar hisoblanadi.

Ushbu qoidaga rioya qilish barcha veterinariya mutaxassislar, mulkchilik shakli va vazirlik hamda idoraviy buysunuvidan qat'iy nazar go'shtni tayyorlovchi, qayta ishlovchi korxonalar, bozor va muzlatkichlarning rahbarlari hamda fuqarolar uchun ham majburiydir.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha savdo va ovqatlanish muassasalaridan go'shtni sotish hamda qayta ishlash uchun ovalsimon tamg'a bosilgan va "Veterinariya guvohnomasi" yoki "Sertifikati" bo'lgan go'shtlarni qabul qilishi talab etiladi.

Mazkur qoidaning ijrosini nazorat qilish davlat veterinariya nazorati organlariga yuklatiladi.

## GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI TAMG'ALASH UCHUN VETERINARIYA TAMG'ASI VA SHTAMPLARINING NAMUNALARI

### 1. Ovalsimon shakldagi tamg'a

O'lchami: 40x60

O'zbekiston	Aylananening eni-1,5 mm.
	Harf balandligi-12 mm.
	Raqam balandligi-12 mm.

Davvetnazorat

### 2. Quyon va natriyalarning go'shtini tamg'alash uchun kichik o'lchamli ovalsimon tamg'a:

O'lchami: 25x40

O'zbekiston.	Aylananening eni-1 mm.
	Harf balandligi-3 mm.
	Raqam balandligi-6 mm.

Davvetnazorat

3. To‘rtburchak shakldagi tamg‘a:

<b>Vetxizmat</b>
<b>Dastlabki ko‘rik</b>
<b>08-01-02</b>

O‘lchami: 40x60  
Chiziqning eni – 1,5 mm  
Harf va raqam balandligi  
- 7 mm

4. Veterinariya shtamplari:

<b>Vetxizmat</b>
<b>Finnoz</b>
<b>08-01-02</b>
<b>Vetxizmat</b>
<b>Tuberkulyoz</b>
<b>08-01-02</b>

<b>Vetxizmat</b>
<b>Qaynatish</b>
<b>08-01-02</b>
<b>Vetxizmat</b>
<b>Konservaga</b>
<b>08-01-02</b>

<b>Vetxizmat</b>
<b>Go‘shtli nonga</b>
<b>08-01-02</b>

<b>Vetxizmat</b>
<b>Utilga</b>
<b>08-01-02</b>

O‘lchami: 40x70, chiziqning eni-1,5 mm., harf va raqam balandligi- 7 mm.

5. Qo‘srimcha shtamplar

<b>Ot go‘shti</b>	<b>Ayiq go‘shti</b>	<b>XRYAK- PP</b>	<b>Tuya go‘shti</b>
-------------------	-------------------------	----------------------	-------------------------

O‘lchami: 20x50, chiziqning eni-1,5mm., harf va raqam balandligi-7 mm.

6. Parrandachilik xo‘jaliklarida tovuq go‘shtiga bosish uchun quyidagi elekrotamg‘alardan foydalaniladi:

1            2            S

Barchasining balandligi 20 mm.

MDH qatnashchi davlatlarning veterinariya sohasidagi hukumatlararo Kengashi tomonidan 1998 yil 22 oktyabr Toshkent shahrida tasdiqlangan “Go‘shtlarni veterinariya tamg‘alash yo‘riqnomasi”sining 2.7 bandiga asosan tamg‘a va shtamplardagi 1-juft

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tartib raqamlari alfavitida quyidagicha belgilanadi:

Viloyatlar nomi	Tartib raqami
Qoraqalpog'iston Respublikasi	01
Andijon	02
Buxoro	03
Jizzax	04
Qashqadaryo	05
Navoiy	06
Namangan	07
Samarqand	08
Surxandaryo	09
Sirdaryo	10
Toshkent	11
Farg'ona	12
Xorazm	13
Toshkent shahri	14

**Nazorat savollari:**

1. Ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalarida veterinariya-sanitariya nazoratini amalga oshirish jarayonlari?
2. Hayvonlarni so'yish jarayonida veterinariya-sanitariya nazorati?
3. So'yilgan hayvon tanalari va a'zolarining so'yishdan keyin veterinariya-sanitariya ko'rigidan o'tkazish tartibi?
4. Hayvon jasadlarini (o'liklarini) util qilish va yo'qotish qanday amalga oshiriladi?
5. Hayvon gavdalarini veterinariya tamg'asi va shtampi bilan tamg'alash qoidalari?

## VII. XORIJY DAVLATLARDA VETERINARIYA XIZMATI

### XORIJY DAVLATLARDA VETERINARIYA XIZMATI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA XIZMATINING XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI

#### Xalqaro veterinariya tashkilotlari va ularning ahamiyati

Davlatning qaysi tizimda rivojlanishidan qat'iy nazar shu davlat fuqarolarning sog'ligini saqlash, chorva mahsuloti va uning xom ashyolari orqali aholini antroponozoonoz kasalliklardan asrash aholiga sifatli va sog'lom chorva mahsulotini yetkazib berish chet davlatlarda yuqumli kasallikni olib kelinishga yo'l qo'ymaslik va davlat ichida yuqumli kasallikni tarqalib ketishini oldini olishda veterinariya xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan har bir davlat veterinariya xizmati oldida asosan ikkita muammo turadi:

1. Mamlakatni epizootiyaga o'tishidan va uni ichida epizootik kasallik chiqib ketishdan mustahkam qo'riqlash.

2. Yuqumli kasallikni oldini olish bo'yicha kompleks amaliy ishlar olib borish.

Bu muammoni birinchi yo'nalishi dunyo mamlakatlari epizootik ahvolini yaxshi bilish va xalqaro veterinariya tashkilot bilan yaqin aloqa o'rnatishni talab qiladi. Bu har bir davlatni veterinariya organlari rahbarlari tomonidan amalga oshirish lozim.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda jahon miqyosida 350 mingdan ortiq veterinariya mutaxassislari xizmat qilmoqda. Jahonda veterinariya vrachlarini tayyorlaydigan 200 dan ortiq universitet, institut, fakultet va kollejlar mavjud, veterinariya feldsherlari esa jami mamlakatlarda bir xil tayyorlanmaydi. Asosiy veterinariya sohasidagi ilmiy ishlarning yo'nalishi va davlatning oldida turgan veterinariya sohasidagi muammolarni ochishga qaratilgan. Barcha davlatlar orasida bir bo'lgan muammolarni tugatish maqsadida o'zaro kelishilgan hujjat (konvensiya) qabul qilinadi. Bunday hujjatlarni xalqaro veterinariya konvensiyalari (XVK) deb ataladi.

Xalqaro veterinariya konvensiyalarning hujjatlari shu tashkilotga a'zo bo'lgan tashkilotlari uchun majburiy hujjatdir 1962 yilda o'zaro iqtisodiy yordam kengashdagi davlatlari o'rtasida (Germaniya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Mongoliya, Kuba va boshqalar) XVK ishlab chiqqan bo'lib, bu davlat hududida kengash tarqalgan kasalliklarni oldini olishga qarshi biologik preparatlar ishlab chiqarish, ilmiy

izlanishlarni rejalashtirish veterinariya tadbirlarini amalga oshirish xususida kelishuv imzolangan.

Xuddi shunday kelishuv Finlyandiya, Iron, Afg'oniston, Italiya va Turkiya bilan, masalan 1967 yil Turkiya bilan Rossiyaning konvensiyasida 2 ta davlat tomonidan shu davlat chegarasida 30 km chegara zonasi tashkil qilingan.

### **Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti va xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti (XSST)**

Bugungi kunda jahon globollashuv jarayonida butun dunyoda aholini inson va hayvonlar uchun umumiyl bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashni jahon miqyosida muvofiqlashtirishda Butunjahon hayvonlar sog'ligini himoya qilish tashkiloti (Xalqaro Epizootik Byuro) alohida o'rinn egallaydi.

Xalqaro veterinariya tashkilotlari xalqaro veterinariya konvensiyasining mahsuli sifatida Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti (Xalqaro epizootik byuro) tashkil topgan. Bu davlatlararo xalqaro tashkilot bo'lib uning asosiy vazifasi butun dunyoda yuqumli kasallik bilan kurashishdir.

Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti 1924 yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda dunyoning 180 dan ortiq davlatlari mazkur Xalqaro tashkilot a'zosi hisoblanadi. Dunyo iqtisodiy integratsiyalash jarayonida faol ishtirot etish, Xalqaro me'yordan o'z vaqtida xabardor bo'lish, Xalqaro veterinariya kodeksiga muvofiq boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama teng huquqli munosabatlarga kirish va boshqa imkoniyatlardan keng foydalanish maqsadida O'zbekiston 1992 yil 9 oktyabrdan Xalqaro Epizootik Byuroning a'zosi hisoblanadi.

Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkilotining oliv organi Delegatlarning butunjahon asambleyasini hisoblanib, har yili may oyida Byuroning shtab kvartirasi joylashgan Parij shahrida Delegatlar butunjahon asambleyasining bosh sessiyasi bo'lib o'tadi. Ushbu bosh sessiyada barcha a'zo mamlakatlarda birdek kuchga ega bo'lgan tegishli qarorlar, rezolyutsiyalar, tavsiyalar qabul qilinadi va boshqa tashkiliy hamda zaruriy masalalar ko'rib chiqiladi.

Byuroga rahbarlikni Delegatlarning butunjahon asambleyasini tomonidan besh yililik muddatga saylanadigan Bosh direktor amalga oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qo'llanmalar, tavsiyalar hamda veterinariya sohasida Xalqaro kodekslar, standartlar, turli kasalliklarni oldini olishga qaratilgan o'quv va amaliy qo'llanmalar kabi Xalqaro hujjatlarni joriy etish hamda jahonda hayvonlar orasida yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishini oldini olish va veterinariya sohasini butunjahon miqyosida muvofiqlashtirish va tartibga solish Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkilotining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

So'nggi yillarda Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti bilan mamlakatimizning o'zaro manfaatli hamkorligi mustahkamlanib bormoqda. Xususan, Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasiga amaliyotda foydalanish uchun quyidagilar ta'minlanmoqda:

Quruqlikdagi hayvonlar sog'ligi kodeksi (2 ta tomdan iborat, yillik nashr);

Suvdag'i hayvonlar kodeksi (yillik nashr);

Xalqaro Epizootik Byuro byulleteni;

Tashxis ishlari bo'yicha xalqaro qo'llanma;

Yangi kasalliklar, ularni diagnostikum va qarshi kurashish ishlari bo'yicha tavsiyalar.

Shuningdek, byuroning rasmiy veb sahifasida shaxsiy kabinet orqali olish huquqi asosida dunyo mamlakatalaridagi epizootik holatlar to'g'risidagi axborotlar, dunyo davlatlarida qayd etilgan hayvonlarning yuqumli kasalliklari to'g'risidagi ma'lumotlar va amalga oshirilgan tadbirlar, yangidan yaratilayotgan veterinariya dori vositalari, ularni qo'llashga oid ko'rsatmalar hamda veterinariyaga oid boshqa ma'lumot, tavsiya, qo'llanma va munosabatlar o'rganib boriladi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar va axbortlardan mamlakatimizda veterinar osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashda hamda dunyodagi epizootik vaziyatni monitoring qilib borishda foydalanilmoqda.

Kelib chiqishi chorvachilikka mansub mahsulot va xom ashyolarni eksport, import va tranzit qilinishida ushbu axborotlar rasmiy va ishonchli axborotlar bo'lib, ulardan keng foydalanish natijasida bugungi kunda O'zbekistonga import qilinayotgan hayvonlar hamda ulardan olinadigan mahsulot va xom ashyolar orqali hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishini oldini olishga erishilmoqda.

Shuningdek, Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkiloti tomonidan tashkil etilayotgan Xalqaro seminar-treninglarda mutaxassislar ishtirot etib, bilim malakasini oshirib borishmoqda.

Birlashgan millatlar tashkiloti huzuridagi VOZ-BJSST FAO oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarish nazorati tashkiloti bilan doimiy aloqada bo'ladi. Butunjahon hayvonlar sog'lig'ini himoya qilish tashkilotining rahbar organi bo'lib uning qo'mitasi hisoblanadi qo'mita a'zolari qilib har bir davlatdan bir kishidan olinadi. Har yili bu tashkilotning bosh sessiyasi o'tkazilib turiladi va bu sessiyada yuqumli kasalliklar bo'yicha paydo bo'lgan muammolar hal etiladi. Agarda ayrim davlatlarda epizootiya xavfi bo'lsa bu davlatda qo'shni davlat veterinariya tashkilotlari bilan birgalikda regional majlis o'tkaziladi va shu kasalliklarni yo'qotish tadbiri tuzilib zaruri yordam beriladi.

Butunjahon veterinariya assotsiatsiyasi (BVA) – hukumatsiz xalqaro tashkilot bo'lib, 1863 yilda tashkil topgan uning shtab kvartirasi Jeneva shahrida joylashgan. Uning asosiy maqsadi jahon veterinariya mutaxassislarini birlashtirish, jahon veterinariya kongresslarini tashkil qilish va o'tkazish, butunjahonda veterinariya sohasini ilmiy ishlarining rivojiga ko'mak berish. Bu tashkilot 70 ga yaqin davlatlarning veterinariya xizmatini birlashtirgan bo'lib, qo'shimcha 12 ta maxsus yo'nalishdagi veterinariya mutaxassislarining tashkilotlar o'z ichiga oladi Xalqaro anatomlar, Xalqaro fiziologlar, Xalqaro farmakologlar va bioximiklar tashkiloti va hokazo. Bu tashkilotning rahbariyati qo'mita hisoblanib har yili o'z majlisini o'tkazadi. Ammo jahon bo'yicha kongresslar 4 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

#### Nazorat savollari:

1. Xalqaro veterinariya tashkilotlari va ular bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatilishi?
2. Xalqaro veterinariya tashkilotlarining vazifalari?
3. Xalqaro epizootik byuro nechanchi yilda tashkil topgan?
4. Xalqaro epizootik byuroning bosh shtab kvartirasi qaerda?
5. Xalqaro epizootik byuroga nechta davlat a'zo bo'lgan?
6. Xalqaro epizootik byuro (XEB)ga O'zbekiston qachon a'zo bo'lgan?
7. Xalqaro epizootik byuroning sessiyasi har yili qaysi vaqtda o'tadi?
8. Butunjahon veterinariya assotsiatsiyasi qachon tashkil topgan va unga nechta davlat a'zo bo'lgan?
9. Jahonda veterinariya kongresslari necha yilda bir o'tkaziladi?

## GLOSSARIY

O'zbek tili	Ingliz tili	Rus tili	Ma'nosi
Veterinariya	Veterinary Medicine	Ветеринария	Hayvonlarning hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, hayvonlar kasalliklari paydo bo'lishining, tarqalishining oldini olishni va ularni tugatishni, aholini hayvonlar va odam uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan muhofaza qilishni, hayvonlarga veterinariya xizmati ko'rsatilishini amalga oshirishga, veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi
Biologik chiqindilar	Biowaste	Биологические отходы	Hayvonlarning jasadlari, veterinariya-sanitariya jihatidan xavfli deb topilgan, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariyaga oid biologik sanoat chiqindilari
Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari	Veterinary, veterinary and sanitary rules and norms	Ветеринарные, ветеринарно-санитарные правила и нормы	Veterinariya sohasidagi talablarni belgilovchi, davlat organlari va boshqa organlar, yuridik va jismoniy shaxslar rioya etishi shart bo'lgan hujjatlar
Veterinariya dori vositalari	Veterinary medicines	Ветеринарные лекарственные средства	Kelib chiqishi tabiiy va sintetik bo'lgan dori moddalaridan yoki dori moddalarini aralashmasidan olingan, hayvonlar kasalliklari profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek hayvonlar organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun mo'ljallangan vositalar
Veterinar osoyishtalik	Veterinary welfare	Ветеринарное благополучие	Hayvonlarning sog'lig'iga salbiy omillarning zararli ta'sirlari, epizootiya mavjud bo'lmagan, shuningdek hayvonlarning yashashi uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanadigan holat

Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar	Under control of the State Veterinary Service Products	Подконтрольные государственные ветеринарной службе товары	Hayvonlar, kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xom ashyo, veterinariya dori vositalari, mikroorganizmlar shtammlari, ozuqalar va ozuqabop qo'shimchalar, veterinariya texnika vositalari, shuningdek bozorlarda realizatsiya qilinadigan o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari
Kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot	Animal Products	Продукция животного происхождения	Go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek asalarichilik mahsulotlari
Kelib chiqishi hayvonotga mansub xom ashyo	Raw animal	Сыре животного происхождения	Hayvonlardan olinadigan, qayta ishslashga mo'ljallangan mahsulotlar
Nobop punkt	Disadvantaged point	Неблагополучный пункт	Hayvonlar yuqumli kasalliklarining o'chog'i aniqlangan hudud
Ozuqa	Feed	Корма	Hayvonlarni oziqlantirish uchun foydalaniladigan, kelib chiqishi o'simlik va hayvonotga mansub mahsulotlar
Ozuqabop qo'shimchalar	Feed additives	Кормовые добавки	Hayvonlar ratsionida etishmaydigan ozuqaviy va mineral moddalar hamda vitaminlarning manbalari sifatida foydalaniladigan, kelib chiqishi organik, mineral va sintetik moddalar
CHeklovchi tadbirlar (karantin)	Restrictive measures quarantine	Ограничительные мероприятия (карантин)	Hayvonlar yuqumli kasalliklari o'choqlarining doirasini kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka va ularni tugatishga, aholi, transport vositalari, yuklar va tovarlar harakati cheklanishini nazarda tutuvchi ma'muriy, epizootiyaga qarshi chora-tadbirlari
Epizootiya	Epizootic	Эпизоотия	Tegishli hududda hayvonlarning o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklari tarqalishi

Epizootiyaga qarshi tadbirlar	Anti-epizootic measures	Противоэпизоотические мероприятия	Epizootiyaning oldini olishga, uni aniqlashga yoki tugatishga doir tashkiliy va maxsus veterinariya tadbirlari tizimi
Hayvonlarning yuqumli kasallikkilari	Contagious animal diseases	Заразные болезни животных	Paydo bo'lishiga hayvonlarga kasalliklarning qo'zg'atuvchilari ta'siri sabab bo'ladigan, tarqalishi hamda boshqa hayvonlarga va odamga o'tishi ehtimoli mavjud bo'lgan kasalliklar
Yo'riqnomalar	Instructions	Инструкция	Kasallikkilarga qarshi chora-tadbirlar belgilab berilgan bo'lib, qat'iy bajarilishi shart
Qoidalari	Rules	Правила	Hayvonlarni asrash, oziqlantirish, jo'natish jarayonlarining veterinariya tartib qoidalari bayon etiladi
Qo'llanma	Benefit	Пособие	Ma'lum turdag'i, veterinariya muolajasining bajarish usuli bayon etiladi
Tavsiyalar	Recommendation	Рекомендация	Ma'lum turdag'i, veterinariya muolajasining bajarish uchun muljallangan
Ko'rsatma	Designation	Указание	Veterinariya organlarining Respublika miq'yosida o'tkazishni talab etadigan ko'rsatmalari
Nizom	Position	Положение	Veterinariya muassasasi yoki ayrim veterinariya mansabdor shaxslarning huquq va vazifalari bayon etiladi
Istiqboliy reja	Planning ahead	Перспективные планирование	Bu reja odatda veterinariya tashkilotlari, qisman tuman va xo'jalik miqyosida 5-10 va undan ortiq yilga tuziladi.
Joriy (yilik) reja	Kurrent planning (Anua)	Текущие планирование (годовой)	Bu rejalar tuman veterinariya tarmoqlari va xo'jaliklarda, ulardag'i epizootik vaziyatlar holatiga qarab 1 yil muddatga tuziladi.
Tezkor (operativ) reja	Operational planning	Оперативные планирование	Bu rejalar - aniq davrlar uchun, zarur moddiy va mehnat xarakatlarni hisobga olib, veterinariya qonunchiligi talablariga qat'iy rioya kilgan holda ishlab chiqiladi.

Yaxlitlik	Unity	Единство	Barcha xo'jalikdagi aniq belgilangan veterinariya tadbirlari bir paytda o'tkazilishi shart
Umumiylit	Complexity	Комплексность	Maxsus veterinariya tadbirlarini xo'jalik tashkilliy rejalar bilan monandligi
Ommaviylik (demokratlik)	Democracy	Демократичность	Barcha rejalashtirish ishlari qo'yidan yuqoriga qadar bajariladi
Etakchi tadbir	Leading link	Ведущие звено	Rejadagi l-darajali yoki bosh tadbirga urg'u beriladi
Iqtisodiy samaradorlik	Cost-effectiveness	Экономической эффективности	Bu malakali veterinariya xizmati ko'rsatish evaziga erishilgan mahsuldarlikning qiymati bilan ifodalanib, turli formulalar yordamida aniqlanadi.
Haqiqiy zarar	Economic damage	Экономический ущерб	Bu chorva mollari va parrandalarning kasallanishi oqibatida yo'qotilgan mahsulot yoki tirik hayvonlar qiymatini so'mdag'i ifodasi
Oldi olingan zarar	Prevented economic damage	Предотвращенный экономический ущерб	Bu ko'rsatkich veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini ifodalab, kasalliklarni barvaqt oldini olib, profilaktik muolaja o'tkazish evaziga bartarf etilgan ehtimoldagi zarardir.
Kasallanish koefitsienti	Incidence ratio	Коэффициент заболеваемости	Kasallangan mollar sonini kasallikka moyil bo'lgan barcha mollar soniga bo'lish orqali aniqlanadi
O'lim koefitsienti	Mortality ratio (CFR)	Коэффициент падежа (летальность)	Kasallik oqibatida o'lgan mollar sonimi jami kasal mollar bosh soniga nisbatli bilan aniqlanadi
Zarar koefitsienti	Damage ratio	Коэффициент ущерба	Kasallik oqibatidagi jami zarar miqdorini barcha kasal mollarga nisbatiga tengdir

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezungilik va buniyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
5. Davlatov R.B., Norqobilov B.T., Qurbanov Sh.X. Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodi. Darslik, Samarcand, 2019 yil. – 304 bet.
6. Abduraxmonov T.A., Davlatov R.B. Veterinariya ishini tashkillashtirish va uning iqtisodi. Samarcand, Zarafshon nashriyoti, 2004.
7. Юшкова Л.Ю. Организация ветеринарного дела в Российской Федерации (В развитие закона РФ «О ветеринарии»). Новосибирск, 2001.
8. James S. Gaynor., William W. Muir. Handbook of Veterinary Pain Management. 2014.
9. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Toshkent "Adolat", 2010.
10. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2018.
11. Veterinariya sohasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar.  
Internet saytlari:
  1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
  2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  3. [www.vetgov.uz](http://www.vetgov.uz)
  4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

**MUNDAREJA**

<b>KIRISH.....</b>	3
<b>I-BOB. UMUMIY, TASHKILIY VA BOSHQARUV MASALALARI.....</b>	4
Veterinariya ishini tashkil etish faning maqsad va vazifalari.....	4
Veterinariya qonunchiligi. O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni.....	6
Veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi va boshqaruvi.....	31
<b>II-BOB. VETERINARIYADA HISOBGA OLİSH VA İSH YURİTİSH.....</b>	42
Veterinariyada hisobga olish hujjatlari.....	42
Veterinariyada hisobot va ish yuritish.....	54
Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish va hisobdan chiqarish tartibi.....	64
<b>III-BOB. VETERINARIYA TADBİRLARINI REJALASHTIRISH VA TASHKİLLAŞHTIRISH.....</b>	75
Veterinariya tadbirlarini rejaliashtirish.....	75
Veterinariya tadbirlarini tashkillashtirish.....	89
Veterinariya xizmati binolarining qurilishini tashkil etish.....	116
<b>IV-BOB. VETERINARIYA TADBİRLARINI İQTISODI, MOLİYAVİY VA MODDIY TA'MİNOTI.....</b>	120
Veterinariya tadbirlarini iqtisodi.....	120
Veterinariya tadbirlarini moliyalashtirish.....	126
Veterinariya tadbirlarining moddiy ta'mnoti.....	131
<b>V-BOB. VETERINARIYA XİZMATINI TASHKIL QILISH.....</b>	136
Tumanlarda veterinariya xizmatini tashkil qilish.....	136
Shaharlarda veterinariya xizmatini tashkil qilish.....	141
Ishlab chiqarishda veterinariya xizmatini tashkil qilish.....	152
Xususiy veterinariya xizmatini tashkil qilish.....	159
<b>VI-BOB. VETERINARIYA-SANITARIYA NAZORATI.....</b>	165
Veterinariya sanitariya nazoratini tashkil qilish.....	165
Chorvachilik xo'jaliklarida, transport va davlat chegarasida veterinariya sanitariya nazorati.....	180
Ishlab chiqarish korxonalarida veterinariya sanitariya nazorati.....	184
<b>VII-BOB. XORİJJİY DAVLATLARDA VETERINARIYA XİZMATI...</b>	194
Xorijiy davlatlarda veterinariya xizmati, O'zbekiston Respublikasi veterinariya xizmatining xalqaro hamkorlik aloqlari.....	194
<b>Glossariy.....</b>	194
<b>Foydalilanigan adabiyotlar.....</b>	202

## ОГЛАВЛЕНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	<b>3</b>
<b>ГЛАВА I. ОБЩИЕ, ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ.....</b>	<b>4</b>
Цели и задачи науки об организации ветеринарной дела.....	4
Ветеринарное законодательство Закон Республики Узбекистан «О ветеринарии».....	6
Организационная структура и управление ветеринарной службой.....	31
<b>ГЛАВА II. ВЕТЕРИНАРНЫЙ УЧЕТ И ДЕЛОПРОИЗВОДСТВО.....</b>	<b>42</b>
Регистрационные документы в ветеринарии.....	42
Отчетность и делопроизводство в ветеринарии.....	54
Идентификация животных, их регистрация и деактивация.....	64
<b>ГЛАВА III. ПЛАНИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИИ ВЕТЕРИНАРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ.....</b>	<b>75</b>
Планирование ветеринарных мероприятий.....	75
Организация ветеринарных мероприятий.....	89
Организация строительства ветеринарных объектов.....	116
<b>ГЛАВА IV. ЭКОНОМИКА ВЕТЕРИНАРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ, ФИНАНСИРОВАНИЕ И СНАБЖЕНИЕ.....</b>	<b>120</b>
Экономика ветеринарных мероприятий.....	120
Финансирование ветеринарных мероприятий.....	126
Организация ветеринарного снабжения.....	131
<b>ГЛАВА V. ОРГАНИЗАЦИЯ ВЕТЕРИНАРНОГО ДЕЛА.....</b>	<b>136</b>
Организация ветеринарного дела в районах.....	136
Организация ветеринарного дела в городах.....	141
Организация ветеринарной дела на производстве.....	152
Организация частной ветеринарной службы.....	159
<b>ГЛАВА VI. ВЕТЕРИНАРНО-САНИТАРНОГО НАДЗОРА.....</b>	<b>165</b>
Организация ветеринарно-санитарного надзора.....	165
Ветеринарно-санитарный надзора на животноводческих фермах, транспорте и государственной границе.....	180
Ветеринарная санитарная инспекция на предприятиях обрабатывающей промышленности.....	184
<b>ГЛАВА VII. МЕЖДУНАРОДНЫЕ ВЕТЕРИНАРНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ.....</b>	<b>194</b>
Международные ветеринарные организации, международное сотрудничество ветеринарной службы Республики Узбекистан.....	194
<b>Глоссарий.....</b>	<b>198</b>
<b>Использованная литература.....</b>	<b>202</b>

## ANNOTATSIYA

Ushbu darslik veterinariya meditsinasi texnikumlarining 50840101 – Veterinariya feldsheri (faoliyat turlaribo'yicha) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun rejalashtirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, darslik ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlangan. Darslikda veterinariya qonunchiligi O'zbekiston Respublikasining "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni, veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi va uni boshqarish, veterinariyada hisobga olish jurnallari, hisobotlar, hisobga olish hujjat namunalari va birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, veterinariya tadbirlarini rejalashtirish va tashkillashtirish jarayonlari, veterinariya tadbirlarini iqtisodiy samaradorligini tahlili ko'rsatkichlari, veterinariya tadbirlarini moliyaviy va moddiy ta'minoti, tuman (shahar)larda veterinariya xizmatini tashkil qilish, veterinariya sanitariya nazoratini tashkil qilish, xorijiy davlatlarda veterinariya xizmati va ular bilan hamkorlik aloqalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

## АННОТАЦИЯ

Данный учебник предназначен для студентов, обучающихся по направлению 50840101 - Ветеринарно-фельдшерское (виды деятельности) направление техникумов ветеринарной медицины. Учебник составлен на основе учебного плана, утвержденного на заседании №-6 29-октября 2022-года Координационного совета Республики Узбекистан в сферах высшего, среднего специального и профессионального образования и утвержденного приказом Министерства 388 от 25-ноября 2022-года, составлен на основании учебной программы, учебник подготовлен с использованием передовых педагогических и информационно-коммуникационных технологий. В учебнике предоставлен Закон Республики Узбекистан “О ветеринарии”, организационная структура ветеринарной службы и её руководства, журналы бухгалтерского учета, отчеты, образцы учетных документов и порядок выдачи первичных документов, порядок планирование и организация ветеринарных мероприятий, показатели экономической эффективности ветеринарной деятельности, финансовое и материальное обеспечение ветеринарной деятельности, организация ветеринарной службы в районах (городах), организация ветеринарно-санитарного контроля, ветеринарная служба в зарубежных странах и отношения сотрудничества с ними.

## **ANNOTATION**

This textbook is intended for students studying in the direction 50840101 - Veterinary paramedical (types of activity) direction of technical schools of veterinary medicine. The textbook was compiled on the basis of the curriculum approved at meeting № 6 on October 29, 2022 of the Coordinating Council of the Republic of Uzbekistan in the areas of higher, secondary specialized and vocational education and approved by order of the Ministry 388 of November 25, 2022, compiled on the basis of the curriculum, the textbook was prepared using advanced pedagogical and information and communication technologies. The textbook provides the Law of the Republic of Uzbekistan "On Veterinary Medicine", the organizational structure of the veterinary service and its management, accounting journals, reports, samples of accounting documents and the procedure for issuing primary documents, the procedure for planning and organizing veterinary activities, indicators of economic efficiency of veterinary activities, financial and material provision of veterinary activities, organization of veterinary service in regions (cities), organization of veterinary and sanitary control, veterinary service in foreign countries and cooperation relations with them.

**Davlatov Ravshan Berdiyevich, Rustamov Baxtiyor Suvonqulovich**

**VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH  
(darslik)**

**Toshkent, "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023, 208 bet**

**"Fan ziyosi" nashriyoti MCHJ**

**Litsenziya № 3918, 18.02.2021.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30**

**Nashriyot direktori  
Muharrir  
Texnik muharrir**

**I.Xalilov  
N.Tojiqulova  
L.Fayziyev**

**Qog'oz bichimi 60x84 1/16.  
Times New Roman garniturası.  
Shartli hisob tabog'i – 13,0. Nashriyot hisob tabog'i – 14,0  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 12/4**

**«Sogdiana ideal print» MCHJda chop etildi.  
Samarqand sh., Tong k., 55**

978-9910-743-2-4-5

A standard one-dimensional barcode is positioned vertically within a white rectangular area. The barcode represents the ISBN number 9789910743245.

9 789910 743245 >